

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**Bakalavriatning O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi uchun**

**"BADIY T AHLIL ASOSLARI"**  
**fanidan**

**MA'Ruzalar MATNI**

Tuzuvchi: Aldasheva Sh

**Nukus-2010**

## "BADIY TAHLIL ASOSLARI" FAN SIFATIDA

REJA:

1. "Badiy tahlil asoslari" fanining predmeti.
2. "Badiy tahlil asoslari" fanining ijtimoiy ahamiyati.
3. "Badiy tahlil asoslari" fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.
4. "Badiy tahlil asoslari" fanining taraqqiyot istiqbollari.

Tayanch tushunchalar:

"Badiy tahlil", "hermenevtika", "badiy tahlil idroki", "ma'naviyat va badiy asar", "adabiyotshunoslik va tahlil", "tahlil va ma'naviyat".

"Badiy taxlil asoslari" kursi filolog mutaxassislarini badiy asar bilan professional darajada ishslashga urgatish omilidir. Dunyoning kupgina universitetlari, shuningdek, MDXning Rossiya, Kozogiston, Ukraina singari mamlakatlardagi universitetlarning filologiya fakultetlarida anchadan buyon "badiy taxlil" yoki "Xermenevtika" aloxida predmet sifatida urganilayotir. Badiy taxlildan xabarsizlik yoki bu borada yetarli malakaga ega bulmaslik oliy filologik ta'limni samarasiz kiladi. Uzbek adabiyotshunoslik ilmining dunyo adabiyottanuvi darajasidan orkadaligi, xermenevtik usullardan yirokligi, psixoanalitik strukturalizm imkoniyatlaridan foydalanolmasligi, badiy talkining, asosan, sotsiologik interpretatsiya tusida ekanligi badiy taxlil nazariyasini bilmaslik amaliyotini uzlashtirmaganlik okibatidir.

Badiy asar taxlili juda kadim zamonlardan buyon ilm egalarining dikkatini tortib kelgan. Shuning uchun xam unga olimlar tomonidan turlicha ta'rif berib kelingan. Badiy taxlil Chikish adabiyotshunoslik ilmida azaldan muxokama mavzusi bulgan. Forobiy, Axmad Taroziy, Navoiy, Bobur singari mutafakkirlarning asarlarida badiy taxlilga doir islomiy-turkiy karashlar aks etgan.

San'at inson evristik faoliyatining eng oliy kurinishidir. Badiy adabiyot san'atning boshka turlari orasida aloxida mavkega egadir. Chunki u inson ma'naviyatini shakllantirishda asosiy urin tutadigan vositadir. goyat kup ulchovli murakkab butunlik bulnish badiy adabiyot ukuvchi tomonidan ukilib, xis etilib, anglanib olingandagina ta'sirchan estetik-ma'naviy energiyaga aylanadi. Xis etilmagan, anglanmagan guzallik ma'naviyatga ta'sir kursata olmaydi. Shuning uchun xam adabiyot ukitishda badiy asar taxlili aloxida mavkega, axamiyatga egadir. Adabiy ta'lim oldidagi bosh maksadga erishish uchun filolog mutaxassis badiy asarni taxlillash yollarini puxta egallab olishi shardir. Badiy matn taxlilisiz barkamol shaxs shakllantirilishi amalga oshmaydigan orzudir, xolos. Chinakam badiy taxlil bulmagan joyda badiy matn ukuvchining tuygulariga ta'sir etmaydi, ma'naviyatining shakllanishiga xizmat kilmaydi.

Mafkuraviy adabiyot ukitish, aslida, badiy asarsiz adabiy ta'lim edi. Bunda badiy matnning uzi bilan emas, balki undan chikarilishi mumkin bulgan ijtimoiy ma'no bilan kizikilar edi, xolos. Natijada, adabiyot ukitish kuruk nasixat, yalangoch akidaparastlik, siyosatshunoslik, jamiyatshunoslikka aylanardi. Bu fakat Uzbekiston adabiy ta'limigagina xos xususiyat bulmay, kommunistik mafkura xukmronlik kilgan barcha ulkalarda xam axvol shu edi. Sovet Ittifoki atalmish bepoyon imperiyaning xamma joyida xam talabalarga yalangoch xakikatlar, zerikarli akidalar, sinfiy kurashlar moxiyatiga daxldor umumlashmalar, adiblar xayotiga doir ma'lumotlar singari axborotlarni yetkazish adabiy ta'lim deb karalar, yoshlар chinakam badiy suz ta'mini xis kilishdan, adabiy asar matnidan bevosita zavklanishdan uzib kuyilgan edi.

Jamiyat a'zolarining biror ilmiy xakikatni bilmay kolishi jamiyat uchun xam, shaxsning uzi uchun xam jiddiy yukotish bulmagani xolda, biror ma'naviy kadriyatni, axlokiy sifatni uzlashtirmaganligi chinakam fojiadir. Mamlakatimiz urta maktablarida taxsil kurgan xar bir kishi Pifagor teoremasini yoxud suvning kimyoviy tarkibi nimadan iborat ekanligini tutilmay aytib beroladi. "Tugri burchakli uchburchak gipotenuzasi kvadrati katetlar kvadratlari yigindisiga teng" ekani xakidagi ma'lumot ta'lim tizimi uchun uzlashtirish nixoyatda zarur xakikat xisoblanadi. Xolbuki, bu ta'rifni uzlashtirish yoki uzlashtirmaslik na tabiat, na jamiyat, na shaxs

rivojiga xal kiluvchi ta'sir kursata oladi. Eng muximi, mazkur xakikatni bilish ukuvchi ma'naviyatiga, kalbiga deyarli daxl kilmaydi. Pifagor teoremasini bilganda xam, bilmaganda xam kishining, uni urab turgan olamning moxiyati uzgarishsiz kolaveradi. Lekin xazrat Navoiyning:

Lolazor ermaski, ohimdin jahonga tushdi o't,  
Yo'q shafaqkim, bir qiroqdin osmonga tushdi o't  
matla'li yoki:

Meni men istagan o'z suhbatiga arjumand etmas,  
Meni istar kishining suhbatin ko'nglim pisand etmas  
tarzida boshlanadigan g'azallari bilan tanishgan, ularning badiiy jozibasi va mantiqiy qudratidan xabardor bo'lган odam uchun olam ham, odamlar ham, hayot ham boshqacharoq bo'lib qolishi aniq. Demak, asl badiiy asar odamning o'zida, uning tabiatida, ma'naviyatida evrilish sodir qiladi. Abdulla Oripovning har satridan insoniy dard balqib turuvchi "O'yalarim" she'ridagi quyidagi satrlar o'quvchi tuyg'ularida o'zgarish yasashini inkor etib bo'ladimi:

Olti oykim, she'r yozmayman, yuragim zada,  
Olti oykim, o'zgalarga tilayman omad.  
Olti oykim, do'stlarim ham pana-panada  
Iste'dodim so'nganidan qilar karomat.  
Nimanidir axtaraman she'r dan ham ulug',  
Nimanidir qidiraman nondan azizroq.  
Dunyo o'zi bepoyonku ranglarga to'lug',  
Biroq mening ko'zlarimdan ranglar ham yiroq.  
...She'r izlayman bukun Toshkent ko'chalarida,  
Sekingina zirqiraydi beorom qalbim.  
Men umrimning bu suronli kechalarida  
Na bir taskin topa oldim, na she'r topoldim.  
...Ta'na qilmay axir sevgim mukofotini  
Inson uchun ming otashda kuyar edim men.  
O, qanchalar sevar edim inson zotini,  
qanday buyuk muxabbat-la sevar edim men.  
Bugun to'nib atrofimga qarayman g'amgin,  
O't berolmas, qalbga endi u yoshlik damlar.  
Men insonni bir insonday sevardim, lekin  
Nechun ko'pdir haligacha razil odamlar...

Haqiqiy badiiyat, anglangan va anglatilgan go'zallik kitobxonning ma'naviyatigagina emas tafakkuriga xam ijobiyligi ta'sir ko'rsatadi, uning shaxs sifatida shakllanish jarayoniga to'g'ri yo'nalish beradi.

Badiiy adabiyotni faqat hayotiy savollarga javob beradigan, o'quvchilarni yashashga o'rgatadigan amaliy vosita tarzidagina taqdim qilish zararlidir. Chunki badiiy adabiyot savollarga javob bermaydi, balki kitobxon oldiga savollar qo'yadi. Shuningdek, u yoki bu tarzda yashash kerak deb tavsiya ham bermaydi, yo'l ko'rsatmaydi. Chunki inson tabiatining, hayotiy vaziyatlarning sanoqsizligi, hisobsiz muqobilarga egaligi bu xil tavsiyalarni darrov samarasiz qiladi. Mabodo, adabiyot biror buzilgan narsani tuzatsa ham, faqat muhabbat dorisi bilan, insoniylik malhami bilan tuzatadi.

Saksoninchi yillardan boshlab, adabiy ta'limda asar tahlilining hal qiluvchi ahamiyati anglanadigan bo'ldi. O'sha anglanishning, asar tahlili inson ma'naviyatining shakllanishida tutgan yuksak mavkei tan olinishining natijasi o'larok "badiiy tahlil" yoki "Hermenevtika" singari yangi filologik fanlar paydo bo'ldi hamda bir qator respublikalardagi oliy maktablarning filologiya fakultetlari o'quv rejalariga kiritilib, o'qitila boshlandi. Afsuski, filolog mutaxassislarining ham badiiy tahlil madaniyati g'oyat past, oliy maktablarni bitirib chiqayotgan yosh mutaxassislarda san'at asarlarini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirilishi lozim. Mazkur fan milliy

adabiyotshunoslik tomonidan nazariy jihatdan ishlab chiqilmokda. Xullas, hozirgi kunda, xuddi madaniy saviyasi baland mamlakatlarda bo'lgani singari, "Badiiy tahlil" ilmini yaratish hamda uning oliv o'quv yurtlari filologiya fakultetlarida o'qitilishiga erishish o'zbek adabiyotshunosligi oldidaga muhim vazifalardan biri. Shuning uchun ham "Badiiy tahlil asoslari" kursining o'zbek filologik ta'lomidagi xermenevtik yo'nalishdagi dastlabki fan sifatida o'qitilishi katta ma'rifiy ahamiyat kasb etadi.

qachonki, bo'lajak filolog badiiy asarlarni tahlil etish yo'l-yo'rig'ini fanniy asoslarda o'rganmas ekan va har qanday janrdagi asarni tahlillay olish malakasiga ega bo'lmas ekan, adabiy ta'limdan kuzatilgan maqsad to'liq amalga oshmaydi. Adabiyot o'qituvchisi nochorligicha, adabiyot darslari zerikarliligicha, asardan chiqariladigan xulosa "ijtimoiy nasihat"ligicha qolaveradi. Tahlil g'arib bo'lganligi uchun adabiyot o'qitish jarayoni oldiga qo'yilgan bosh maqsad, ya'ni barkamol shaxs shakllantirishga erishilmaydi, uning o'rniga quruq va yoqimsiz nasihat bilan o'quvchilarni haqiqiy adabiyotdan bezdirish, binobarin, ularning ma'naviyatini kambag'allashtirish davom etaveradi.

Adabiyot mutaxassislari taxlillash malakasiga yetarlicha ega bulmaganliklari uchun talabalarga nima "berish"ni xam, ulardan nimani "olish"ni xam bilishmaydi. Shu bois, adabiyot darslarida talabalar zimmasiga goyat yengil va keraksiz "yuk" kuyiladi. Yengil-elpi talabalarning xayolotini ishga solmaydigan, aklini zuriktirmaydigan "javob"lar adabiyot buyicha ijobjiy baxo olish uchun yetarli xisoblanib kelinadi. Chunonchi, fizika darsida butun olam tortilish konunini yaratish uchun Nyutonning boshiga tasodifan tushib ketgan olma turki bulganini aytgan, ammo konunning moxiyatini bilmagan ukuvchiga "yomon" baxo kuyiladi va tugri kilinadi. Ammo "Xamsa" asarining 2,5 yil mobaynida yaratilgani va uning besh dostondan iboratligini bilgan talabaga, garchi u "Xamsa"ni ochib kurmagan bulsa-da, "yomon" baxo kuyish mumkin emas! Chunki adabiyot perdmeti uchun usha "bilim" xam yetarli!

Badiiy asar matni bilan ishlashni uz faoliyatining markaziy masalasi deb xisoblamaydigan adabiy ta'lim muvaffakiyatsizlikka maxkumdir. Badiiy taxlilsiz adabiy ta'lim ma'naviyatsiz shaxs, bilimsiz mutaxassis demakdir. Yangilangan milliy pedagogikamiz uz oldiga ma'naviyati yuksak shaxslarni shakllantirish maksadini kuygan ekan, adabiy ta'linda badiiy taxlil xal kiluvchi axamiyatga ega bulishi shubxasizdir. Malakali badiiy taxlil bilmagan joyda mu'jizaviy asarning sexri, siri, jozibasi yukka chikadi, uning zamiridagi badiiy va xayotiy ma'no paykalmay kolaveradi. Adabiyot ukitishda badiiy taxlilga e'tibor goyat sust bulganligi uchun xam millat axlining bir necha avlodni Navoiy, Bobur, Mashrab va Kodiriysiz yashab kelmokda. Chunki yoshlarga daxo ijodkorlarning asarlariga xos badiiy jixatlar butun kulami, kup kirraliligi bilan yetkazib berish mexanizmi ishlab chikilgani yuk.

Badiiy taxlil yullari uzlashtirilmaguncha ukuvchilar xakikiy adabiyotni yengil-elpi, ommaviy bitiklardan farklay olmay yuraveradilar. Bu xolat ularni xtafaxmlikka, badiiy daltonizm (shabkurlik)ga, didsizlikka olib boradi. Estetik shabkurlik, didsizlik kishini ma'naviy bepisandlik va axlokiy lokaydlikka olib keladi. Adabiy asarni taxlil kila olmagan, binobarin, undan ta'sirlana bilmagan kishi ma'naviy kadriyatlarga mensinmay karaydigan buladi. Chunki bunday kishiga uzgani xis etish - begona. Unda tor amaliyotchilik, manfaatparastlik illatlari xuruj kilish imkoniyati katta. Shuning uchun xam badiiy taxlilni amalga oshirish oddiy didaktik yumush emas, balki uta muxim ma'naviy tadbir xamdir.

"Badiiy taxlil asoslari" kursining boshka biror fan bevosita shugullanmaydigan uz predmet mavjud. Ya'ni uzbek filologik ta'lim tizimida mavjud bulgan birorta fan bevosita badiiy matnni taxlil kilish yollarini urgatish bilan shugullanmaydi.

"Badiiy taxlil asoslari" fani ulkan ijtimoiy-estetik axamiyatga egadir. Asosli ilmiy taxlil bilmagan joyda badiiy asar tula anglanmaydi. Badiiy matnni tula anglamagan filolog uzga odamning ma'naviyatini shakllantirishda samaraga erisha olmaydi. Xolbuki, filologlar millat axli ma'naviyatini shakllantirishga mas'ul bulgan kasb egalaridirlar. Jamiyat a'zolari xayotida badiiy adabiyotning baland martabadaligi, ta'lim tizimida adabiyot alovida imtiyozli mavkeda turishining sababi uning ulkan ijtimoiy axamiyatidan kelib chikadi. Ma'naviiy- axlokiy kadriyatlar xam shu yunalishdagi muayyan tajribalarni uzlashtirishdan kelib chikadi. Bu xil tajriba xar bir odamning uz boshidan kechirilishi shart emas. Balki badiiy asar kaxramonlari xolatini anglash, ularning xissiyotlari, tuygulari junbushga kelganligi sababini tushunish kishida

xuddi usha kaxramonlarniki singari sezimlarning shakllanishiga sabab buladi.

"Badiiy taxlil asoslari" fanining uziga xos tadkikot metodlari xam mayjuddir. Chunonchi, komparavistika, kuzatish, dalillash, deduksiya, induksiya, umumlashtirish, shartlilik, psixologik asoslanganlik singari metodlar mazkur fanga doir xulosalarni chikarishda kullaniladigan ilmiytadkikot usullaridir. Bu tadkikot metodlari fanning boshka soxalarini tadkik etishda boshkacha yusinda ishlataladi. Tilga olingan ana shu uch omil "Badiiy taxlil asoslari" kursining aloxida fanligini ta'minlaydi.

## BADIIY TAXLILDA FALSAFIY VA MILLIY ASOSNING O'RNI

### REJA:

1. Olamni estetik idrok etish va badiiy tasvirlashning ijodkor dunyokarashiga alokadorligi.
2. Ijodkor badiiy karashlari tizimining shakllanishida falsafiy asoslarning urni.
3. Badiiy tasvir va milliy mansublik alokasi.
4. Materialistik falsafa va badiiy ijod.
5. Olamni badiiy idrok etish va tasvirlashda tasavvuf ta'limotining urni.

### Tayanch tushunchalar:

"Dunyokarash va badiiy ijod", "olamni estetik tushunish va tushuntirish", "falsafa va dunyokarash", "moddiyunchilik", "mimesis", "kalom falsafasi", "tasavvuf", "tajalli".

Tayaniladigan ma'naviy va nazariy asoslarning soglom aklga, xakikiy san'at tabiatiga, milliy kadriyatlar tizimiga yakin bulishiga yetarli e'tibor kilingandagina yangilangan ilmiy tafakkur amaliy axamiyat kasb etadi, ya'nii ishlay boshlaydi. Shundagina, milliy adabiyotimizning asl namunalari kaysi davrda yaratilganligidan kat'i nazar uzlarining xakikiy estetik taxlilini, talkinini topishi mumkin buladi.

Badiiy taxlilda falsafiy-metodologik asos muxim urin tutadi. Chunki dunyo va uning xodisalariga yondashuv tarzi belgilab olinmay turib, olamni tugri estetik idrok etish va tasvirlash mumkin emas. Falsafiy asos tugri bulmaganligi uchun ba'zan yaxshi bilan yomon, xunuk bilan guzal tushunchalariga yondashuv tamomila notugri, gayri ilmiy xarakter kasb etishi mumkin. Xozirgi uzbek adabiyotshunosligida taxlilga, asosan, moddiyunchi falsafaga asoslanib yondashilayotir. Natijada, kupincha, islomiy tafakkur tarzining maxsuli bulmish badiiy xodisalar moxiyatini anglash uning siru sanoatlarini ochish mumkin bulmay kolyapti.

Arastu badiiy asarni taklid-mimesis natijasi deb izoxlagan. Agar estetik xodisa mimesis natijasi bulsa, adabiy tur va janrlar olamdagи barcha xalklarda bir xilda bulishi lozim edi. Negaki, barcha xalklarni deyarli bir xil borlik urab turadi. Binobarin, taklid xam deyarli bir xilda amalga oshirilgan bulardi. Xolbuki, to XX asrga kadar xam bir kator xalklar adabiyotida, jumladan, uzbek adabiyotida dramatik tur mavjud emasdi. Shuningdek, "Alpomish" yusinidagi yirik xalk dostonlari xam xamma millatlarda xam mayjud emas.

Falsafiy asos, tayaniladigan nazariy suyanch badiiy xodisa moxiyatiga jiddiy ta'sir kursatishi mumkin. Jumladan, turkiy adabiyot namunalari islomdan oldingi davrda tamomila uziga xos yunalishda rivojlangan. Bunga toshbitiklar, Issik kurgonidan topilgan, Selengurda saklanib kolgan adabiy yodgorliklar tonugdir. Falsafiy asosning turlichaligi ayni bir badiiy xodisani tamomila xar xil izoxlashga sabab bulishi mumkin. Shu bois uzbek filologlari turlicha falsafiy yunalishlardan xabardor bulganliklari xolda milliy falsafiy asosga tayanishlari shart.

Badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlar xisobga olingandagina taxlil tulakonli chikishi mumkin. Xar kanday estetik xodisa muayyan milliy zaminda paydo bulganligi uchun xam uni tushuntirish va tadkik etishda usha zaminga xos xususiyatlar xisobga olinishi lozim. Biror millat uchun ezzulik yoki guzallik namunasi xisoblangan xodisa ikkinchi bir millat nazarida yovuzlik va kaboxat deb karalishi mumkin. Chunonchi, uzbeklar uchun guzallik timsoli bulmish oy ruslar uchun loykaydlik, befarklik ramzidir. "Kizil va kora", "Bovari xonim" asarlaridagi de Renal xonim va Emma obrazlari Botish kitobxonlari uchun inson xurligi, nazokat xamda erkin muxabbat timsoli sanalsa, uzbek kitobxonlarida, kupincha, bu ayollar buzuk kimsalar sifatida

taassurot koldiradi. Milliy mansublik xisobga olingen takdirdagina badiiy taxlilni ilmiy-estetik jixatdan puxta va asosli amalga oshirish mumkin.

Falsafiy asos soglom bulmagach, taxlil kanchalar uziga xoslik va bilimdonlik bilan amalga oshirilmasin, adabiy asarning butun jozibasi, siri tulik namoyon etilishi mumkin emas. Ma'lumki, faoliyatning barcha turida bulgani singari badiiy taxlilda xam milliy adabiyotshunosligimiz shu vaktgacha markscha-lenincha falsafaga asoslanib ish kurilib keldi.

Markscha-lenincha falsafa tarfakkur tarakkiyoti xamda inson faoliyati uchun ong va borlik munosabati eng asosiy masala deb karaydi va bu uzaro munosabatlar birligida xam borlik, ya'ni materiyaga birlamchi urin ajratadi. Moddiy bulmagan xosila va tushunchalarni esa materianing murakkab kurnishi yoki uning xosilasi deya da'vo kiladi. Bu xol ruxiy, xissiy, ma'naviy va uzga xil moddiyatga bevosita daxldor bulmagan tushunchalarga ikkinchi darajali xodisalar deb karashga olib keladi. Binobarin, badiiy ijoddagi asosiy kadriyat, ya'ni inson ruxiyati ifodasi nazardan kochiriladi. Badiiy asarlarga munosabatda xam inson ruxiyati manzaralaridagi tovlanishlarning uziga xosligidan kelib chikib emas, balki materianing birlamchiligi pozitsiyasidan turib yondashish talab etildi. Xar kanday jamiyatning xar kanday boskichidagi xayotini fakat sinfiy kurashlardan iborat deb, xar kanday aloxida odamning tirikchiligi adogi yuk ziddiyatlar zanjiri deb talkin kilindi. Binobarin, markscha-lenincha falsafiy ta'limotga tayangan adabiyotshunoslik adabiy asarga undagi inson timsolini tadkik etishga, tushuntirishga fakat shu nuktai nazardan turib munosabatda buldi. Bunday xol kuplab asarlardan mutlako nosoglom xulosalar chikarishga olib keldi. Badiiyat olamining yuksak namunalari, ulardagi ingichka ruxiy xolatlar, ichkin manzaralar bu xil taxlil nazaridan chetda kolishi tabiiy edi. Chunki san'at asariga ijtimoiy munosabat uni tabiiy ravishda dagallashtirardi.

Soglom falsafa ilmi uchun Ollox, olam, odam munosabatlari eng asosiy va xal kiluvchi masala xisoblanadi. Olam yaratilishining maksadi bulmish Odam va unga xos xususiyatlarni ilgash, sezgi a'zolariga buy bermaydigan tushunchalarni xam paykash va ta'riflash, inson ruxiy olamining bekiyos rang-barangligidan kelib chikkan xolda san'at asarlariga yondashish bu xil falsafaning asosiy tamoyillaridandir. Ruxiyat, xissiyotning boyligi insonni uzga jonzotlardan ajratuvchi jixatlar ekan, inson xayotining badiiy aksi bulmish adabiyotda ayni shu ruxoni va xissiy, demakki, estetik nuktai nazarni ustuvor bilib munosabatda bulish bu xil metodologyaning asosiy talablaridandir.

Kadimiylar tarixga ega Chikish (Shark) badiiy ijodga Botish (garb) estetikasidan kura uzgacharok mezonlar bilan yondoshgan. Chunonchi, Aristotel ta'limoti asosida shakllangan Botish estetikasida san'at asari borlikka taklid - mimesisning natijasi xisoblangan. Ya'ni san'at asari vokelikka taklid natijasida vujudga kelgan va badiiy ijod namunasining barkamolligi uning xayot xakikatiga kanchalik mos kelishi, boshkacha aytganda, taklidning nakadar ustalik bilan amalga oshirilishiga karab belgilangan.

Chikish guzallik ilmi, xususan, Turkiston estetikasi uchun ming yillar mobaynida tayanib kelingan nazariy asos kalom falsafasining tasavvuf ta'limoti va undagi tajalli nazariyasi bulgan. Shu bois xar bir badiiy ijod namunasiga iloxiy xodisa tarzida yondashilgan. Shark uchun badiiy asarlar xech kachon fakat vokelikning in'ikosigina bulmagan. Butun olamdagи moddiy va ma'naviy narsalar Olloxning tajallisi ekan, badiiy ijod ana shu tajallining, ya'ni ruxoni xolatning uziga xos tarzda estetik moddiylashuvidan iborat deb karalgan. Binobarin, Chikishda Botishdagilarga nisbatan ijodga sexrli, mu'jizavor xodisa tarzida yondashish keng tarkalgan. Kunchikar estetikasi badiiy asarning eng kichik unsuridan xam guzallik kidirgan va topa bilgan. Badiiy asarlardan chikadigan ma'no, fikr, goyaga nafosatning tabiiy xosilasi sifatida karalgan. Chunki xar kanday guzal shakl, avvalo, tamkinlik, uygunlik, mutanosiblik deb karalgan va unda, albatta, yetuk fikr, chukur mazmun bulishi tabiiy xisoblangan. Tajalli nazariyasiga tayanib, xar kanday badiiy xodisani Alloxning namoyon bulishi, emanatsiyasi tufayli sodir bulgan xodisa tarzida izoxlash mumkin.

Kunchikar adabiyotida sirtdan karalganda juda turgun, kotib kolgan va uzgarmasday tuyuluvchi adabiy shakllarda xam badiiy kashfiyotlar kilishning adoksiz imkoniyatlari topilavergan. Badiiy kashfiyot, injalik deyarlik xamisha asarlarning katiga yashiringan va xech kachon ochik bulmagan. Chunki badiiy guzallik izlab topilgandagina estetik lazzat beradi. Shuning uchun xam

Shark adabiyotidan ta'sirlanish uchun bir kadar estetik ma'lumotli bulish talab etilgan. Badiiy asarga jun munosabat, nafosatni tirikchilik mantigi bilan izoxlash milliy estetikamiz uchun begonadir. Shu bois Chikishda talkin emas, taxlil ustuvor turgan.

Garb estetikasida asosiy e'tibor kuprok badiiy asarning goyasi, kanday fikrni ilgari surayotganligiga karatiladi. San'at asarining guzalligiga chiroylı libos, jozibali tashki bezak tarzida yondashish ustuvorlik kiladi. Shu sababli Botish estetikasi uchun nimani tasvirlash, Chikish badiiyati uchun esa nimani kanday tasvirlash muammosining xal kilinishi muxim sanalgan. Sharkda badiiy ijod asosida xamisha guzzalik va ishk masalasi turgan. Olam va odam Alloxa xos xususiyatlar tajallisi ularok guzal ekanı va san'at asari ana shu guzallikni imkon kadar baland pardalarda nazokat bilan kuylashi kerakligi kuzda tutilgan. Shuning uchun xam Chikish adabiyotida Kunbotar axli uchun bir kadar erish xamda siyka tuyuladigan gul va bulbul obrazlari eskirmas timsollar bulib keladi. Badiiy ijodning butun sexri xam eski vositalar yordamida yangi tuygularni, tarovatli ruxiy xolatlarni aks ettirishda ekanligi Kunchikar estetikasi uchun oddiy xakikat sanalgan. Xullas, uzbek adabiyotshunosligi yakkash ijtimoiy karashlardan kutulib, badiiy adabiyotga muammo kutarish, masala kuyish vositasi deya yondashish odatlaridan forig bulsagina san'at asarini tugri taxlil kilish va uning jamiyat xayotidagi urning bexato belgilay olish imkoniyatiga ega buladi.

San'at asarlariga estetik fenomen emas, balki ijtimoiy xodisa tarzidagina yondashish uning xakikiy kiymatini kurmaslikka olib keladi. Badiiy ijod maxsuliga sotsiologik karashga odatlanib koltinganligi uchun xam Abdulla Kodiriyining "Utgan kunlar" romani xanuz xakikiy badiiy talkinini topmay kelayotir. Bir zamonlar shaxsga siginish avj olgan, katagon oyboltasi konsiragan davrda bu asardan aksilrus munosabatlari, millatchilik xam, aksilruslik xam yukligini, yozuvchining bor-yugi "aybi" jamiyatdagi chinakam ilgor kuchlarni kurolmaganligida ekanı xakida "muruvvat" bilan fikr bildirdilar. Yurtimiz mustakillikka erishgach esa, "Utgan kunlar", aynan, rus boskinchiligidagi karshi nafratni alangalatish va ularga karshi kurashga da'vat etish uchun yozilgan degan da'volar kilinmokda va xar bir karash uziga xos dalillar bilan asoslab berilmokda.

Xolbuki, "Utgan kunlar"day doxiyona asar biror gap aytish uchungina yozilmaydi. Adib uchun bu asarni yozmaslikning imkonи bulmay kolgan. U xayolida yurgan goyani singdirish uchun obrazlar yaratmagan va ularning ogziga uz karashlarini chaynab solib kuymagan. Romandagi xar bir obraz tirik odam, uzigagina xos sajiyaga ega shaxslar, asar kaxramonlari fakat uz tabiatlari mantigiga muvofik xarakat kilishadi va biror urinda xam adib ularni yetovda olib yurishga urinmaydi. Gap aytish, fikr bildirish maksad bulganda yozuvchi obrazlarning tabiatini xakida emas, balki ularning karashlari xakida kuprok kaygurgan va binobarin, kayerdadir notabiylilikka yul kuygan bulardi. Kodiriyni kecha millatchi edi deyish kanchalar tuxmat bulsa, bugun, xa, u millatimiz mustakilligini saklab kolish kerakligini bildirish uchungina "Utgan kunlar"ni yozgan deyish xam ushanchalik tuxmatdir.

Chinakam san'atkori asarini ijtimoyleshirish adibning kadrini oshirmaydi, balki uning daxosini nursizlantiradi. Adabiyotni yuksak arshidan, kushkidan zaminga tushirib kuyadi. Turkiston birligi uchun bevosita kurashgan, bu xakda unlab ilmiy-tarixiy asarlar yozgan Zaki Validi Tugon yoxud Boymirza Xayit ijodi bilan Abdulla Kodiriy romanavisligi urtasida juda katta fark borligi kurinib turgan xakikat. Gap badiiy taxlil vositasida ana shu fark nimadilagini-yu Kodiriy daxosining siri kayerdaligini kursatib berishda. "Shum bola", "Ugri", "Ruxlar isyon", "Jannatga yul", "Uylarim", "Yuzma-yuz", "Adashgan rux", singari yuksak san'at namunalarini ijtimoiy pozitsiyalardan turib baxolash bu asarlarning chin tarovatlarini yukka chikarishga olib keladi.

## BADIY TAXLIL TURLARI

REJA:

1. Badiiy taxlil tushunchasining moxiyati.
2. Badiiy taxlilni turlarga ajratishning ilmiy asoslari.
3. Badiiy taxlilning shakliga kura turlari.
4. Badiiy taxlil maksadga kura turlari.

## 5. Taxlil turlarining uzaro alokadorligi.

Tayanch tushunchalar:

"Badiiy taxlil", "taxlil turlari", "taxlilni turlarga ajratish sababları", "taxlilning yetakchi belgilari", "ilmiy taxlil", "ukuv taxlili", "talkin va taxlil".

Badiiy taxlil tushunchasi kup asrlar mobaynida uz ta'rifiga ega bulmay keldi. Taxlilga dastlabki ta'rif Ovrupo adabiyotshunosligida XIX asr ikkinchi yarmidan berila boshlandi. Lekin Botishda badiiy taxlilni interpretatsiya (talkin) tarzida tushunishga moyillik kuchli edi. Bunday yondashuv badiiy asarlardan kuprok ijtimoiy ma'no kidirishga olib kelardi.

Adabiyotshunoslik ilmida xozirga kadar badiiy taxlil nima, u kanday maksadlarni kuzda tutgan xolda amalga oshirilishi kerak degan savolga kat'iy javob berilgani yuk. Garchi, Botish filologlari tomonidan "Xermenevtika", "Interpretatsiya" nomlari bilan katta-katta bir kator kitoblar chop etilgan bulsa-da, tushunchaga anik ta'rif berilgan emas. Xar bir olim badiiy asar taxlilini uzicha izoxlaydi. Metodist olim B. Bobilev "Milliy oliv ukuv yurtlarida badiiy matnni filologik taxlillashning nazariy asoslari" mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasida badiiy taxlilning maksadini shunday tushuntiradi: "Badiiy matnning filologik taxlilidan asosiy maksad muallif obrazini idrok etishdir, unga yetishishdir. Ayni shu xolat badiiy matnni filologik taxlil kilishning asosiga kuyilishi lozim". Mazkur karash kup jixatdan, taxlilga oid xususiyatlarni kamrab olgan. Darxakikat, kitobxon yoki tadkikotchining muallifga yetishishi, uning tajallisiga aylanishi adabiy asarni butun serkirraligi bilan anglab yetganligini bildiradi. Badiiy asarni muallif darajasida idrok etish san'at namunasiga xos deyarli barcha jixatlarni xis etish, asar zamiridagi mantikiy va badiiy ma'noni tulik anglash imkonini beradi. Adabiyotshunoslik uchun muallif darajasiga yetib, uning xolatiga tushib taxlil kilish badiiy asarni tushunishning oliv boskichidir. Ayni vaktda, badiiy adabiyot namunalari orasida muallif istagidan tashkari ma'nolarni tashiydigan, uning muljalidan kura ogirrok ijtimoiy-estetik "yuk"ni zimmasiga olgan, muallifning uzi kutmagan yoki bilmagan xolda badiiy kashfiyotlarga aylangan kuplab asarlar borligiga adabiyot tarixi guvox. Chunki muallif tasvirlagan badiiy manzara bilan ukuvchi tomonidan idrok etilgan badiiy manzara xamisha xam bir xil bulavermaydi. Ba'zan ukuvchi adib mutlako kuzda tutmagan, xayoliga keltirmagan, xatto muallifning karashlariga zid, ammo ukuvchi tugri deb xisoblaydigan badiiy xulosaga kelinishi xam mumkin. Chunki xayotiy vaziyatning uzgarishi, ijtimoiy vokelikdagi yangicha xolat ba'zan ijodkorning oddiy izxori dilidan chukur sotsial ma'no keltirib chikaradi. Xakikiy badiiy asarning umri uzun va u fakat yaratilgan dam uchungina mansub bula olmaydi. Tanikli rus psixologi L.S.Vigotskiyning: "San'atni kuprok darajada kechikkan munosobat deyish mumkin, negaki, uning dunyoga kelishi bilan ta'sir kursata boshlashi urtasida xamisha ozdir-kupdir zamoniy oralik buladi", - degan fikri bunga dalil bula oladi.

Zamoni oralik ukuvchiga adabiy asardan uzi yashayotgan zamonga muvofik xulosa chikarish, asarning badiiy tizimidan xam davriga mos zavk olabilish imkonini beradi. Usmon Nosirning faxriya xarakteridagi ikrori shoир shaxsga signish kurboni bulib ketganidan sung mutlako uzgacha ma'no kasb etdi, san'atkorni bashoratchi makomiga kutardi:

Ilxomimning vakti yuk, selday keladi,

Jalloddek raxm etmay, dilni tiladi.

Ayondir bir kuni aylaydi xarob...

satrlari bitilgan fursatda shoир uzining katagon kurboni bulishini xayoliga xam keltirmaganligi ayon. Shuning uchun xam bu satrlar Usmon Nosir uchun uzgacha ma'noga ega bulgan, ammo bugungi ukuvchi uchun tamomila bulakcha mazmun tashiyajagi tushunarli. Shoир Mirtemirning "Betobligimda" she'ridagi:

Majnuntol tagiga utkazing meni,

Men uchun yiglasin, men yiglab buldim."

misralari, aslida, bemor san'atkorning tushkun ruxiy xolati ifodasi bulgan. Bugungi ukuvchilarining tushunchalari tufayli, mustamlaka zanjirlaridan kutulgan zamondoshlarimizning dunyokarashlari, didlari sababli esa adolatsiz zamondan norozi isyonkorning nolasi darajasiga kutarilgan.

Badiiy ijod tarixida yukoridagilardan xam ta'sirlirok misollarni juda kup keltirish mumkin. Bu xolat kursatadiki, adabiy asarning badiiy taxlili uchun ijodkor obrazini idrok etish, muallifning jilvasiga aylanish yagona asos sifatida karalishi xakkiy xolatga unchalik xam mos kelmas, badiiy asar taxlili moxiyatini tuligicha idrok kilish imkonini bermas ekani. Tanishgan badiiy asardan xulosa chikarish, uni tadkik kilish taxlil etuvchining saviyasi, didi, dunyokarashi, xayotiy tajribasi va boshka bir kator omillarga boglik ekanligi ma'lum xakikatdir. Rauf Parfi va unga izdosh bulgan ijodkorlarning asarlari aksariyat uzbek tankidchilari tomonidan mutlako bir-biriga zid tarzda taxlil etib kelinganligi, ularning xar biri shoirlarning badiiy niyati, san'atkorlik maxoratini uzicha anglaganligi xam shuni kursatadi.

Badiiy taxlilni asarning estetik unsurlarini kidiradigan faoliyat deb karaydigan mutaxassislar xam bor. Chunonchi, G.N.Taranosova nazarida: "...taxlil adabiy asarni tugridan-tugri va jun tushunish urniga fikran ma'noli kism va unsurlarga bulib kabul etishni kuzda tutadigan ilmiy faoliyatdir". Bu xilda fikrlaydigan mutaxassislarning karashlarida asosli urinlar juda kup. Darxakikat, badiiy taxlilgina adabiy asarni jun, tupori kabul etishdan, uni xayot xodisasi bilan aralashtirib yuborishdan, "kaxramonlarning keyingi takdiri nima buladi, falonchi pistonchiga uylandimi?", "Falon asarlarning kaxramonlari xozir nima kilishmokda?" singari asarning badiiy uziga xosligini, estetik xodisa ekanini yukka chikaruvchi karashlardan kutkaradi. Lekin masalaning boshka tomoni bor: xar kanday asl badiiy asar yaxlit poetik butunlik xisoblanadi va mazkur yaxlitlikka daxl kilish uning josibasini, sexrini yukka chikarishi anik. G.Taranosova xam asar taxlilining birinchi tamoyili unga yaxlit xodisa sifatida yondashish ekanligini ta'kidlaydi. Lekin olimaning adabiy taxlil moxiyatini tushuntiruvchi fikrida badiiy asarni "kismlar" va "unsurlar"ga ajratib urganish asosiy tadbir xisoblanadiki, bu xol amaliyotda uning karashlariga zid keladi.

Yurtdoshlarimiz J.Azizov va G. Usovalarining kalamiga mansub "Adabiy taxlil nazariyasi va amaliyoti" risolasida "...taxlil adabiy asarning badiiy mantigiga singishish maksad kilib kuyilgan ilmiy izoxdir" tarzida ta'rif beriladi. Badiiy taxlilning asl mantigini aks ettirish jixatidan J.Azizov xamda G.Usovalarning karashlari xakikatga yakinrok. Chindanda, "muallif obraziga yetishish" xam, "adabiy asarni fikran kism va unsurlarga ajratish" xam uz xolicha badiiy taxlil moxiyatini aks ettira olmaydi. Balki ular badiiy mantikni kashf etish, unga yetishish yulidagi boskichlardir. Birok yurtdosh olimlar juftligiga mansub mazkur xulosada xam, bizning nazarimizda, kichik bir yoklamalik borday. Chunonchi, unda xayotiy mantikka yetishish zarurligi kuzda tutilmaydi. Tugri, badiiy adabiyot uchun estetik mantik birlamchi axamiyat kasb etadi, ammo bu xolat asarlardan kelib chikadigan xayotiy mantikning muximligini aslo inkor etmaydi. Shuning uchun xam badiiy taxlil tushunchasini xarakterlashda badiiy va xayotiy mantik tushunchalari yonmaydon kuyilsa, maksadga muvofik buladi.

Yukorida aytilganlardan kelib chikib, badiiy asar taxlili tushunchasiga kuyidagicha ta'rif berish mumkin: Badiiy taxlil adabiy asarning xayotiy va badiiy mantigi xamda estetik jozibasini anglashga yunaltirilgan ilmiy faoliyatdir. Adabiy taxlilga ana shu tarika ta'rif berilganda, xodisaga xos deyarli barcha asosiy xususiyatlar kamrab olinadi deyish mumkin. Aslida "taxlil" atamasi arabcha bulib, "xalollah", "eritib yuborish", "murakkab butunni kismlarga ajratish" ma'nolarini anglatadi. Ya'ni taxlil deyilganda, badiiy matnning ma'nosi va jozibasining xalollab berilishi, ukuvchiga begona bulgan matnni eritib, uning shuuriga joylashga karatilgan faoliyat kuzda tutiladi. San'at asaridan kelib chikadigan xayotiy ma'noni topish, estetik unsurlarni kashf etish, urganilayotgan asarning boshka asarlardan farkini aniklash, muayyan millat yoki insoniyat estetik tafakkurini rivojlantirishga kushgan xissasini kursatish goyat muxim. Ayni vaktda, badiiy zavk manbai nimada ekanini, kitobxonni muayyan asardan ta'sirlanishga olib kelgan badiiy omillar, kurkam suzning mantikiy tushunchalar doirasiga sigmaydigan jozibasi kayerdan kelib chikayotganini aniklash xam uta axamiyatlidir.

Badiiy taxlil shakliga kura ikki turga bulinadi:

- 1) ogzaki;
- 2) yozma.

Badiiy asar ogzaki shaklda xam taxlil kilinadi. Lekin bunday taxlilga yozma ravishda tayyorgarlik kurilsa, samaralirok buladi. Badiiy taxlil orasida yozma shakl keng yoyilgan. Bu

taxlil turi fakat aytilgan vakt uchungina daxldor bulmay, keyinchalik, katta zamoniy oraliklardan sung xam odamlarga ta'sir kursatishi, millat badiiy tafakkurini shakllantira olishi, ajdodlardan avlodlarga meros bulib utishi bilan xarakterlanadi.

Badiiy asar taxlilini undan kuzatilgan maksadga kura:

- 1) ilmiy (filologik);
- 2) ukuv (didaktik) singari ikki turga bulish mumkin.

Filologik (ilmiy) taxlil adabiy asarning mantigi va estetik xosligini anglashga yunaltirilgan kuchli xissiy-intellektual faoliyatdir. Ilmiy taxlilda badiiy asardan chikarilgan xulosalarining adabiyotshunoslik ilmi erishgan darajalarga muvofik kelishi talab etiladi. Taxlil jarayonida bildirilayotgan xar bir fikr xam mantikiy tushunchalar, xam estetik konuniyatlar bilan asoslangan bulishi lozimdir. Shuningdek, ilmiy taxlilda urganilayotgan asarning umummilliyligini adabiyotdagi urni va milliy tafakkur tarakkiyotiga ta'siri darajasi kursatilishi kuzda tutilishi kerak. Filologik taxlil ommaboplirkdan yuqorirok turishini va xar kanday adabiy xodisaga mutaxassis nazari bilan karalishini takozo kiladi. Ilmiy taxlildagi asosiy narsa badiiy asarning badiyiligini, ta'sirchanligini, jozibasini, sexrini ta'minlagan jixatlarni kursata bilishdir. Filologik taxlil ilmiy-estetik faoliyat natijasidir. U, asosan, bir kishi tomonidan amalga oshiriladi. Ilmiy taxlil bilan shugullanayotgan mutaxasisi vakt jixatidan xam, imkoniyat jixatidan xam cheklanmagan buladi. Ilmiy taxlilni amalga oshirayotgan kishi fakat uzi belgilab olgan bosh maksadga karab intiladi.

Ukuv taxlili estetik-pedagogik faoliyat bulib, ukuvchilarini barkamol shaxs sifatida shakllantirish kabi pedagogik maksadga erishish uchun amalga oshiriladi. Ukuv taxlili mobaynida ukituvchi asarni tanlash imkoniga ega emas. Taxlil etiladigan asar muayyan vakt davomidagina tekshirilishi, bu jarayonda sinfdagi ukuvchilarning yosh va intellektual darajasiga muvofiklashtirilishi lozim buladi. Shu jixatdan didaktik taxlil filologik taxlilga nisbatan murakkabrokdir.

Adabiy asarni didaktik taxlil etish jarayonida ukituvchi va ukuvchi faoliyati kuyidagi uch yunalishda uyushtirilishi mumkin:

- A) muallifga yoki mantga ergashib yoxud yalpi taxlil;
- B) asardagi obrazlarga tayanib taxlil kilish;
- V) ukuv taxlilini muammoli tarzda amalga oshirish.

Birinchi yunalishda adabiyot ukituvchisi fakat badiiy matnga suyanadi va matn mantigini, uning tartibini aslo uzgartirmagan xolda asar zimnidagi ma'noni, jozibani ukuvchilarga kursata boradi. Bu usulni tekstual taxlil usuli deyish mumkin va bunda ukituvchi kuprok faoliyat kursatadi.

Ikkinci yunalishda ukituvchining e'tibori asardagi personajlarga karatiladi va obrazlar ruxiyatini anglab borish jarayonida asarning badiiy ma'nosi uzlashtiriladi. Adibning san'atkorlik maxorati xam badiiy obrazlarning kanchalik jonli va ta'sirchan ishlanganligini taxlillash asnosida ochib boriladi. Bu yunalishni timsoli taxlil yuli deyish mumkin va bu yunalishda ukuvchilarning xam anchagini faol ishtirot etishlariga imkoniyat buladi.

Uchinchi yunalishda esa taxlil asosan ukuvchilar tomonidan olib borilishi kuzda tutiladi. Ukituvchi talabalar oldiga muammo kuyadi va ularga bu muammoni yechish yollarini kursatadi. Asar taxlili jarayonida ukuvchilar fakat bilgan tushunchalaridangina foydalaniib kolmay, bir kator yangi estetik-mantikiy tushunchalarni uzlashtirib xam olishadi. Negaki, ular jamoa bulib ishlaydilar. Uzaro fikr almashadilar, baxslashadilar. Tabiiyki, bu jarayonda ukuvchilarning ma'naviy olamida xam, akliy dunyosida xam muayyan uzgarishlar sodir buladi. Ukuv taxlilning bu usuli muammoli taxlil deyiladi.

Aloxida ta'kidlash kerakki, taxlilning aytilgan usullari bir-birini inkor kiluvchi aloxida yunalishlar emas. Adabiy ta'lif amaliyotida taxlilning xar uch usuli deyarli xamisha aralash, korishik xolda keladi. Tekstual taxlilni obrazlarga tayanmay turib amalga oshirib bulmaydi. Muammoli taxlilni xam badiiy matnga asoslanmay bajarish mumkin emas. Xar kanday muammo matndan kelib chikishi, xar kanday mustakil fikr xam matnning sexru jozibasini ochishga xizmat kilishi joiz. Tekstual taxlilda matnning maromini buzmaslik, muallif yurgan yulga, u urnatgan badiiy tartibga rioya kilish ustovor buladi, lekin taxlilning kolgan ikki turida xam badiiy matn asosiy urin tutadi. Shu ma'noda, xar kanday taxlil moxiyat e'tibori bilan tekstual taxlildir.

Tekstual taxlil kuprok 6-7-sinf ukuvchilari bilan olib boriladigan mashgulotlarda kullaniladi.

Ayniksa, kichikrok xajmli nasriy asarlarni didaktik taxlil etishda bu usul juda kul keladi. Ta'kidlash joizki, asar yuzasidan amalga oshiriladigan xar kanday faoliyat fakat matnga tayanishi, matndan kelib chikishi, matnning jozibasini ochishga xizmat kilishi lozim. Shuning uchun xam xar kanday usulda ukuv taxlilini amalga oshirishdan oldin, albatta, ukuvchilar badiiy matn bilan yaxshi tanish bulishlari shart. Aks xolda taxlildan kuzatilgan maksadga erishib bulmaydi. Katta xajmli epik asarlar kuprok yukori sinflarda urganiladi. Ularni urgatishda timsolli taxlil usulidan foydalanish yaxshi samara beradi. Chunki urganiladigan asar xajman katta, ajratilgan vakt esa kiska bulgani uchun ularni tekstual taxlil kilishning imkoniy yuk. Bunday vaktlarda asosiy etibor urganilayotgan asardagi obrazlarga karatiladi. Timsollarning ruxiyati, uylari, kechinmalari, xattixarakatlari, sa'jiyalari xam xayotiylik, xam badiiylik nuktai nazaridan taxlil kilinadi va shu yusinda muallifning badiiy maxorati namoyon etiladi.

Ukuvchilar timsollarni jonli odamlar, uz takdiriga, uziga xos insoniy tabiatga ega tirik kishilar tarzida kabul kilishlariga erishish kerak. Shundagina, bu timsollar tuygan tuygular ukuvchilarga xam yukadi, ta'sirlantiradi, binobarin, tarbiyalaydi. Shuningdek, badiiy timsollarning ijobiy va salbiy guruxlarga ajratilishiga yul kuymaslik, xar bir badiiy timsolning karama-karshi tabiatli kishi nuktai nazaridan kanday baxolanishi mukinligiga e'tibor karatilishi lozim. Atrofimizdagi odamlarni jungina yaxshi va yomonga ajratish notugri bulganidek, badiiy timsollarni xam ijobiy va salbiyga ajratib tashlash tugri emasligini ukuvchilar ongiga kuyi sinflardanok singdirib borish zarur.

Olam cheksiz va uta murakkab bulgani kabi, odam xam goyat murakkab va tabiatning kirralari adadsiz tovlanishlarga ega bulgan mavjudotdir. Shuning uchun xam murakkab insonning timsolini kandaydir tavsifyi kolipga tushirib kuyish uning kiyofasini nursizlantiradi. Xayotdagি xar bir aloxida odam tulik yechimi xech kachon topilmaydigan muammodir. Badiiy adabiyot ana shu adoksiz muammoning kirralarini butun murakkabligi, jilvalari, soyalari va tovlanishlari bilan tasvir etish orkali ukuvchini uzgani xis etishga, begona kishining dardini anglashga odatlantiradi. Timsoliy taxlil natijasida xar bir ukuvchida tabiatni yunalishi va mакtab kuygan pedagogik vazifaning xarakteriga karab, bola ruxiyatida muayyan sifatlar xosil kilinadi. Kandaydir shaxslik fazilatlari shakllantiriladi.

Adabiy asarni muammoli taxlil kilish yuli milliy metodika ilmida juda kam urganilgan bulib, adabiy ta'lif amaliyotida xam uning kullanilish doirasi ancha tor. Bu usulning nazariy jixatlari ishlab chikilmaganligi uchun xam adabiyot ukituvchilarining kupchiligi uni kay yusinda tadbik etishni bilishmaydi. Ayrim novator, uz ustida ishlaydigan va izlanadigan ukituvchilargina muammoli usul bilan badiiy taxlil kilishga kul uradilar. Badiiy asar muammoli taxlil etilganda, ukuvchilarning fikri chegara bilmaydi, xayoloti erkin parvoz kiladi, badiiy va xayotiy muammoni uz tushunchasi xamda tajribasidan kelib chikib xal etishga urinadi. Ukuvchilar puxta muammoli taxlil kila olishlari uchun badiiy matn bilan yaxshi tanishibgina kolmay, uni tulik xazm kilgan bulishlari xam kerak. Chunki uzlashtirilgan fikr fikr uygotadi, singdirilgan xissiyot tuygu kuzgatadi.

Muammoli usul bilan taxlil etishda ukuvchilarni shunchaki baxsga tortish kerak emas, balki ularning butun kuchi badiiy matnning magzini ochishga yunaltirilgan bulishi lozim. Muammoli taxlil samara berishi uchun matnga sinfdagi ukuvchilar xayotiy tajribalari va egallagan bilimlari darajasidan kelib chikib erkin yondasha olishlari zarur. Misol uchun, 9-sinfda Sofoklning "Shox Edip" asari urganiladi. Agar mazkur muammoli yul bilan taxlil etiladigan bulsa, ukituvchi bolalar oldiga: "Edip aybdormi yoki gunoxkor?" tarzida savol kuyish va ukuvchilardan uz fikrlarini badiiy matnga tayangan xolda asoslashlarini talab etishi mumkin. Gunox, gunoxkorlik, ayb, aybdorlik, kismat, unga ishonish, kibr, inson ma'naviyati singari tushunchalar atrofida fikr yuritish jarayonida ukuvchilar Edip shaxsining ulkan fojiasini yakindan, bevosita xis etadilar. Uzlarining xayotiy va ma'naviy-axlokiy tajribalaridan kelib chikib Edip va atrofidagilarning xattixarakatlariga baxo beradilar.

## **Badiiy taxlil boskichlari va uning badiiy tasvir boskichlariga muvofikligi**

REJA:

1. Badiiy taxlilni amalga oshirish boskichlari.
2. Badiiy tasvirlash boskichlari.
3. Asar taxlili jarayonida badiiy tasvir boskichlariga xos jixatlarni xisobga olishning zaruriyati.
4. Ilmiy va ukuv taxlillarida boskichlarga amal kilishning uziga xosligi.

Tayanch tushunchalar:

"Taxlil boskichlari", "tasvir boskichlari", "tayyorlanish", "taxlil kilish", "bayon etish", "kursatish", "xulosalash", "bayon etish", "kursatish", "aks ettirish", "tasvirlash", "tadkik etish".

Badiiy taxlil muayyan xozirlikni talab kiladigan ilmiy-estetik jarayondir. Bu jarayon muayyan boskichlarga bulingan xolda amalga oshiriladi. Chunki boshka xar kanday faoliyat singari badiiy taxlil xam birdaniga sodir etilmaydi. Badiiy asarni taxlil etishda matn bilan ishlashning uch boskichi borligini kuzatish mumkin. Birinchi boskichida tadkikotchi badiiy asar yuzasidan uzi takdim etmokchi bulgan talkinga imkoniyat xozirlaydi. Ilmiy taxlilning ikkinchi boskichida badiiy matn taxlil klinadi va bu taxlil imkon kadar xayotiy va badiiy mantik nazaridan xamda olamni estetik kura bilish jixatidan asoslangan bulishiga e'tibor klinadi. Uchinchi boskichda matndan xulosa chikariladi, asarning yutuk va kamchiliklari kursatiladi xamda uning kadriyatlarimiz tizimidagi urni belgilab beriladi. Aytilganlardan kurinadiki, badiiy taxlil mobaynida tayyorlanish, taxlillash va umulashtrish-xulosalash singari uch boskich bosib utilishi lozim.

Tayyorgarlik boskichida taxlil etiladigan asar matni urganiladi, uning taxlilga tortiladigan, aloxida e'tibor karatiladigan jixatlari aniklab olinadi, asosiy kuzatishlar belgilab chikiladi. Ana shunda ikkinchi-asosiy boskich muavaffakiyatli tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Taxlillash boskichida esa asosiy ish amalga oshirilishi lozim buladi. Bunda matning jozibadorligini ta'minlagan estetik omillar: timsollar tizimi, personajlar ruxiyatini kursatishda kullanilgan usullar, ifoda tarzidagi uziga xoslik, til xususiyatlari singari jixatlar tekshiriladi. Taxlil klinayotgan asarning estetik kimmati, milliy badiiy tafakkur tarakkiyotidagi urni, asarning millat estetik ongini rivojlantirishdagi urni belgilab beriladi.

Xulosalash-umumlashtirish boskichida asarning muayyan ijodkor estetik takdiri va milliy badiiy tafakkur tarakkiyotida tutgan urni yuzasidan umumlashma xulosaga beriladi.

Badiiy taxlillash boskichlari, deyarli xamisha badiiy tasvir boskichlari bilan bakamti keladi. Badiiy tasvirning mukammalashishi uchun filologik taxlil chukurlashmogi, filologik taxlil puxta bulishi uchun badiiy tasvirning yuksalishi talab etiladi. Chukur badiiy taxlilsiz, teran badiiy tasvir bulishi gumondir. Kup asrlik uzbek adabiyoti tarixi mobaynida badiiy matn rivoji bilan adabiy fikr, ya'ni estetik taxlil tarakkiyoti yonma-yon keladi. Navoiy zamonasida buyuk adib bitiklariga yakin keladigan tankidchilik mavjud bulganligi uchun xam yuksak badiiy asarlar paydo bulgan. Tugri, u paytlarda xozirgi ma'nodagi taxlil bulmagan esa-da, Taroziy, Navoiy, Bobur asarlarida namoyon bulgan badiiy taxlil adabiyottanuvning kanday saviyada ekanligini kursatishi jixatidan xarakterlidir.

XX asr boshlarida uzbek adabiyoti tashki estetik-fasafiy ta'sirlarga tula berildi. Natijada, milliy adabiyotning avvalgi mukammalligiga bir kadar salbiy ta'sir kursatildi. Milliy adabiyot jaxoniy estetik talablarni xisobga olgan xolda evrilishga uchraydi. Yangi janrlar yuzaga keldi, maishiy turmush, oddiy odam tasvir ob'ektiga aylantirildi. Ijtimoiy muammolar badiiy adabiyotning mavzusiga aylandi. Badiiy adabiyotning ijtimoiylashuvi uning bir kadar primitivlashishiga olib keldi. Badiiy adabiyotning mafkuraviy sikuvlarga yulikishi va uning ijtimoiy kobiklarni yorib chikish tajribasi ortib borishiga xamda adabiyotda tagma'noni berish san'atning rivojlanishiga monand ravishda yangi uzbek adabiyoti tasvirning besh boskichini boshidan utkazdi. Bu boskichlarni kuyidagicha ifodalash mumkin:

- A) bayon etish (XX asr boshlari);
- B) tasvirlash (30-yillar);
- V) aks ettirish (50-60);
- G) ifodalash (70-80-yillar);
- D) tadkik etish (asr adogi).

Turkistonda asrlar mobaynida badiiy asarga estetik fenomen tarzida yondashib kelingan. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridan e'tiboran badiiy adabiyotga ijtimoiy yuk ortishga axamiyat berildi. Shu bois badiiy asarda nimaning ifodalanganligi muxim bulib koldi. Bu davrdagi aksar bitiklarda muallif goyasi bayon kilinishi birinchi planga chikdi.

Adiblar kup asrlik milliy ifoda yusinidan uzoklashib, Botish tajribasini uzlashtira borgani sari shuolar xukmronligining dastlabki davri, ya'ni 20-yillar mobaynidan mexnatkashlar xayoti, kechinmalari, kaxramonlarning xatti-xarakatlari-yu tuygularini tasvirlash sa'natini egalladilar. Adiblar endilikda aytib berish, ya'ni bayondan tiyilib, asarlarida odamni sirtdan turib, tasvirlashga e'tibor kildilar. Bu xolda odamning xamma jixati emas, balki zarur xususiyatlari ilgab olinib, saralanib, tasvirga tortildi.

Badiiy tajribalar ortib boruvi barobarida aks ettirish boskichiga usib utildi. Endi personaj, kalamga olingen odam ichdan uzi bulib kursatildi, ya'ni aks ettirildi. Bu davrda bayon xam, tasvir xam koniktirmay, xayot xakikatiga muvofiklik asosiy mezonga aylandi. Xolbuki, turkiy adabiyot uchun xayot xakikatiga rioya etish xech bir zamonda ulchov bulmagan edi. XX asrning sunggi choragidan boshlab shu kunga kadar bayon kilish, tasvirlash, aks ettirish singari faoliyat turlari bilan birgalikda tadkik etishga alovida e'tibor karatila boshlandi. Xozirda asar kaxramonlari muayyan xolga kelganligining ijtimoiy, psixologik, itellektual-fiziologik sabablari tekshirilishi rasm bulib bormokda.

Badiiy matn yaratish borasidagi boskichlarga deyarli muvofik ravishda badiiy taxlil xam muayyan boskichlarni bosib utdi. Jumladan, XX asrning boshlarida badiiy taxlil asar syujet bayonidan iborat buldi. Bu xil taxlil uchun asarning estetik kimmatini aniklashdan kura, uning ijtimoiy axamiyatini belgilash muxim sanalardi. Shu sababdan badiiy matnga funksional yondashuv karor topdi. Xar kanday jamiyat karama-karshi sinflardan iborat degan karash xukmronlik kilgan XX asrning 30-yillaridan 70-yillarga kadar bulgan oralikda badiiy matn taxliliga ijtimoiy yondashuv ustuvorlik kildi. Badiiy asar fakat sinfiy-partiyaviy pozitsiyadan turib taxlil etildi. Aslida, bu xil yondashuvni taxlil deyish xam kiyin. Bu davrda talkin yetakchilik kildi. Chunki bu xil taxlilda matnning badiiy jixatlari, jozibasi emas, balki nimaga bagishlangani, kanday masalani kutarib chikkanligi, kanday ijtimoiy kuchlarga xizmat kilganligi tekshirilardi. Utgan asrning 80-yillaridan boshlab milliy taxlilchilikda chinakam taxlilga yuz burildi, badiiy matn tadkik etila boshlandi. Asarning jozibasini ta'minlagan omillar, uning zavkiyobligiga sabab bulgan vositalar kursatila boshlandi.

Aytish kerakki, badiiy taxlilning tarakkiyoti pastdan yukoriga tarzda jun sodir etilmay, uta murakkab tarzda namoyon bulgan jarayondir. Asr boshlarida Fitrat, Kodiriy, Chulpon, V. Maxmud singari badiiy matnga estetik xodisa tarzida yondashuvchi va asarning jozibasini ta'minlagan omillarni kursatishni kuzda tutgan taxlilchilar bulgani singari Ayn, S.Xusayn, A.Sa'diy, R. Trigulov, Tuygun singari sof vulgar sotsiologlar xamda Oybek, O.Xoshim, X.Olimjon singari ijtimoiy va estetik yondashuvni uygunlashtirishga intilgan taxlilchilar xam faoliyat kursatishdi. Taxlil maxorati ortib borgani, tajriba kupaygani, estetik xodisalarga mafkuraviy yondashuv kamaygani sari ifodada ta'sirchanlik va tabiiylik xam kuchayib bordi.

## **Badiiy taxlilning yunalishlari**

REJA:

1. Taxlil yunalishi tushunchasining moxiyati.
2. Badiiy matnni urganishda taxlil yunalishini tugri belgilashning axamiyati.
3. Genetik yunalishga xos xususiyatlar.
4. Tipologik yunalishining belgilari.
5. Funksional yunalish sifatlari.
6. Falsafiy yunalishga xos xususiyatlar.
7. Taxlilning psixologik yunalishi.
8. Badiiy taxlilning filologik yunalishiga xos xususiyatlar.

Tayanch tushunchalar:

"Tayanch yunalishi", "genetik yunalish", "tipologik yunalish", "funksional yunalish", "falsafiy yunalish", "psixologik yunalish", "filologik yunalish".

Badiiy taxlilda kat'iy ilmiy tartibga rioya etgan xolda suzdan obrazga, obrazdan goyaga karab boriladi va taxlilning barcha boskichlarida badiiy suzning estetik jozibasi dikkat markazida turadi. Taxlil etilayotgan asarni kaysi jixatdan urganish, tadkik etish lozimligini belgilash uning yunalishini tayin etadi. Badiiy asar taxlilning tulakonli bulishi, kup jixatdan, taxlilchining matnni kanday yunalishda tekshirishni anik bilishiga boglikdir.

Adabiy asar taxlili bilan maxsus shugullangan mutaxassislarining kursatishlaricha, amaliyotda badiiy taxlil genetik, tipologik, funksional, falsafiy, psixologik va filologik singari olti yunalishda amalga oshiriladi. Albatta, bu xildagi tasniiflar juda shartli kabul etilishi lozim. Negaki, odatda badiiy taxlil jarayonida bu yunalishlardan biri ustuvor urin tutishi mumkin bulsa-da, deyarli xech kachon bittasi sof xolda kullanilmaydi. Chunki urganilayotgan asarga xar jixatdan karash zaruriyati xamisha saklanib koladi.

Badiiy asarni genetik yunalishda taxlil etishda asarning yuzaga kelish jarayoni, variantlari, yozilish sabablari tadkik etilishi kuzda tutiladi. Bu yunalishdagi taxlilda muayyan asarni yuzaga keltirgan omillarning kursatilishiga aloxida e'tibor karatilgan.

Tipologik yunalishda esa, asar muallifi bilan adiblar orasidagi ijodiy ta'sir, badiiy vorislik, asarni yuzaga keltirgan badiiy yoki xayotiy manbalar, taxlil etilayotgan asarning usha davrda yaratilgan boshka asarlarga uxshash xamda farkli jixatlari singari jixatlarga e'tibor karatilishi lozim.

Funksional yunalishda amalga oshirilgan taxlilda tekshirilayotgan asarning ijtimoiy ta'sir kuchiga aloxida dikkat karatiladi. Unda urganilayotgan asarning muayyan millat va insoniyat ma'naviyatiga kursatgan ta'siri tekshiriladi. Taxlillanayotgan asarning milliy adabiy jarayonda tutgan urni, uning yaratilgan zamondagi odamlar yoki tekshirilayotgan davr kishilari tafakkuriga ta'siri urganilishi lozim. Asarda kanday ijtimoiy konuniyat kaysi obraz orkali ochilganini tekshirishi zarur. Keyingi vaktda uzbek adabiyotshunosligida xam Botish estetikasida xar doim ustuvor makomga ega bulgan funksional yunalishdagi taxlil keng yoyilgan va bu xol bir kator ijobjiy xususiyatlar bilan birgalikda tendensiozlik, biryoklamalik, matnning badiiy jozibasini e'tibordan kochirish singari salbiy xolatlarni xam keltirib chikaradi.

Falsafiy yunalishda yozuvchi dunyokarashining xususiyatlari va taxlil etilayotgan asarda adib e'tikodining: olamni kurish, anglash, tushuntirish xamda aks ettirish tarzining namoyon bulishi tekshiriladi. Lekin bunday taxlil badiiy matndan ayri falsafiy mushoxadalardangina iborat bulib kolmasligiga e'tibor kilinishi kerak. Chunonchi, badiiy matnga boglanmagan, ijodkorning ayni urganilayotgan asaridan kelib chikmaydigan xar kanday "chukur ma'noli" xulosa taxlil uchun mutlako axamiyat kasb etmaydi va urganilayotgan matnning na badiiy va na falsafiy jixatini ochib beradi.

Psixologik yunalishda adibning ijodkor shaxs sifatidagi uziga xosligi jarayon psixologiyasi, asar ustida ishlash usuli, shu jarayondagi ruxiy xolati va ularning taxlillanayotgan asarda koldirgan nuksi, uning saviyasiga kursatgan ta'siri kabilar urganiladi. Bunday taxliliy yunalishda yukorida sanalgan jixatlarning kay yusinda badiiy uslubga aylangani badiiy xakikat shakliga kirganligi tekshiriladi.

Filologik yunalishda asosiy e'tibor urganilayotgan asarning estetik xodisa ekanini xar jixatdan asoslashga karatiladi. Bu yunalishdagi taxlilda urganilayotgan asar filologik xodisa sifatida xam til, xam tasvir vositalari, xamda ular urtasidagi davomiylilik va novatorlik nuktai nazaridan tekshiriladi. Suzning uz va badiiy ma'nosi konstekstdagi jozibasi, badiiy matn zamiriga yashirilgan mazmun va bu yashirilganlikning xam xayotiy, xam estetik sabablari singari bir kator jixatlarga ustuvor e'tibor karatiladi.

## ILMIY TAXLIL

REJA:

1. Ilmiy taxlil, uning maksad va vazifalari.
2. Ilmiy taxlilga xos xususiyatlar.

3. Ilmiy taxlilda adib, ukuvchi va matn munosabati dialektikasining xisobga olinishi.
4. Taxlilda davr ruxi, tadkikotchi shaxsi tutgan urin.

Tayanch tushunchalar:

"Ilmiy taxlil", "ilmiy taxlil maksadi", "ilmiy taxlilning vazifalari", "yozuvchi, ukuvchi, matn munosabatlari xarakteri", "davr va taxlil", "taxlil va milliy mentalitet".

Badiiy asar moxiyatini ochishda ilmiy (filologik) taxlil baland rutbada turadi. Filologik (ilmiy) taxlilga xos xususiyatlarini aniklash uchun bu xil taxlilning maksadini belgilash zarurdir. Ilmiy taxlilning maksadi urganilayotgan asarning xayotiy va badiiy mantigi xamda estetik jozibasini ochishdan iboratdir. Taxlilning bu turi oldida tekshirilayotgan asarning xakikiy badiiy kimmattini aniklash, uning millat badiiy xayotidagi asl urnini tayin etish, muayyan asarning millat badiiy tafakkuriga kushgan yangilagini xolis aniklab berish, uning jamiyat a'zolari ijtimoiy ongiga ta'sirini belgilash, asarning milliy estetik tafakkur tarakkiyotidagi urni va inson ma'naviyatini shakllantirishdagi axamiyatini ochish kabi vazifalar turadi.

Ilmiy (filologik) taxlilda taxlil bajarilayotgan zamon va makon xamda taxlilning adresatiga xos xususiyatlar deyarli xisobga olinmagan xolda ish kuriladi. Ya'ni biror asar taxlilini falon vakt orasida, aytilgan joyda, kimlarningdir didi-yu, badiiy imkoniyatlariga moslab amalga oshirish zaruriyati bulmaydi. Shuningdek, ilmiy taxlilda bajaruvchi bulajak ukuvchilarining yoshi va intellektual xozirlik darajalarining kandayligiga deyarli e'tibor karatmaydilar. Chunki ilmiy taxlilda tadkik kilinayotgan badiiy matn va u xakdag'i xulosalarni kabul kiluvchi kishilar yo umuman tasavvur etilmaydi yoxud tasavvur kilinganda xam "kuzda tutilgan" ukuvchi goyat mavxum kiyofaga ega buladi. Filologik taxlilda fakat taxlilning teranligi, xulosalarning asosli ekanligi xamda tekshirilayotgan badiiy asarning imkon kadar kuprok kirralari kamrab olinishi va unga xos xususiyatlarni iloji boricha tularok ochishga dikkat kilinadi.

Badiiy taxlilning xar kanday turi uchun daxldor bulgan bir oltin koida borki, unga amal kilmaslik taxlilni boshi berk kuchaga kiritadi. Bu oltin koida shundan iboratki, urganilayotgan asarning janri, badiiy saviyasi, xajmi kandayligidan kat'i nazar uning mazmunini suzlab berish mumkin emas.

Xar kanday badiiy taxlil uch kudratli asos ustiga kuriladi: yozuvchi, ukuvchi, matn. San'at asari bilan ukuvchi urtasidagi tusik bartaraf kilinganda, uning estetik jozibasi anglab yetilgandagina, u ma'naviy faktorga aylanadi, shaxsning mulki bulib, uning axlokiy kiyofasi shakllanishiga xizmat kiladi. Bu yulda ukuvchiga matnni tulik anglamaslik xolati jiddiy tusik bulib turadi. Uni bartaraf kilish uchun filolog mutaxassisning ilmiy taxlili zarur buladi. Shuning uchun xam filolog ilmiy taxlil jarayonida mushtariylari yuragida badiiy matnga daxldorlik xissini tugdirishga erishishi lozim.

Filologik taxlilda taxlilchi yozayotgan ishining xajmi kandayligi xakida kaygurmay, kunglidagi tuygularni, miyasidagi fikrlarni moddiylashtirishga intilgani ma'kul. Buning uchun u maxsus reja tuzib olishi, rejada tekshirilayotgan badiiy asarning kaysi jixatlariga kanday yondashmokchi ekanligini belgilab kuygani ma'kul. Shunda u tuygu va fikrining yetovida kolib ketmaydi, balki karashlar va xissiyotlarni bosh maksadiga xizmat kildira oladi.

Ilmiy taxlilning saviyasi kup jixatdan taxlilchining iktidori, xolisligi, ilmiy jasorati, xodisa ortidagi konuniyatni kura bilish saloxiyatiga ega ekanligiga boglik buladi. Filologik taxlilda mutaxassis jasoratli bulmasa, asarning saviyasiga emas, balki muallifning ijtimoiy mavkeiga karab ilmiy xulosa berishi mumkin. Yoki xukmron karashlar, raxbar katamlarning tazyiki xamda ruyxushligiga asoslangan xolda ish kurish xavfi xam buladiki, bunday xolda ilmiy taxlilning axamiyati shubxali buladi. Shuning uchun xam filologik taxlilda badiiy matnga mukaddas va daxlsiz, davrning utkinchi injikliklaridan xoli fenomen tarzida yondashilsa, asarning xayotiy va badiiy mantigi xamda estetik jozibasi namoyon bulishi mumkin. O.Sharafiddinovning "Chulponni anglash", U.Normatovning "Utkan kunlar" xayrati", "Abdulla Kaxxorni anglash mashakkatlari" singari taxliliy asarlari shu xildagi yondashuv mevalaridir. Filologik taxlilda taxlilchi fikrlarining izchil, anglashimli, xolis, ayni vaktda, bir kadar extirosli yusinda bayon etilishiga erishishi lozim. Chunki xissiyotga yugrilgan badiiy matn xakida sovuk tilda fikrlash

urinli bulmaydi. Shu urinda ilmiy taxlilni amalga oshirish buyicha misol keltirish foydalidir. Biz Uzbekiston xalk shoiri Tura Sulaymon she'larining ilmiy taxlilini namuna sifatida keltiramiz:

"Dunyoning buyuk adiblaridan biri Ernest Xemingueyda shunday gap bor: "Yozuvchi bulish uchun iste'dod bilan baxtsiz bolalik kifoya kiladi". Shu ma'noda Tura Sulaymon yozuvchilikka xar jixatdan munosib, xech mini yuk kishidir. Guzal Baxmal toglari kuynidagi Aldashmon kishlogida tugilgan bulajak shoirning armonlarga tula bolaligi shurolar tuzumining avji katagon davriga tugri keldi. Otasini yot unsur sifatida kamatishib, uylaridagi kurpa-tushakkacha inkilobiy xukumatga utkazishdi. Kulokning bolalarini esa, xar yul bilan turtkilab, kamsitishga urinishdi. Bu mash'um vokea tufayli xayolparast va ta'sirchan Tura sinikibrok, uychanrok bulib usdi. Bu xolat uning xotirasida chukur iz koldirdi va butun yozganlarida ana shu siniklik, kungli yarimlik nuksi sezilib turadi. She'larining birida shoir:

Otamning alamli pok siynasida

Ushalib ushalmay

Kolgan armonman,- deb yozganida bolalikning ana shu achchik iztiroblarini kuzda tutgandi. Otasi kamokdan chikkach, 1939 yilda Turalar oilasi Mirzachulning "Malik" deb atalmish xujaligiga kuchib kelishdi. Shu tarika u togda dunyoga kelib, chulda dunyo taniy boshladi. Bolalikda oilaning boshiga tushgan shurishlar yosh Turani juda erta ulgaytiirdi. Unda uzgalarni anglash, birovning dardini xis kilish sifatlari tengdoshlaridan oldinrok shakllandi va bir umrga koldi. Tiynatidagi ayni shu sifatlar she'riyatga oshno kildi. Chunki u olamga, odamlarga, dunyoning shevalariga shunchaki bir tomoshabin sifatida karay olmasdi. U kup ukirdi, butun-butun dostonlarni yod bilardi. Bolaligidanok nimalarnidir aytgisi kelayotganini, boshkalarga ta'sir etmagan narsadan xayajonga tushib, terga botganini kuzatardi. Lekin uzok vakt yozganini birovga kursatmay yurdi. Birinchi she'ri e'lon kilinganida yigirma olti yoshda edi. Usha vaktlar yozgan bir she'rida u uzini she'riyat dunyosida umid bilan yulga chikkan karvonga uxshatadi:

Men xam umid bilan safarga chikib,

Uzok manzillarga kuz tikkan jonman,

Birda Sirday toshib, birda tutokib,

Katta yulga chikkan

Kichik karvonman.

She'r-iste'dod maxsuli, kungil mulki. Olamni shoirona idrok etolmaydigan, uning boshkalarga noma'lum jixatlarini kura olmaydigan kishi shoir bulolmaydi. Ukib shoir bulish mumkin emas. U -kismat. Shoir bulmaslikning uddasidan chika olmaydiganlar kismati. Shoir xamisha nimadandir norozi, nimadandir xayajonda. Olamni boridan guzalrok, odamlarni xozirgisidan komilrok kurish istagi shoirni doim bezovta kiladi. Shu bois u tinimsiz tulganadi, izlanadi:

Suvlar xam tinidi sunbula kelib,

Tinib-tinchimagan bu kunglim, xayxot.

Na baxor, na yozdan, na tukin kuzdan

Xecham konikmadi, bu kunglim, xayxot!

Shoir bir umr uzini izlab, uzini tekshirib, uzini kashf kilmokka intilib yashaydi. T.Sulaymon - ana shunday izlanishning uzok yulini malollanmay bosib kelayotgan ijodkor. U xar ne topsa, uzidan topishi mumkinligini biladi. U kalbini tuxtovsiz taftish kiladi. Chunki izlagani tashkarida emas, uzining yuragida. Uz yuragini anglamagan odam uzgani tushunolmaydi. Uzgani tushunolmagan kimsa, Xak bilan sirlasholmaydi. Xak bilan sirlashishning eng bexato yuli unga begaraz muxabbatdir, uni adoksiz sevishdir. Tura Sulaymon she'riyati - ishk xakidagi bitikdir. U muxabbat tufayli kalam tutdi, muxabbatni kuyga soldi va xanuz sevgi iztiroblarini aytib ado kilolmaydi:

Men seni suydim, Korakuz,

Suydim, suydirolmadim.

Ishkingda kuydim, Korakuz,

Kuydim, kuydirolmadim.

Shunday xolatga chinakamiga tushgan odam she'r yozmay, shoir bulmay iloji yuk.

Shoir xamisha dard bilan yashaydi. Bir she'rida: "Dardsiz yashamoklik-dardmandlik asli", deb

bejiz aytmagan. Olamda kanchaiki asl shoir bor xammasi dardmand. Ular guzallikning, ezgulikning dardi bilan ogrigan bemorlar. Barcha chinakam asarlar gamning mevalari ularok dunyoga kelgan. Asrimizning buyuk ijodkorlaridan biri:

"Shoir diliga kilma xavas but esa bagring,

Shoir yuragin doimo vayron yozajakman",- deya nola kilganida, ikkinchi bir buyuk shoir:

"Dilu jon urtanar, dil orom istar,

Ilxomning pichogi sanchilar butkul",- deb ozorlanganida xak edilar. Bilasizki, Odamning loyini korishga suv bulsin deb yogdirilgan kirk kunlik yomgirning uttiz tukkiz kuni gam, bir kuni shodlik yomgiri edi. Navoiy xazratlari:

"Kungilda gam yukligi uzi gamdur,

Alam yukligi asru alamdir",-deganlarida barcha ijodkorlarning kungillaridagini urtaga tashlagandilar. Shundan bulsa kerak, Tura Sulaymon alamangiz she'rlarni kup yozadi. Shunday she'rlari ukuvchilar kalbini tulikrok egallaydi, xotiralarida xamishalikka koladi:

Izlay-izlay xorib buldim, sensiz yolgiz garib buldim,

Endi bosgan izlaringni turt tomondan topolmasman.

Yukotganlarining topilmasligini, ketganlarining kaytmasligini bilgan kishining adoksiz armonlari ifodasiga karang:

Giyox bilan koplanmish kuxna kabr boshlari,

Maysadagi shudringlar-kimlarning kuz yoshlari?

Bu yerda yotar otam xam uzangidoshlari,

Baxor, ketma, mening bogimdan.

Adolatning toptalganini kurgandagi kungil rozlari xam gamli oxang bulib misralarga kuyiladi:

Bemavrid xeshlarimning kuzlarida yosh kursam,

Bir mard bilan nopolning yulini tutash kursam,

Kaysi bir begunoxni keng yulda adash kursam,

Bir betayin kimsaning oyogida bosh kursam...

Kunglimda armon yotar terskaydagi kor misol.

Insonning sunggi makoni xakida uyg'a tolgan shoir kismat oldidagi uz ojizligidan iztirob chekmokda bulgan kishi ruxiyati tovlanishlarini andux bilan uziga xos yusinda tasvirlaydi:

Bu maskan kopkasizdir, bu kurgon xokonsizdir,

Borish boru kelish yuk, bu gusha omonsizdir.

T.Sulaymon she'nda ruxiyatning ta'sirchan manzarasinigina emas, ijtimoiy yuk, salmokli insonparvarlik missiyasi bulishini istaydi. Shu bois uning nazarida she'r bir kungilning rozigina emas, balki xar kanday odamning kimligini aniklaydigan mezon, ma'naviyatini tayin etadigan ulchovdir:

Ulan bilmas er asta ayniy boshlar,

Kaydan bilsin ulanni bagri toshlar.

Tura Sulaymon she'riyati ta'sirli xissiy timsollar vositasida ifodalangan yombi va zalvorli fikrlar she'riyatidir. Paygambarimizning: "Suzda sexr bor, she'nda xikmat" degan xadislaridagi ikki jixatni xam shoir uz ijodida namoyon kilishga tirishadi. Ruxiyatning tushuntirish mushkul bulgan katlamalarini tadkik etish, xissiyotdag'i eng murakkab jarayonlarni bor chigalliklari bilan tasvirlashga e'tibor uta kuchaygan bir sharoitda T.Sulaymon goyat mikyosli, kamrovli fikrlarni, guzal badiiy topildiklarni sodda yusinda, chigallashtirmay, murakkablashtirmay tasvirlash

yulidan boriyapti. Kupincha, she'riyatdagi soddalik junlikka olib boradi. T.Sulaymon ijodida esa, soddalik teranlikka xizmat kilgan.

Asl ijod buzilgan muvozanatdir. Dunyodagi birorta shoir ruxiy muvozanatdan chikmay turib, xali birorta tuzukrok she'r yozolgan emas. Muvozanatdan, ya'ni risoladagi odamlarda buladigan ruxiy xolatdan chikish xar bir ijodkorda uzgacha kechadi. Lekin deyarli barcha ijodkorlarning xam kalbi yalongoch, ximoyasiz, ruy bergen xodisaki bor unga ta'sir kupsatmay kolmaydi. Bir xakikat ayonki, ijodkor bir umr uz bolaligini tasvirlash bilan band buladi. Kishlokda nari borsa, un yetti yoshigacha yashagan adiblar bir umr shu xakda yozishadi. Negaki, ijodiy xolat kay bir darajada bolalikdir. Adiblar xar doim xam shoir yoki yozuvchi emaslar. Ular fakat ijod kilayotganlarida, ilxomning yulduzli onlaridagina adiblardir. Kolgan vaktlarda xammamizday odamlar. Shuning uchun xam Tura Sulaymonovning:

Telbanamo edim yoshlikda

Telbalikning xali aksi bor misralarini fakat xazilkashlik yoki kamtarlikning ifodasi emas, balki ilxomiy xolatning suvrati deyish mumkin. Uziga shaxsan daxldor bulmagan narsadan kuchli ta'sirlanish, kattik xursand bulish yoki kaygurish, shu xolatini kogozga kuchirmaslikning ilojini topolmaslik ruzgoriy mezonlar bilan ulchanganda telbalikning uzginasi. Lekin shoir maishiy ulchovlar bilan emas, jaxoniy mikyoslar bilan ish kuradi, ma'naviy tarozilar bilan tortadi.

Shoir devonafe'l bulganligi, darveshvash yashaganligi uchun axlokiy va xukukiy koliplarga kupda rioya kilavermaydigan zot bulganligi uchun xam bizning nazarimizda ancha erkin xayot kechiradiganga uxshab kurinadi. Chukurrok uylab karalsa, uning erki kulning erkidan cheklanganrok bulsa borki, ortik emas. Nega? Chunki shoir ijodidan erkin bulolmaydi. Aslan ijod erkinligi tushunchasi ijodkorning erkinligini emas, aynan ijodning erkinligini anglatadi. Shoir uz tuygulariga, xissiyotiga xujayin bulolmaydi. Xissiyotini boshkara olgan odam ijodkor emas. U ilxomiga xam biylik kilolmaydi. Bil'aks shoir uz ilxomining kulidir. Unda fakat junbushga bulgan tuyguni, kuyilib kelayotgan fikrni guzal shaklda ifodalay olish erki bor xolos. Ilxomni zurlab bulmaydi. Talantli shoirlar istalgan vaktda emas, kungillari tusagandagina she'r ukiy oladilar. Bundayrok shoirlarga iltimos kildingiz, bas ukiyverishadi. Negaki, birinchi toifadagilar chinakam iste'dod soxiblari va ular ilxom bilan ish kuradilar. Keyingilar esa ijrochilar, ularga tomoshabin bulsa bas. Shu bois ilxomni zurlab bulmaydi. Zurlangan ilxom chala nasl beradi. Shu sabab Tura Sulaymon butun tuyguga, butun yurakka egaligi xakida faxr bilan yozadi:

Menga butun kungil kerak, kun kerak,  
Menga tutash yulduz tula tun kerak.  
Men yortilab muxabbatni olmayman,  
Men yorti dust xonasida kolmayman

U chala suymaydi, chala yashamaydi, chala dovlashmaydi, chala yovlashmaydi, chala dustlashmaydi. Uz suziga, uz tuygusiga ega bulganligidan gururlanadi. Tuygular uziniki bulgani bois "yukumli". Birovdan tuygu olib, birovning ovozi bilan kuylab, birovning suzila tasvirlab, e'tirof kozonish mumkin emas. Shoir shuning uchun: "Uzga sozni chalgulik kilma" deya iltijo etadi. T.Sulaymon butun ijodiy umri mobaynida uz sozini chalishga urinib kelmokda. Kuyidagi misralarga e'tibor bering. Uchdan biri shoir bulgan biznikiday yurtda xam boshka birovnikiga uxshatib buladimi ularni?

Bu olamda Oy tanxo, muborak Kuyosh tanxo,  
Buy kizlarning ichida bir shu egma kosh tanxo,  
Uningdek xech kim menga bulmasa sirdosh tanxo,  
Gurugli sulton bir yon, Tura Sulaymon bir yon.

Yoki mana bu tashbex boshka biror shoirni esga soladimi:

Osmon urtasinda nozlanadir oy.

Bu misralar kishini beixtiyor shoir tasavvuriga mos ruxiy xolatga tushiradi. Suzning kudrati

shuda! Tura Sulaymon suzning jilosini teran xis etadi. Suzning xotirasidan kutarilgan xalkona oxangdor shakllarini, unut bulayozgan kadimiy ma'nolarini topadi. Shoир suz izlamaydi, balki xolatga nom kidiradi. Uning tuygulari-xalkona. Binobarin, ifoda xam shunga mos. Xolatga yarashikli suz topa bilish shoир uchun saodat. "Tulganoy" dostonida: "Uni chechan demakim ta'biri yarashmasa..." deydi shoир va uzi imkon boricha yarashikli ta'bir topishga, ta'sirli tasvir kilishga urinadi.

Xar kanday ijodkorning asl kiyofasini uning tili belgilaydi. Shu ma'noda Tura Sulaymon tamomila uziga xos shoirdir. Tugri, u xam boshkalar foydalanib yurgan suzlarni ishlataadi. Lekin u bu suzlarni kitobdan olmaydi. Kitobdan olingan suz obrazlarga yopishmaydi. Badiiy matnda xam begonaligi bilinib turadi. T.Sulaymon suzga ayricha bir erkinlik bilan yondashadi. U xar kanday asov suzni xam yuvvosh torttiradi. Suzni ruxga buysindira biladi. Uzi suzning emas, ruxning stixiyasi yetovida yuradi. Oddiygina suzdan fakat Tura Sulaymonga xos tasvir uslubini vujudga keltira oladi. Kuyidagi tasvirlarga e'tibor kiling:

Kukda suzgan bulut momikdan xam ok,  
Koshkiydi boshlansa yomgir yogalok.

Bulutni paxtaga uxshatish kimlardan kolmagan, lekin momikka uxshatilish uslubni uzgartirgan. She'rning oxangi mirtemirona edi. Ammo ustoz bulutni "paga", "ok" deya sifatlardi. Chulda, paxta orasida ulgaygan T.Sulaymon uning momikka uxshashligini kura bildi. "Soginish" she'rida: "Yaylovlarda maysa kimdir kuy-kuzi" tarzidagi tasvirda "kimdir" bagoyat urnida ishlataligan, bu suzdagi ma'no nozikligini xammayam ilgayvermaydi. Xodisalarni "turachasi"ga kurish namunasi: "Toglar tushi yorishdi, demak tong otayotir". Kuyosh xakida bir suz demay, uni kursatish mumkin ekan. goyat mavxum, moddiylashtirib bulmaydigan xolatni anik tasvirlay olish maxorati namoyon bulgan tasvir: "Kelinlarning labida Busaning isi koldi".

Shoир she'larida xissiyotini izoxlamaydi. Uni shunday bir ifoda bilan beradiki, shu ifoda katida ruxiy xolatni tugdirgan sababga munosabat xam yashiringan buladi: "Kunglimda armon yotar terskaydagи kor misol,-" deydi bir she'rida. Kuyoshga ters tarafdagи kor uzok vakt erimay, kirlanib yotganiday, lirik kaxramon kunglidagi armon erib ketadigan emas, ushandok bulsa, unga shoirning munosabati tayin, albatta, va u uz-uzidan she'rxonga xam yukadi.

Tura Sulaymon badiiy tajribalar utkazishga uch emas. U kachonlardir paydo bulgan tajribalardan ustalik bilan foydalanadi. Eski shaklning yangicha talkinlarini topa biladi. Shoир suzning birlamchi ma'nolariga murojaat etishni xush kuradi: "buy kiz" deydi buyga yetgan kiz xakida, "buzalam" deydi biz chimzor deb yurgan tushunchani, "uzangidosh" deb ataydi xup uzbeki kilib, xup ta'sirchan kilib, dust, tengdosh, jura, safdosh singari bir kancha suzlarni isrof kilib xam tulik ifodalab bulmaydigan yana bir tushunchani. Tilimizda xamisha bulgan, endilikda ayrim keksalargina kullayotgan xushyor ma'nosidagi "sok" suzi joyida ishlatalgani bois ifodaviylikni necha barobar oshirib yuboradi. Tura Sulaymon suzga avaylab, kizganib yondashadi. Ularning bemavrid yukolishiga yul kuymaslikka urinadi. "Tulganoy" dostonida "turlab sadrga tushganda" degan jumla bor. Toglik kipchoklarda xayotdan yosh ketgan yigitning kiyimlarini ot ustiga tashlab, ot bilan sadr tushish odati bulgan. Yukoridagi jumladan ana shu xolat ifodasini topgan. Besh yashar otning yilkichilar tilida "tulan" ekanini xamma xam bilavermaydi. Dikkatga sazovor jixati shundaki, u bu xildagi suzlarni, ma'lumotlarni shunchaki ekzotika uchun, etnografik dalil sifatida emas, juda urinli va tabiiy tasvir vositasi tarzida ishlataadi.

T.Sulaymonovning suzga aloxida bir extiyotkorlik bilan yondashuvi, extiromi, fikrlarini xikmat yusinda ifodalaganida yakkolrok kurinadi. Shoир asarlari sinchiklab kurib chikilsa, T.Sulaymon tomonidan bir kator makolu xikmatlar yaratilganiga guvox bulish mumkin. Jumladan: "Sutsiz sigir suzogon kelar", "Tokatliga toglar egar boshini", "Kuvib-mangulik, Kochib ulgan-kumkulik" va x.k.

El orasida: "yuzdan yugurik, mingdan tulpor" degan gap bor. Millatimizaro keng tarkalgan unlаб kushiklarning, uz ukuvchilariga ega bulgan un tukkiz kitobning mualifi Tura Sulaymonov uzbek badiiy tafakkurining kamyoб siymolaridan biri. U xamon kizgin ijodiy faoliyat bilan band. "Ulmaslikka ishora ulanga oshikligim",- deya umidlangan shoirga ijodiy omadlar yor buladi".

## UKUV TAXLILI

**REJA:**

1. Ukv taxlili, uning maksad va vazifalari.
2. Didaktik taxliliga xos asosiy xususiyatlar.
3. Ukv taxlilda matn, yozuvchi va ukituvchi munosabatlarning uziga xosligi.
4. Ukvchi va ukituvchining didaktik taxlilda ishtirok etishga xos xususiyatlar.
5. Ukv taxlilida savol va topshiriklarning axamiyati.
6. Ukv taxliliga xos tamoyillar.

Tayanch tushunchalar:

"Ukv taxlili", "taxlilning pedagogik maksadga yunaltirilganligi", "didaktik taxlil katnashchilar", "taxlil katnashchilarining uzaro munosabatlari", "ukv taxlili-kashfiyat", "didaktik taxlilning vakt, joy va katnashchilarining tayyorgarlik darajasiga kura cheklanishlari".

Didaktik taxlilni uyuşdırıshning nazariy asoslarini belgilashdan oldin ukv taxlilning ilmiy taxlildan farkini aniklab olish zarur buladi. Aslida, didaktik taxlil xam badiiy matnning sirini kashf etishga, muallifning niyatini anglashga, asar jozibasini ta'minlaydigan jixatlarni aniklashga karatilgan faoliyatdir. Ukv taxlili bir kator kirralari bilan filologik taxlildan muayyan darajada fark kilsa-da, unga zid narsa emas. Xar kanday didaktik taxlil ilmiy taxlil darajasiga kutarilishga intiladi va unga yetganda ukv taxlilidan kuzda tutilgan maksadga tulik erishilgan buladi. Ayni vaktda, badiiy asarni didaktik taxlil kilish filologik taxlil etishdan jiddiy fark xam kiladi.

Ukv taxlili ilmiy taxlil singari fakat ilmiy-estetik faoliyat bulib kolmay, balki pedagogik-psixologik jarayon xamdir. Chunki pedagogik maksadga yunaltirilganlik didaktik taxlilning asosiy belgisidir. Agar filologik taxlil, asosan, fakat olimning akliy faoliyati natijasi bulsa, ukv taxlili ukituvchining talabalar bilan bevosita mulokoti mobaynida amalga oshiriladigan tadbirdir. Didaktik taxlilning ishtirokchilar kuprok bulishadi va barcha akliy-estetik operatsiyalar katnashchilarining imkoniyatlari va saviyalariga moslashtirilgan xolda bajariladi.

Ukv taxlilidan maksad badiiy asarni tugri kabul etish orkali ukuvchilarda shaxslik sifatlarini shakllantirishdan iboratdir. Didaktik taxlilning vazifalari badiiy asarning uziga xosligi, jozibasi va ta'sir kilish sabablarini aniklash orkali talabalarda ta'sirchan kalb, xassos tuygular, soglom estetik did, ravon va ifodali nutk shakllantirishdan iboratdir. Shunga kura ukv taxliliga badiiy asar matnining xayotiy va badiiy mantigi xamda estetik jozibasini kashf etish orkali tarbiyalanuvchilarda komil insonga xos ma'naviy belgilarni shakllantirishga karatilgan ilmiy-pedagogik faoliyat tarzida ta'rif berish mumkin.

Ukv taxlili kuprok shaxslik xususiyatiga tayanadi, chunki u jonli shaxslar ishtirokida amalga oshiriladi va taxlil katnashchilarida muayyan fazilatlarini dunyoga keltirishga yunaltiriladi. Buning uchun didaktik taxlilda ukuvchilarining xissiyotlar olamiga ta'sir kursatish kerak buladi. Ukvuchilar xissiyotlariga daxl kilmagan xar kanday narsaga lokayd bulishadi.

Talabalarning xissiyotiga ta'sir kilingandagina bolalar asar ichiga "kirishadi", asar kaxramonlari bilan birga "yashay" boshlashadi. Xissiyotga tayanib kilingan taxlil tufayli ukuvchilar badiiy matnga ruxoni kuz bilan karaydigan bulishadi. Ular oddiy yozuv belgilari zamiriga ulkan insoniy takdirlar, ta'sirchan tuygular, xadsiz fojia va kuvonchlar yashiringanligini xis etishadi, ularni kashf etishadi.

Kashf etish esa, rivojlanishning yangi boskichlari sari undaydi.

Didaktik taxlil ilmiy taxlildan fark kilib, mantikiy sillogizmlarning uzigagina tayana olmaydi. Negaki, ukv taxlilida xamisha kkonkret yoshdag'i, muayyan sinfdagi uziga yarasha xayotiy tajriba va bilimga ega bulgan ukuvchilar bilan muayyan vakt mobaynida ish kurladi. Ilmiy taxlilda esa taxlilchi bu xildagi cheklashni xisobga olmaydi. Buning ustiga, ukv taxlili vaktjixatidan xam cheklangan buladi va taxlil doimo bir dars mobaynida amalga oshirilishi lozim estetik-mantikiy operatsiyalardan iborat buladi. Shu ma'noda, ukv taxlili pedagogik jarayonning uzviy bir bulagi xisoblanadi. Badiiy asarning cheklanganmagan, adogi yuk guzalligi bilan ish kurayotgan adabiyotchi ukuvchilardagi akliy va xissiy imkoniyatlar cheklanganligi, muayyan asarni urganishga ajratligan vaktning chegaralanganligi bilan xamisha xisoblashishga majbur buladi.

Badiiy asarni didaktik taxlil etish jarayonida ukituvchi va ukuvchi faoliyati uch yunalishda uyushtirilishi mumkin. Bu xol ukuv taxlilining uch turini keltirib chikaradi. Birinchi yunalishda adabiyot ukituvchisi fakat badiiy matnga suyanadi va uning ichki tartibiga daxl kilmagan, uni uzgartirmagan xolda asar zimnidagi ma'noni, jozibani ukuvchilarga kursata

boradi. Bu yunalish tekstual taxlil deyiladi va bunda ukituvchi kuprk faoliyat kursatadi.

Ikkinci yunalishda ukituvchining e'tibori asardagi personajlarga karatiladi va badiiy ma'no obrazlar ruxiyatini anglab borish jarayonida tabiiy ravishda kelib chikadi. Yozuvchining san'atkorlik maxorati xam badiiy obrazlarning kanchalik jonli va ta'sirchan ishlanganligini idrok kilish asnosida ochib boriladi. Bu yunalish timsolli taxlil deyiladi va unda ukuvchilarning xam faol ishtirot etishlariga imkoniyat buladi.

Uchinchi yunalishda esa taxlil asosan ukuvchilar tomonidan olib borilishi kuzda tutiladi. Ukituvchi talabalari oldiga muammo kuyadi va ularni bu muammoni yechishga yullaydi. Asar taxlili jarayonida ukuvchilar fakat oldin uzlashtirgan bilimlaridan foydalanibgina kolmay, bir kator yangi estetik-mantikiy tushunchalarni uzlashtirib xam oladilar. Negaki, ular uzaro fikr almashadilar, baxslashadilar. Tabiiyki, bu jarayonda ukuvchilarning ma'haviy olamida xam, akliy dunyosida xam muayyan uzgarishlar sodir buladi. Ukv taxlilining bu yunalishi muammoli taxlil deyiladi.

Taxlilning yunalishlari bir-birini inkor kilmaydi. Adabiy ta'lif amaliyotida taxlilning uch yunalishi deyarli xamisha aralash, korishik xolda keladi. Tekstual taxlilni obrazlarga tayanmay turib amalga oshirib bulmaydi. Muammoli taxlilni xam badiiy matnga asoslanmay bajarish mumkin emas. Xar kanday muammo matndan kelib chikishi, xar kanday mustakil fikr xam matnning sexru jozibasini ochishga xizmat kilishi joiz. Tekstual taxlilda matnning maromini buzmaslik, muallif yurgan yulga, u urnatgan badiiy tartibga rioya kilish ustuvor buladi, lekin taxlilning kolgan ikki turida xam badiiy matn asosiy urin tutadi. Shu ma'noda, xar kanday taxlil moxiyat e'tibori bilan tekstual taxlildir. Chunki badiiy asar yuzasidan amalga oshiriladigan xar kanday faoliyat fakat matnga tayanishi, matndan kelib chikishi, matnning jozibasini ochishga xizmat kilishi lozim. Shuning uchun xam xar kanday yunalishdagi ukuv taxlilini amalga oshirishdan oldin, albatta, ukuvchilar badiiy matn bilan yaxshi tanish bulishlari shart.

Tekstual taxlil 5-7-sinf ukuvchilar bilan olib boriladigan mashgulotlarda kuprok kullaniladi. Ayniksa, kichikrok xajmli nasriy asarlarni didaktik taxlil etishda bu yunalish juda kul keladi.

Katta xajmli epik asarlar kuprok yukori sinflarda urganiladi. Ularni urgatishda timsolli taxlil usulidan foydalanish yaxshi samara beradi. Timsollarning ukuvchilar tomonidan jonli odamlar, uz takdiriga xos insoniy tabiatga ega tirik kishilar tarzida kabul etishga erishish kerak. Shundagina, bu timsollar tuygan tuygular ukuvchilarga xam yukadi, ta'sirlantiradi, binobarin, tarbiyalaydi. Ukuvchilarning badiiy timsollarni darxol ijobiy va salbiy guruxlarga ajratishlariga yul kuymaslik, xar bir badiiy timsolning karama-karshi tabiatli kishi nuktai nazaridan kanday baxolanishi mumkinligiga e'tibor karatilishi lozim. Xayotdagi odamlarni jungina yaxshi va yomonga ajratish notugri bulganidek, badiiy timsollarni xam ijobiy va salbiya ajratib tashlash tugri emasligi ukuvchilar ongiga singdirilishi zarur. Xayotdagи xar bir alovida odam yechimi topilishi mumkin bulmagan muammodir. Badiiy adabiyot ana shu adoksiz muammoning kirralirini butun murakkabligi, jilvalari, soyalari va tovlanishlari bilan tasvir etish orkali ukuvchini uzgani xis etishga, uziga bevosita daxli bulmagan begona kimsaning dardini anglashga odatlantiradi. Uz tabiat yunalishi va adabiy ta'lif kuygan pedagogik vazifaning xarakteriga karab, timsoliy taxlil natijasida xar bir ukuvchi ruxiyatida muayyan sifatlar xosil buladi.

Badiiy asar muammoli taxlil etilganda, ukuvchilar badiiy va xayotiy muammoni uz tushuncha va tajribalaridan kelib chikib xal etishga urganishadi. Muammoli taxlil puxta bulishi uchun ukuvchilar badiy matn bilan yaxshi tanishibgina kolmay, uni tulik xazm kilgan bulishlari xam kerak. Chunki uzlashtirilgan fikr fikr uygotadi, singdirilgan xissiyot tuygu kuzgatadi. Muammoli usul bilan taxlil etishda ukuvchilarni shunchaki baxsga tortish kerak emas, balki ularning butun kuchi badiiy matnning magzini ochishga yunaltirilgan bulishi lozim. Muammoli taxlil kutilgan samarani berish uchun matnga sinfdagi ukuvchilar xayotiy tajribalari va egallagan bilimlari darajasidan kelib chikib erkin yondasha olishlari zarur. Misol uchun, 9-sinfda Sofoklning "Shox Edip" asaridan parcha urganiladi. Agar mazkur asar muammoli yul bilan taxlil etiladigan bulsa,

ukituvchi bolalar oldiga: "Edip gunoxkormi?" tarzida savol kuyishi va ukuvchilardan uz fikrlarini fakat badiiy matnga tayangan xoldagina asoslashlarini talab etishi mumkin. Gunox, gunoxkorlik, ayb va aybdorlik, kismat, inson ma'naviyati singari tushunchalar atrofida fikr yuritish jarayonida ukuvchilar Edip shaxsining ulkan fojiasini yakindan, bevosita xis etadilar.

Didaktik taxlilga tayyorgarlik va amalga oshirish xar bir adabiyot ukituvchisi uchun doim xam ikki boskichli jarayon xisoblanadi. Birinchi boskich ukituvchining darsga taylorlanish jarayoni bulib, ertasiga sinfda urganiladigan asarni uzicha taxlil etadiki, buni muallimning individual taxlili deyish mumkin. Ikkinchisini boskichda esa, ukituvchi sinfdagi ukuvchilar xamkorligida darsda muayyan asarni taxlil kiladiki, uni ukuvchilar yordamida taxlillash deyish mumkin. Aslida, bu ikki boskich bir jarayonning turli sharoitlardagi kurinishlari va shu bois bir-biriga aslo zid emas. Lekin ayni vaktda, bu ikki faoliyat turini farqlamaslikni xam tugri deb bulmaydi. Negaki, ukituvchi badiiy asar bilan yolgiz uchrashganda, uni xayolan didaktik taxlil kilganda, ertangi pedagogik vaziyatni, ukuvchilar xissiyotining namoyon bulish tarzini, uzining kayfiyatini oldindan tulik bilishi mumkin emas. Binobarin, kollektiv taxlil jarayonida individual taxlilning ayrim kirralariga muayyan taxrirlar kiritilishi, ayrim jixatlarga kuprok e'tibor karatilishi, ukuvchilarda ijobjiy tuygular uygotadigan urinlarga urgu berilishi, ekspromtlar kilinishi tabiyidir. Chunki adabiyot darsi-ijod. Ijodda esa xamma narsani oldindan tulik rejalashtirib bulmaydi. Tulik rejaga tushgan faoliyat-ijod bula olmaydi. Shu bois adabiyot ukituvchisi topkir, xozijavob, xar kanday vaziyatdan chikib ketaoladigan, ayni vaktda, badiiy asarning estetik ma'nosini nazardan kochirmaydigan shaxs bulishi lozim.

Maktab adabiy ta'limidagi eng jiddiy kusurlardan biri shundaki, ukituvchilar sinfda urganiladigan badiiy asarni oldin individual taxlil etishga yetarli e'tibor bermaydilar. Natijada, ukituvchi frontal (ommaviy) taxlil jarayonida muxim badiiy unsurni nomuximdan ajratishga ulgurolmay koladi. Ukvchilarda esa bunday kunikma xali shakllanmaganligi uchun asar zamiridagi badiiy estetik ma'no paykalmay kolib ketishi mumkin. Bunday bulmasligi uchun ukituvchi individual taxlildan erinmasligi, taxlil jarayonida talabalarning xissiyotlarini uygotadigan, ularda ezgu ma'naviy sifatlar paydo kilishi mumkin bulgan xolatlarni xosil kilish yollarini oldidan rejalashtirishi kerak.

Didaktik taxlil ukuvchilarning ishtirot etishlariga kura individual, guruxiy xamda ommaviy singari turlarga ajratiladi.

Individual taxlilda badiiy matn bilan tanishib chikilgach, ukituvchi xar bir ukuvchiga aloxida topshirik beradi va talaba darslikdan foydalangan xolda usha topshirikni bajarish uchun aloxida taxlil bilan shugullanadi. Masalan, Chulponning "Guzal" she'ri urganilayotganda, ukituvchi bolalardan biriga she'rda istioradan kanday foydalanganligini, boshkasiga, uxshatish kanday tasarruf etilganligini, uchinchisiga esa, mubolaganing kaytarzda urinli ishlatilganligini aniklash va shu asosda matnni taxlil etishni topshiri mumkin. Xar bir bolaga taxlil uchun muayyan vakt beriladi va tayyor bulgach, ukuvchi javobi tinglanadi.

Guruxlarga ajratib taxlilga jalb etilgan ukuvchilarda musobaka tuygusi, kollektivizm ustuvor urin tutadi. Bir sinfdagi ukuvchilar kandaydir belgilarga kura bir necha guruxga ajratiladi. Sung guruxlarning xar biriga asar taxliliga doir aloxida topshirik beriladi. Guruxlarga ajratishda utirgan urni, nasabnomlarning yonma-yon kelishi, jinsi va x.k. belgilari asos bulishi mumkin. Eng muximi, guruxlarda ishchanlik ruxi xukmron bulishiga erishish va xar guruxda boshkalarni uz ortidan ergashtira oladigan ukuvchilarning bulishini ta'minlash kerak buladi. Xayolot olami keng, tafakkuri uchkur bulgan ukuvchilar badiiy matndan, kuponcha, ukituvchi xam paykamay kolgan jixatlarni topishadi. Bir necha kishilik gurux ukuvchilarni birlashtiradi, fikrlar olishuviga urgatadi, birisining xissiyoti uzgasida tuygu uygotadi. Shu zaylda badiiy matn yaxshirok idrok etiladi. Bu xildagi taxlilda ukuvchilar boshka guruxdagilarga savol berishlari mumkin. Gurux a'zolarining xammasinga bir xil baxo kuyish esa jiddiy tarbiyaviy axamiyat kasb etadi. Chunki javobni kim kilgan bulsa-da, aslida u jamoa mexnatining maxsuli. Shu sabab, guruxdagilarning xammasinga bir xil baxo kuyish maksadga muvofik.

Umumta'limga mifiklarining 7-sinfida Abdulla Kodiriyning "Mexrobdan chayon" romani urganilayotganda sinf ukuvchilarini turt guruxga ajratish va matn bilan tanishib chikilgach, uchinchi soatda bu guruxlardan biriga Anvar va Xudoyorxon obrazlarini urganish xamda matnga

tayanilgan xolda ularga xos xususiyatlar xakida tuxtalish, ikkinchisiga Ra'no tabiatidagi jasurlik va xissiyotga beriluvchanlik sifatlarining sabablarini asoslash, boshkasiga esa, Kobilboy va uning dustlariga xos sifatlar, Sultonaling insoniy fazilatlari matnda kanday kursatilganligini aniklash, turtinchi guruxdagи bolalarga esa, Anvar bilan mulla Abduraxmon tuknashuvi manzarasida personajlar xolati ularning tilida kanchalik aks etganligini aniklash topshiriladi. Topshiriklar badiiy matn puxta urganilgandan keyin berilgani uchun xam uni bajarish bolalardan kup vakt talab kilmaydi. Darslik-majmuadagi parcha bilan yana bir tanishish mobaynida xar bir gurux a'zosi uzlariga berilgan topshirikka daxldor jixatlarni kashf etishadi. Bu xildagi taxlil turini biror adib ijodi urganib bulingach, yakunlovchi mashgulot tarzida uyuştirish yaxshi samara beradi.

Adabiyot ukitish tajribasida kuprok kullaniladigan taxlil turi ommaviy (frontal) taxlildir. Bunda kuprok ukituvchi ishlaydi. Ukuvchilar taxlil jarayonida ukituvchi fikrlari tizginini yukotib kuymaslik va chalgib kolmaslik uchun muallim karashlarini e'tibor bilan tinglaydilar. Shuni aytish kerakki, adabiyot darslarida ukuvchilarning jimgina utirib, mirikib dars tinglashi ukituvchi muvaffakiyatidan dalolat emas. Ukituvchi ukuvchi ruxiy muvozanatini buzishi, uni uylashga, tuygular girdobiga tushishga majbur etishi kerak. Kanchalik jarangdor, yokimli, ravon va savodli bulmasin, ukituvchi monologi adabiyot darsi oldiga kuyilgan vazifalarni bajarishga yetarli bula olmaydi. Adabiyot muallimi xamma va xar bir bola bilan aloka urnata bilganda, ularning fikri va yuragiga chug tashlay olgandagina, bolalar ma'naviyatiga ta'sir kursatadi. Buning uchun pedagogik dialog zarur. Adabiy ta'limda dialog monologdan kadrlirokdir. Shuning uchun xam uzi kup ishlagan ukituvchi emas, balki ukuvchilarini kuprok ishlatishga erishgan ukituvchi moxir pedagog xisoblanadi. Monolog darsning umri kiska buladi, uning ta'siri kungirok chalinishi bilan tugaydi va ukuvchilarning kalbida xam, tafakkurida xam chukur iz koldirmaydi. Yaxshi uyuştirilgan ukuv taxlili ana shu xolatga barxam beradi. Monologni kamida dialogga, imkonи bulsa, polilogga aylantiradi. Dars kupchilik faol ishtirot etadigan, ma'naviy kadriyatlar, mantikiy sillogizmlar tuknash keladigan jarayonga aylanadi. Tugri uyuştirilgan frontal taxlil ukuvchilarni badiiy matn katiga kirishga undaydi.

Yaxshi ukuv taxlili asar muallifining vaktlar osha va odam bilan kilgan suxbatidir. Ommaviy taxlil samarali bulishi uchun adabiyot ukituvchisi darslik xamda undagi savol va topshiriklardan yaxshi foydalana olishi kerak. Bundan tashkari, xar bir ukituvchi ukuvchilarning tayyorgarlik va ruxiy-akliy darajasi xisobga olib tuzilgan, talabalarni izlanishga undaydigan xamda taxlilga chukurrok kirishishga chorlaydigan uz savol-topshiriklar tizimiga ega bulishi kerak. Bu tizim ukituvchining uzi tomonidan ishlab chikilishi xam mumkin, ilgor xamkasblarning zaxirasidan olinishi xam mumkin. Badiiy asarni bitgan yozuvchining vakolatini olib ish kurayotgan ukituvchi ijodkor bilan ukuvchini uchrashadiradigan, mulokotga kirishtiradigan insondir.

Didaktik taxlilning bir koidasi borki, unga amal kilmaslik adabiy ta'limni boshi berk kuchaga kiritadi. Bu oltin koida shundan iboratki, kanday janrda yozilganligi, kancha xajmda ekanligi va kaysi sinfdagi urganilayotganligidan kat'i nazar, ukituvchi badiiy asar mazmunini suzlab berishi mumkin emas. Afsuski, adabiy ta'lim amaliyotida ukuv taxlilini badiiy asar mazmunini suzlab berish tarzida tushunish juda keng yoyilgan. Xolbuki, urganilayotgan asar mazmunini kayta xikoyalashning adabiy ta'lim maksadiga mutlako alokasi yuk. Chunki chinakam badiiy asar uchun undagi vokealarning uzi emas, balki usha vokealar ruy berishi mobaynida kaxramonlar ruxiyatidagi purtanalar manzarasining aks ettirilgani muximdir. Buning ustiga, kupchilik asl badiiyat namunalarida biz kunikkan ma'nodagi kayta xikoyalash mumkin bulgan mazmunning uzi yuk.

Kayta xikoyalash mumkin bulgan joyda san'at bulmaydi. San'atning san'atligi, iloxiyligi, ijodligi, takrorlanmasligi xam, aynan, uni aytib berish mumkin emasligidadir. Kim bulsa xam, boshka birov tomonidan aytib berishga urinish badiiy asarni yukka chikarish demakdir. Navoiy tasvirlagan manzarani yoki Kodiriyning nozik ifodalarini ulardan boshka biror kishi adiblar erishgan badiiy effektga erishtiradigan tarzda aytib bera olmaydi. Adabiyot darslarida ukituvchilarining asosiy vakti asardagi vokealarni talabalarga aytib berish bilan, ukuvchilarining barcha vakti esa, muallimlaridan eshitganlarini kayta xikoyalash bilan utayotganligi uchun xam bizda kitob ukish madaniyati pasayib bormokda. Chunki maktab adabiy ta'limida ukuvchilar badiiy asarni emas, undagi vokealarni "ukishga urgatilgan".

Adabiy asarlarni didaktik taxlil kilishda tayanilishi zarur bulgan bir kator tamoyillar mavjudki, ularga amal kilmay turib, adabiyot ukitishda samaraga erishish mumkin emas. Ta'kidlash kerakki, ukuv taxlilida xam xuddi filologik taxlilda amal kiladigan tamoyillar uz kuchida koladi. Lekin ukuv taxlili pedagogik faoliyat bulganligi uchun xam bir necha uziga xos tamoyillarga xam amal kilish lozim buladi.

Didaktik taxlilda ukuvchilarning individual xususiyatlarini xisobga olish tamoyili muxim urin tutadi. Badiiy asar aloxida shaxsning individual faoliyati natijasidir. Binobarin, individui shaxsning individual faoliyati maxsuli bulmish badiiy asarni sinfdagi barcha ukuvchiga birvarakayiga, yoppasiga yetkazish mumkin emas. Adabiy ta'lim uchun ijodkor shaxs miyasi va yuragi xosilasi bulmish matnni yosh yuraklarga yetkazish orkali ukuvchi shaxsini shakllantirish maksad xisoblanar ekan, sinfdagi xar bir ukuvchining aloxida yuragi, uziga xos ruxiyati, kechinmalar tizimi, ta'sirchanlik xususiyatlari, estetik tajribasi borligini xisobga olib ish kurish lozim buladi. Badiiy asar didaktik taxlil etilar ekan ukituvchi "umuman ukuvchi"ni emas, balki konkret ukuvchini kuz oldiga keltirmasa, ijobiy natijaga erisha olmaydi. Chunki talaba kalbiga, ruxiyatiga ta'sir kursatmok uchun uning kalbi va ruxiyatiga xos sifatlar xakida anik tasavvur bulishi lozim. Bu xakda anik ma'lumot bulishi uchun xar bir ukuvchi shaxsi puxta urganilgan va taxlil jarayonida bolalar ruxiyatidagi uziga xoslik maksimal darajada xisobga olingan bulishi shart. Shuning uchun xam ukuvchi kalbi bilan ish kurishga tutingan ukuvchi konkret, jonli shaxsni kuz oldiga keltirmay turib, ukuv taxlilini amalgalash oshira olmaydi.

Xozirgi adabiy ta'limdagi eng katta nukson shundaki, taxlil jarayonida individuallik tamoyiliga deyarli e'tibor kilingan. Organilayotgan asar barcha ukuvchilar uchun bir xilda "umuman" talkin kilingan. Natijada, xar bir aloxida olingan bolaning tuygulari darchasi badiiy asar uchun yopik koladi. Xolbuki, tuygularga ta'sir kilish uchun kalbni chuglantirish, ukuvchilarning tafakkurini xam, xissiyotlarini xam faollashtirish, muvozanatdan chikarish, befarklikdan xalos etish kerak. Shundagina ukuvchi taxlil kilingan asarga kizikadi, kizikkan - asar ma'nnaviy kadriyatlariga ergashadi, ergashgan - yuktiradi, yuktingan - uz ma'nnaviyati ustida ishlaydi, ishlagan - tarbiyalanadi. Aloxida shaxs sifatida badiiy asarlarni kabul kila bilish ukuvchini biologik mavjudotlikdan kutkarib, uni ijtimoiy zotga aylantiradi. Odamning xayotiga rux, guzal mazmun beradi, uni ta'sirchan, nurli kiladi. Ukv taxlilining individualligi tamoyiliga rioya etish ukituvchidan juda kup mexnat, katta akliy-ruxiy surkishni talab etadi. Negaki, ayni bir vakte xamma bilan birday va xar bir bola bilan aloxida ishlay olish oson emas.

Didaktik taxlil bir-biridan tamomila fark kiluvchi ukituvchi va ukuvchi faoliyati birikuvidan iborat bulganligi uchun xam ilmiy taxlilda kuyilmagan zarur bir talabga rioya kilingan shartdir. Bu talab ukituvchi bilan ukuvchilarning taxlilga jalb kilingan asar yuzasidan bir xil xulosaga kelishi shart emasligidir. Atroflicha taxlil kilingan, estetik joziba manbalari ochilgan badiiy asar xakida sinfdagi ukuvchilar ukituvchi istaganiday fikrashi, ukituvchi chikargan estetik xulosaga kelishi majburiy bulmasligi lozim. Negaki, xar bir aloxida shaxsning dunyonidagi idolk etish, tushunish, ta'sirlanish va xulosa chikarish tarzi bor. Badiiy asarni tushunishdagi uziga xoslikning manbalari juda kup va u xakda uzok suz yuritish mumkin, lekin eng muximi, ukituvchi usha uziga xoslikni bir xillikka tomon zurlab yunaltirmasligi zarur. Barchaning bir xil uylashiga erishish - kulga kiritilishi mumkin bulgan pedagogik natijalarning eng yomonidir.

Adabiyot ukituvchisi uchun uning xulosalariga kushilmaydigan ukuvchini tarbiyalash eng katta ijobiy natijadir. Chunki adabiy ta'lim uchun biror asar taxlili natijasida undan chikarilgan xulosa emas, balki shu xulosaga kelguncha bosib utilgan xissiy-mantikiy yul muximrokdir. Bu yulda ukuvchi uylanishga, izlanishga, ma'nnaviy kadriyatlarini solishtirishga majbur buladi. Agarda ushanday mantikiy-badiiy operatsiyalavr natijasida bola ukituvchisining karashlaridan fark kiladigan va xatto zid xulosaga kelgan bulsa xam kuvonmok kerak.

Ukituvchi tarbiyalanuvchisidan fakat bir narsani: uz fikrini badiiy matnga tayangan xolda asoslashni talab kilishga xakli. Badiiy matn esa xar bir kitobxon tomonidan uzicha talkin etilishi mumkin. Adabiyot darslari shaxslararo munosabat natijasida shaxslik sifatlarini shakllantirishga karatilgan faoliyatdir, shaxslararo munosabat esa fakat ilm emas, balki ijod xamdir. Ma'lumki, ijod karashlar va xulosalarning xilma-xilligiga tayanadi.

Didaktik taxlilda ukuvchi va adabiyot ukituvchisi karashlarining xar xil bulishi mumkinligi, aslo

adabiy asar taxlilida ukituvchi va ukuvchi xamkorligi tamoyilini inkor etmaydi. Filologik taxlildan farkli tarzda ukuv taxlili ikki tomonlama jarayondir. Unda taxlil kiluvchi: tushuntiruvchi-ukituvchi bilan, taxlil kiluvchi: tushunuvchi-ukuvchi faoliyati birikkan xolda namoyon buladi. Bu ikkala tomondan biri katnashmasa, ukuv taxlili yuzaga kelmaydi. Didaktik taxlilda ukuvchi faoliyati aloxida axamiyat kasb etadi.

Ukuvchining estetik faoliyatini faollashtirish, didini ustirish orkali uning shaxsini kamolot sari yunaltirish adabiy ta'limning pirovard maksadi xisoblanadi. Shuning uchun xam didaktik taxlilda ukuvchi-ukituvchi xamkorligiga erishilmasa, pedagogik maksadga erishilmaydi. Ukuvchiga didaktik taxlilni tinglovchi va kabul kiluvchi debgina karash adabiyot darslarini yukka chikaruvchi xatodir. Ayni vaktda, ukituvchi ukuvchilarning uy-fikrlari, tuygulari bilan mutlako ishi bulmasligi kerak, talaba uziga ma'kul kelgan xar kanday xulosaga kelsa xam bulaveradi deb karash undan kam bulmagan xatolikdir. Tugri, ukuvchilarning fikriy xurligiga daxl kilmaslik, ularni bir xil xulosalar sari zurlab xaydamaslik zarur, lekin ukuvchilarning erkin fikrlashlariga imkon berish boshkayu, ularning xissiy mantikiy faoliyatlarini uz xoliga tashlab kuyish mutlako boshka tushunchalardir.

Didaktik taxlilda yukori darajadagi samaraga erishmok uchun ukuvchi bilan ukituvchi xamkor bulmogi, bir umumiylar marrani belgilamoklari va unga erishish sari xamkorlik kilmoklari zarur. Aks xolda, adabiy ta'lim oldida turgan vazifalar bajarilmay koladi. Chunki ayni bir faoliyatni amalga oshiruvchi ikki kuch boshka-boshka xarakat kilsa, ularni boglab turuvchi ma'naviy rishta bulmasa, bunday faoliyatning kanday samara keltirishi ma'lum. "Uziga xos baxo berishga, mustakil ravishda xulosalar chikarishga odatlanayotgan ukuvchilar muxokama etilayotgan masalalar yuzasidan ukituvchi bilan talashib-tortishsalar xam, ayamay baxslashsalar xam, u bilan kelisha olmasalar va uziga xos karorga kelgan bulsalar xam uning ortidan borishlari, unga ishonishlari, uning ijodiy irodasini xis etib turishlari kerak", - deb yozadi adabiyot darslarida ukituvchi-ukuvchi munosabatlarining kirralarini goyat sinchkovlik bilan urgangan metodist olimlar V.Kan-Kalik va V.Xazan. Adabiyot ukituvchisi uz ukuvchilarning fikrlarini bugmaganligi, uz karashlarini bildirishga yul kuyib bergenligi va biror xulosaga zurlab olib kelishga urinmaganligi uchun xam ukuvchilarning ishonchini kozonadi va ularning xamkoriga, bolalar evristik faoliyatining sheringa aylanadi.

Didaktik taxlil yuzaga chikishi uchun ukuvchi fakat eshituvchi makomida bulishi yetarli emas. U, albatta, taxlil kiluvchi martabasida bulishi kerak. Adabiyot darslari teng tomonlar faoliyati ekanligi, bu faoliyat ishtirokchilardan biri bulmish ukituvchi fakat xayotiy tajribasining boyligi, badiiy asarga munosabat malakasini egallaganligi, estetik mezonlarning shakllanganligi bilangina ukuvchilaridan ajralib turishi yodda tutilishi lozim. Garchi, ukuvchilar sinfdagi urganiladigan asarlarni ukituvchi singari oldindan tulik ukib chikmagan bulsalar-da, ularining axlokiy mezonlariga, ma'naviy tajribalariga egadirlar. Chunki xar bir inson dunyoga kelgan kundan boshlabok, uzi bilib yoki bilmay ma'naviy tajriba orttiraveradi. Binobarin, ukuvchilar xam badiiy asarni talkin kilish, unga kadriyatlar nuktai nazaridan baxo berish xukukiga egadirlar. Adabiyotning maktabda urganiladigan uzga ukuv predmetlaridan asosiy farki xam shunda. Bu tugrida mashxur rus adibi Yuriy Karyakin shunday deydi: "Fizika, matematika va boshka shu kabi predmet ukituvchilari uchun ukuvchi, kopolrok kilib aytganda, "yozilmagan kogozlar" ularning darsdagi uzaro munosbatlari teng emas. Asosiy ishi insonning ma'naviy tajribasini taxlil kilish bulgan adabiyotda esa axvol tamomila boshkacha. Bu yerda ukuvchiga "toza kogoz" deb karash butun ishni yukka chikaradi. Bundan avval "yozilganlar"ni xisobga olmay turib "yozib" bulmaydi. Ukuvchi (xatto birinchi sinfdagi bolakay xam) uziga yarasha ulkan ma'naviy tajribaga ega va adabiyot ukituvchisi bilan ukuvchi orasidagi munosabat kup darajada tengdir. Chunki bu munosabatlar, avvalo, teng odamlar urtasidagi munosabatlardir: fakat ukituvchi kattarok xayot tajribasiga ega xolos".<sup>2</sup>

Adabiyotdan boshka predmetlarni ukitishda muallim ukuvchi bilmaydigan narsalarni urgatadi, ukuvchilarning ukituvchi, urgatmokchi bulgan bilimlar majmuini oldindan bilishi deyarli mumkin emas. Adabiyotda esa bilim berish emas, balki tarbiyalash, barkamol shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirish maksad xisoblanadi. Demak, urganilayotgan asarlarda xam kaxramonlarning yoxud muallifning ma'naviy olami tekshiriladi. Bu tekshirishda ukuvchi va

ukituvchi barobar, teng xukuk bilan ishtirok kilishi kerak. Chunki bola xam uziga yarasha ma'naviy tajribaga, axlokiy ulchovlarga egadir.

## Badiiy taxlilning asosiy tamoyillari

REJA:

1. Taxlil tamoyillari tushunchasi va uning moxiyati.
2. Badiiy taxlil tamoyillarini tayin etishning ilmiy-nazariy asoslari.
3. Taxlil turlari va uning tamoyillari munosabati.
4. Badiiy taxlil tamoyillarining taxlil amaliyotidagi urni.

Tayanch tushunchalar:

"Tamoyil", "taxlil tamoyillari", "tugal taxlilning bulishi mumkin emasligi", "xar kanday taxlilning shaxsiy muloxazadan iborat ekanligi", "badiiy asarning goya ifodalash vositasi emasligi", "badiiy asar borlikning nusxasi emasligi", "estetik asoslarga tayanish zarurligi", "taxlil va tamoyil".

Badiiy asarning xayotiy, badiiy mantigi xamda estetik jozibasini ochish muayyan tamoyillarga suyangan xoldagina amalgal oshirish mumkin. Badiiy taxlilda ilmiy tushunchalar asosida ish kurilib, xulosalar chikarilsa-da, undan ilmga xos bir xillik kutish mumkin emas. Badiiy asarning butun sexru jozibasi tulik namoyon bulishi, urganilayotgan asarning goyasigina emas, balki aks ettirilgan inson ruxiyati manzaralari xam anglashilishi uchun badiiy taxlil bir kator tamoyillarga amal kilingan xolda bajarilishi kerak. Asarni nafosat talablariga muvofik tarzda badiiy taxlil etish uchun rioya kilinishi shart bulgan muayyan talablar tizimi mayjudki, ularga buysunmaslik mumkin emas. Tamoyil tushunchasi biror faoliyatning amalga oshirilishi uchun shart bulgan koida va talablarni uz ichiga oladi. Taxlilga kuyiladigan birinchi talab-bu mukammal, tugal taxlilning bulishi mumkin emasligidir. San'at xodisasi xos xususiyatlarni mantik kategoriyalari va tafakkur tushunchalari kolipiga tulik, tugal va beshikast agdarish mumkin emas. Mantikiy kategoriyalarga tulik agdarish, barcha jixatlarini beistisno tugal tushuntirish mumkin bulgan xodisa-san'at xodisasi emas. San'at fenomeni mantikiy tushunchalarga sigmagan joydan boshlanadi. Binobarin, eng zur tadkikotchi xam asl ijod namunasini tulik uzungacha talkinga urin koldirmaydigan tarzda taxlil kilolmaydi. Aytish kerakki, kommunistik mafkura badiiy asarlarining mantikiy koliplarga tulik tushadigan, izoxlash imkoniyati buladigan tarzda yaratilishini talab etardi. Mazkur talabga buysungan, uz talantini gayri estetik kursatmaga moslashtirmokchi bulgan ijodkorlar yaratgan bitiklar shuning uchun xam asl badiyyat namunasi bula olmaganlar. Chulponning "Guzal", "Binafsha", "Sirlar", Rauf Parfining "Yoshlik zangor fasl", "Xato kildim", "Yomgir tinmadi", "Daryo mayjlariga yozilmish gazal", Abdulla Oripovning "Uylarim", "Genetika", "Dengizga", "Baxor", "Saraton", "Onajon" va xokazo asarlarini oxirigacha xammani koniktiradigan tarzda izoxlab, tushuntirib berib bulmaydi. Ularni mantik ilmining tor va xissiz koliplariga tushirish-imkonsiz. Akl bilan izoxlash mushkul bulgani uchun xam badiiy adabiyot yaratiladi.

Chinakam badiiy matn uz umri bilan yashaydi. U matnni idrok etgan avlodning saviyasi, didi, intellektual darajasiga muvofik ravishda turli davrlarda turlicha kabul etiladi. Xatto ba'zan bir asarning uzi bir odam tomonidan kayfiyatining kandayligiga karab xar xil idrok etilishi mumkinki, asl badiiy matnning xususiyati shundan iboratdir. Turli davrlarda idrok etilgan ayni matn turlicha talkinini topaveradi va bu tabiiy xoldir. Demak, badiiy matnning taxlili xech kachon tugallanmaydi.

Badiiy asar taxliliga kuyiladigan ikkinchi bir talab-bu xar kanday taxlilning shaxsiy muloxaza xarakterida bulishi va u xech kachon mutlak xakikatlik da'vosini kilishi mumkin emasligidir. Taxlilchi kanchalik bilimdon, talantli, tajribali va moxir bulishiga karamay, uning fikrlari xamisha xam fakat shaxsiy muloxaza, sub'ektiv karash makomida buladi. Ilmiy xakikatlar xakida bunday deyish mumkin emas. Xar bir ukuvchi, kitobxon, mutaxassis xar kanday asarni uzicha ukiydi, uzicha tushunadi, uzicha ta'sirlanadi, uzicha xis etadi. Demakki, uzicha xulosa chikaradi. Bir asarni ukigan kupchilik kishilar urtasida uzaro uxhash, bir-biriga tugri keluvchi fikrlar bulish

mumkin bulgani singari, mutlako bir-biriga tugri kelmaydigan karashlar bulishi xam mumkin va bu tabiiy xol xisoblanishi kerak.

Kommunistik mafkura xar kanday asarning xamma tomonidan birday kabul etilishini talab kilardi. Aslida, bu-jamiyat a'zolarini estetik yul bilan bir kolipga solishga urinish edi. Kommunistik partianing oliy organlari tomonidan "Zvezda", "Leningrad" jurnallari xakidagi, M. Zoshchenko, A.Axmatovalarning ijodi tugrisidagi katagonga chorlovchi karorlarning yuzaga kelishi sababi xamda bu jurnallar va tilga olingan ijodkorlar ommani bir xil uylashga, anikrogi uylamaslikka urgatadigan adabiy vaziyatga daxl kilgan edilar. Ular xar xil kabul kilish mumkin bulgan ijod namunalari yaratgandilar, chop etgandilar. Adabiy asarning taxlili nechoglik chukur bulsa-da, uzga bir shaxs bu xildagi talkinni kabul etmasligi va badiiy xodisaga uz pozitsiyasidan kelib chikib baxo berishi mumkin. Badiiy asarning uta individual faoliyat natijasi ekanidan uning kabul etilishi xam goyat individual jarayonligini kuzda tutish joiz buladi.

Adabiy asarning ilmiy taxlili oldiga kuyiladigan talablardan yana biri san'at asariga ifodalash vositasi, fikr bildirish yuligina deb karamaslik va uning estetik xodisa ekanini xisobga olish keraklidir. Uzbek adabiyotshunosligi va filologik ta'limida xanuzgacha san'at asarlariga ijtimoiy yondashish ustuvor mavkeda turganligi xamda bu nuksanni bartaraf etish, undan kutulish birmuncha uzok davom etadigan jarayon ekanligi ayon bulganligi uchun xam badiiy asarga kandaydir goyani utkazish yuli deb karash notugridir.

Badiiy asarlar taxlilida amal kilinishi zarur talablardan yana biri san'at xodisalariga borlikning nusxasi tarzida munosabatda bulishining mumkin emasligidir. San'at asarini vokelik bilan, real borlik bilan solishtirib baxolash, undan xayotning badiiy nusxasi tarzida munosabatda bulishining mumkin emasligidir. San'at asarini vokelik bilan, real borlik bilan solishtirib baxolash,. Undan xayotning badiiy nusxasi bulishni talab kilish "mimesis" nazariyasiga borib takaladi. San'at xodisasini ijodkorning tabiatga yoki ijtimoiy xayotga taklididan iborat deb tushunish tadkikotchidan yoki ijtimoiy xayotga taklididan iborat deb tushunish tadkikotchidan xar kanday asarga uning vokelikka mos kelishi yoxud kelmasligi nuktai nazaridan yondashishni takozo etadi. Buyuk mutafakkir, mimesisning asoschisi Aristotel yashagan zamonlardayok san'at xodisalarining xayotga xamisha xam muvofik kelavermasligi kuzatilgan va buni allomaning uzi xam Sofokl va Evripid tragediyalarini kiyoslash munosabati bilan aytib utgan.

Badiiy adabiyot insonning ichki tuygularini, nozik sezimlarini, suzga buy bermaydigan ruxiy xolatlarini ifodalash vositasi ekanligi kuzda tutilgandagina taxlil soglon mantikka muvofik amalga oshirilishi mumkin. Negaki, badiiy mantik xamisha xam xayot mantigiga muvofik kelavermaydi. Ba'zan badiiy tasvir xayot xodisasiga karaganda teranrok, axamiyatlirk, salmoklirok, bulishi xam mumkin. Chunki badiiy asar tartibsiz, xaotik kurinishdagi xayot vokeligidan yaxlit va ichki intizomga buysunuvchi, kat'iy badiiy mantikka binoan xarakatlanuvchi estetik vokelik yaratish natijasida vujudga keladi. Bu xakda norvegiyalik modernchi adib va adabiyotshunos E.Xovardsxolm: "Poeziya real borlikning taklidi xam yoki uning kandaydir talkini xam emas. Poeziya uz xolicha ortik darajadagi reallikdir ". Shuning uchun xam badiiy asarga yondashilganda, uning real xayot manzarasini kursata bilishini mezon kilib ish kurish maksadga muvofik bulmaydi. Ayniksa, lirk yoxud satirik asarlar talkinida badiiy ijodning xayot xakikati tarzida kabul kilinishi asarlarining jozibasini xam, ta'sir kuchini xam mutlako yukka chikarishi mumkin.

Badiiy asarga yukorida aytilgan talablarga amal kilgan xolda yondashilgandagina tugri taxlil yuzaga kelishi va uning milliy tafakkur xamda ruxiyat tarakkiyotida bir kadar samarasini bulishi mumkin.

Badiiy taxlilning eng muxim tamoyillaridan yana biri yaxlitlikdir. Yaxlitlik talabi, avvalo, urganiladigan badiiy asarga zurovonlik bilan kismlarga ajratib tashlash mumkin bulmagan estetik butunlik tarzida yondashishni takozo kiladi. Darxakikat, asl san'at yaxlitlikdan iboratdir. San'at asarining butunligiga daxl kilinmagandagina uning moxiyatini anglash mumkin. Buning ustiga, taxlil yordamida barkamol shaxs ma'naviyatini shakllantirish xam kuzda tutilar ekan shaxsni xam fakatgina yaxlit xolda shakllantirish mumkinligini xisobga olish zarur buladi. Chunki insonga avval akliy, sung axlokiy, sungra jismoniy, undan keyin mexnat, undan sung vatanga muxabbat. Ulardan keyin insonparvarlik va xakozo tarzidagi sifatlarni singdirib bulmaydi. Inson yo turli

omillar ta'sirida bir kator ma'naviy fazilatlar majmuiga ega yaxlit bir kator ma'naviy fazilatlar majmuiga ega yaxlit bir shaxs sifatida shakllanadi yoxud xech kachon tula ma'nodagi shaxsga aylanolmay kolaveradi. Ezgu insoniy fazilatlarning biri ikkinchisini, albatta, takozo kiladi, biri boshkasidan kelib chikadi.

Agar badiiy asarga mu'jizaviy bir butunlik tarzida yondashilmaydigan bulsa, uning siru jozibasi bir zumda yukka chikadi va adabiy asar uziga xos ta'sir kudratidan tamomila maxrum buladi. Taxlil kilinayotgan asarning barcha jixatiga birvarakayiga sinchkovlik bilan yondasha bilish va uning uzvlaridagi jozibani kashf etishga e'tibor karatish taxlilning muvaffakiyatini ta'minlaydigan omildir.

Badiiy taxlilda amal kilinishi zarur bulgan tamoyillardan yana biri sistemalilikdir. Tizimlilik prinsipi yaxlitlik tamoyilining mantikiy davomi bulib, badiiy asarni tashkil etgan komponentlarning muayyan tizimi kurinishga egaligini kuzda tutadi va taxlilda shu xolat xisobga olinishini talab kiladi. Asl san'at asarida biri ikkinchisiga boglik bulmagan biror badiiy unsur uchramaydi. Kuchim, portret, uxshatish, peyzaj, mubolaga, kichraytirish singari kator tasvir vositalari bir asarda tasodifiy ravishda yigilib kolmaydi. Ularning shu asarda, ayni shu tartibda guruxlashuvining ichki mantikiy konuniyati mavjudki, taxlil mobaynida ayni shu konuniyat ochilishi kerak. Shuning uchun xam taxlilni uyuştirishga tutingan mutaxassis sistemalilikka amal kilishi joiz.

Tizimlilik tamoyili badiiy asar unsurlariga estetik zaruriyat, sababiy alokadorlik silsilasi kuzda tutadi. "Ugri" xikoyasidagi amin portreti asar umumiy organizmidan uzilgan xolda, shunchaki personajning kanday kiyofali ekanini bildirib kuyish uchungina berilmaganligi, balki ayni shu berilmaganligi, balki ayni shu portret tasviri asar yaxlitligi, syujet rivoji tabiiyligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ekanligi taxlillovchilar nazaridan kochirilmasligi zarurdir. Zero, bu portret tasvirisiz amin va Kobil bobo munosabati tushunarli bulmas edi.

Badiiy asar taxlilida xamisha suyaniladigan tamoyillardan biri tarixiylikdir. Garchi badiiy asarga tarixning illyustratsiyasi yoxud uning shunchaki estetik in'kosi deb karash tugri bulmasa-da, xar kanday adabiy asarning muayyan zamonda, muayyan tarixiy sharoitda, konkret vaktda yashab utgan odam tomonidan yaratilganligini va unda aks etttirilgan vokealargina emas, balki ruxiy xolat manzaralarida xam usha tarixiy davrning tamgasi borligi tan olinadi. Taxlilga tortilgan xar kanday badiiy asarning yaratilgan davrini va imkonи bulsa, uning yaratilishiga turtki bulgan asosiy sababni bilmay turib, asarni chukur urganish va xakkoni xulosaga kelishning imkonи yuk. Urganilayotgan asarga tarixiylik nuktai nazaridan yondashilmasa, kaxramonlar ruxiy xolatini xam, ularni faoliyatga undagan sabablarni xam tushunmaslik mumkin.

Zamonaviy uzbek adiblarining aksar asarlariga tarixiylik tamoyiliga tayanmay turib, fakat estetik mezonlar bilan yondashishning uzi taxlilchini maksadga olib kelmasligi mumkin. Chunki agar mumtoz adabiyotning asl namunalari yaratilishidanok sof san'at asari tarzida dunyoga kelgan va san'atkor ajdodlarimiz uchun badiiy shakl ustuvor makomda turgan bulsa, zamonaviy ijodkorlar uchun uzungacha xolat xosdir. Olamni estetik idrok etishda turkona uziga xoslikni, ma'lum darajada buzib Global tasvir yunalishida ketayotgan uzbek adabiyotining bugungi namoyandalari tomonidan yaratilgan deyarli barcha asarlar biror xayotiy turtki tufayli vujudga kelgan va usha tarixiy sharoit xisobga olinmasa, asarni tugri tushunish xamda tushuntirish imkonsiz. Chunonchi, gafur gulomning "Sen yetim emassan", E.Voxidovning "Nido", "Ruxlar isyoni", Rauf Parfining "Abdullajon marsiyasi", "Chulpon", "Ona Turkiston", O.Matchonning "Kurdim Shukur Burxon", "Kaysi yil kuklamda Jayxun buyida", "Eng sunggi xazina" singari asarlarini taxlillashda tarixiylik tamoyiliga tayanmay turib samaraga erishib bulmaydi.

Adabiy asarni taxlil kilishning muxim prinsiplaridan biri estetik asoslarning ustuvorligi tamoyilidir. Xermenevtik amaliyatda badiiy taxlilning maksadi nimaligi xamisha xam tugri belgilab olinavermaganligi uchun estetik asoslarning ustuvorligi tamoyiliga kupinchal amal kilinmaydi. Badiiy asar inson ruxiyati manzarasi bulgani bois ukuvchilarni eng kabarik, eng ta'sirchan tuygular tasviri bilan yuzma-yuz kiladi. Shu tarika kitobxonlar uzga odamlarning ruxiyatiga oshno etiladilar. Kupinchal odamlar uz ruxiyatini anglay olmay yurgan bir paytda kitobxonlar uzgalarning kechinmalarini xis etishga odatlanishadi. Natijada, kishining tuygulari utkirlashadi, fikri teranlashadi, kechinmalarini noziklashadi. Taxlilda estetik asoslar ustuvor

bulsagina, ukuvchilarning kalb kuzi ochiladi va ular tuygusizlikdan, xissizlikdan kutuladilar. Badiiy asarni urganish asnosida yurakdagi bepavorlik illati solgan zanglar, kutirlardan tozalanish inson ma'naviyati uchun zur saodatdir.

Ma'lumki, tekshiriladigan asarning badiiy jozibasi asar sirtginasida manaman deb turmaydi. Asardagi nafosatni, zariflikni anglash uchun uning badiiy katlamlarini kashf etish zarur. Buning uchun muayyan adabiy bilimlar majmuidan tashkari estetik farosat va guzallikni kidira bilish malakasi xam shakllangan bulishi kerak. Yashiringan guzallikni topish osonmas. Yashirinmagan bulsa, guzallik xisoblanmaydi. Yuzada turmaydigan, ijodkor tomonidan "shifrlangan" badiiy ma'noni topish adibning estetik idealini, tasvirlash maxoratini paykagan mutaxassisgagina nasib etadi. Estetik taxlilga tortilmagan badiiy asar test savollariga uxshash noma'lumlikdir. Bu noma'lumlikni ochadigan mantikiy-estetik kalit mavjud. Badiiy taxlil ayni shu kalit vazifasini bajaradi. Badiiy taxlilni estetik asoslar ustuvorligida utkazish nozik sezimlarni ilgashga kalit topish demakdir.

Taxlilda estetik asoslarga yetarli e'tibor bermaslik urganilayotgan asarni fakat mantikiy sillogizmlardangina iborat kilib kuyadi. Taxlilga bu xilda yondashish asl san'at asarlarini yukka chikarishi mumkin. Xazrati Navoiyning "Lolazor ermaski, oximdin jaxonga tushti ut, Yuk shafakkim, bir kirodkin osmonga tushdi ut" matla'si bilan boshlanadigan gazali fakat mantikiy tushunchalar asosida taxlil kilinsa, kishi bu asardan aytarli guzallik xam, chukur falsafiy ma'no xam topa olmaydi. Bu asarga estetik butunlik va yuksak ruxiy xolat ifodasi tarzida yondashilgandagina uning jozibasini xis etish mumkin buladi. Kipkizil bulib ochilgan cheksiz-chegarasiz lolazor kuynida turgan, kalbi guzallikka tashna lirik kaxramon ma'shukasiga yetolmay shunchalar kuyadiki, ichi olovga tulib ketgan. Uning nazarida bepoyon, ufkлага kadar tutashib ketgan kizillik lolazor emas, balki ma'shuka firogidan kuygan gamboda oshikning oxidan dunyoni tutib ketgan olov, Lolazor borib tutashgan ufk tepasidagi kizillik xam shafak nuri emas, balki oshikning oxidan chickan olov yerni yondirib bulib, yer osmon bilan tutashgan joydan kukka tutashdi va endi osmon xam bir chekkasidan yonib kelmokda. Shu xildagi izoxgina asarning jozibasini ochishga xizmat kiladi.

Taxlilga estetik tamoyil asos kilib olinganda muallif tomonidan yaratilgan obrazli estetik reallikka kirish, badiiy vokelikning ichki konuniyatlarini kashf etish mumkin. Xar kanday ijodkor aslida yozganlarini kupchilik tushunishini, xis etishini istaydi. Buning uchun adibni omma darajasiga tushurish emas, balki ommani ijodkor darajasiga kutarish talab kilinadi. Badiiyat bagridagi yashirin guzallikni sezmaslik kishining nafakat nafosat va ma'naviyat nuktai nazaridan, balki akliy tarakkiyot jixatidan xam kamolot boskichida emasligini kursatadi.

Badiiy taxlilni amalga oshirishda emotsiyonallik tamoyili xam katta urin tutadi. Badiiy asarning uzi xissiyotga asoslangan xodisa. Demak, badiiy taxlilda xissiyotni kuzda tutish muxim. Taxlilda xissiyot xisobga olinmaydigan bulsa, badiiy asarning estetik uziga xosligi yukka chikadi. Taxlil shunday uyuştilishi kerakki, asar badiiy va xayotiy mantigi xamda estetik jozibasini ochishga karatilgan xar bir tadbir kishining tuygulari olamiga daxl kilsin, ularda muayyan xissiyotlar uygotsin.

Xissiylik tamoyili zurakilikni, yasamalikni, sun'iylikni kutarmaydi. U kishini taxlil kilinayotgan asarning badiiy katlamlariga olib kirish, kaxramonlar va muallif xolatiga tushirish, ularning kaygu va kuvonchlarini xis etdirish demakdir. Afsuski, taxlil tajribasida emotsiyonallik tamoyiligi xamisha xam amal kilinmaydi. Taxlilda emotsiyonallik tamoyiliga amal kilinmagach, badiiy asar matni emas, balki u xakdagisi xulosa muxim bulib koladi. Badiiy matnsiz badiiy taxlil yuzaga keladi.

## **Badiiy taxlilda shakl va mazmun**

REJA:

1. Shakl tushunchasining falsafiy-estetik moxiyati.
2. Mazmun tushunchasining mantikiy moxiyati.
3. Taxlil jarayonida shakl va mazmun munosabatining axamiyati.
4. Shakl va mazmun munosabati estetik muammo sifatida.

Tayanch tushunchalar:

"Shakl", "mazmun", "shakl va mazmun tushunchalarining uzaro munosabati", "badiiy taxlilda mazmunning urni", "badiiy taxlilda shakl mavkei", "shakl va mazmunning falsafa xamda estetikadagi urni".

Badiiy asarni taxlil kilish xakida gapirganda, mazmun va shakl birligi xamda ularning uzaro munosabatlari masalasiga aloxida tuxtalish lozim. Negaki, badiiy taxlilga tortilgan xar kanday badiiy shakl (asar)dan badiiy mazmun kutilganidek, xar kanday mazmun biror ifoda tarzini topishi shartdir. Badiiy asarlar ilmiy taxlil kilinganda mazkur muammo fakat estetik planda kuyiladi. Ukuv taxliliga tortilgan asarlarga tadbikan esa shakl va mazmun masalasi xam estetik, xam pedagogik problemdir.

Mafkura estetik tafakkurga xam xukmronlik kilgan zamonlarda badiiy asarlardagi mazmun va shakl munosabatiga falsafa ilmidagiday karaldi. Ya'ni badiiy xodisaning uziga xos tabiatni xisobga olinmay, unga sof ilmiy fenomenga yondashilganday munosabatda bulindi. Shu sabab adabiyotshunoslikda badiiy asarning mazmuni birlamchi bulishi, badiiy shakl esa ikkinchi darajali mavkeda bulishi kerak degan karash karor topdi. San'atda ta'sirchan, original, xech kimnikiga uxshamagan shakl emas, balki kay tarzda aytilda, mazmun birlamchi axamiyatga ega deb karash, badiiy jixatdan nochor bulsa-da, ochikchasiya kommunistik mafkura manfaatlariga xizmat kiladigan, marksistik goyalarni ifodalovchi bitiklarning badiiyat namunasi tarzida kabul etilishiga karatilgan adabiy siyosat edi.

Mazmunni birlamchi deb karovchi adabiyotshunoslik badiiy asarning kanday yozilganligi bilan emas, balki unda nima xakda gap borganligi bilan kuprok kizikar va shu tarika adabiyotda mavzu xukmronligi vujudga kelardi.

Shakl va mazmun tushunchasi, aslida, bir-biriga zid bulmagan va biri boshkasini takozo etadigan estetik kategoriyalardir. Badiiy shaklning badiiyligi shundaki, u muayyan estetik mazmunni tashiydi. Badiiy mazmun esa fakat aklga emas, balki xissiyotga xam ta'sir etadigan shaklda ifoda etilishi bilan falsafiy ma'nodagi mazmun tushunchasidan fark kiladi. Shundan kurinadiki, mazmun birlamchimi yoxud shaklmi singari baxslar atay uylab topilgan va san'atni mafkuraga buysundirishga karatilgan muammodir. Bu guyo jon muximrokmi yoxud tana degan baxsga uxshab ketigan, samarasizligi boshdanok ayon bulgan tortishuvdan boshka narsa emas. Badiiy asarning shakli bilan mazmuni bir-biridan ajratib bulmaydigan, shu boisdan ikkovi xam bir paytning uzida birlamchi axamiyatga ega tushunchalardir. Mazmun uz-uzicha goya emas. Mazmunda xolislik, ob'ektivlik, tabiiylik mavjud bulsa, goyada tendensiozlik, tarafkashlik, sub'ektivlik ustuvor buladi.

Badiiy taxlilda shakl va mazmun munosabatining xal kiluvchi axamiyati bor. Xar kanday mazmun biror shaklni takozo etgani va muayyan shakldagina mavjud bulganidek, xar kanday shakl xam muayyan mazmunga ega. Shuning uchun xam dunyo adabiyotshunosligida mazmunli shakl (soderjatelnaya forma) tushunchasi kullaniladi. Badiiy ijodda shaklni mazmunga karshi kuyish va uni ikkilamchi deb karash mumkin emas. Badiiy asarning badiiyligi aynan shaklda namoyon buladi. Shakl va mazmun munosabati falsafiy, estetik, didaktik muammo sifatida kompleks karalishi lozim. Ularning xar biriga uziga xos yondashuv talab etiladi. Badiiy asarda kanday ifodalash xamisha xam nimani ifodalash bilan yonma-yon keladi va axamiyati undan kam emas. Badiiy matnda shakl mazmunni ifodalash vositasigina emas, balki mazmunni jozibali, xissiy, ta'sirli kilish omili xamdir.

Taxlilda nimaga kuprok axamiyat berish kerak: shaklgami yoxud mazmungami? Yoki badiiy asardagi shakldan mazmun sari borish kerakmi, aksincha, mazmunni anglashdan shaklni talkin kilish sari kelgan ma'kulmi? kabilidagi savollarga javob berish nafakat nazariy, balki amaliy axamiyatga xam egadir. Agar amaldagi adabiy karashlarda mazmun tushunchasiga goyaga aylangan fikr tarzida yondashuv xukmron bulmaganda va xar kanday asarga, avvalo, kanday goyani ilgari suradi tarzidagi savolni berish ustuvor turmaganda, shakl va mazmun singari ayrilmash butunlik xakida bu taxlit masala kuyib utirilmas edi. Xolbuki, xozir xam badiiy asardan, avvalo, goya kidiradigan va shu bois istalgan badiiy asaro taxlilidan: "Adib mana bunday demokchi..." kabilida xulosa chikarishni talab etadigan filolog mutaxassislar anchagini.

Taxlilda shakldan mazmun sari borish kerak. Chunki shaklning guzalligini kashf etish imkoniyatlari cheksizdir va shu bois taxlilchilarga faoliyatning cheksiz imkoniyatlari ochiladi. Shaklning kirralari kashf etilgani sari undan chikadigan badiiy mazmun terinlashib, xilmashashib boraveradi. Asar taxlili goya kidirishdan boshlanadigan bulsa, taxlilchi akidaga, xukmu xulosaga duch keladi. Akida bor joyda xayolot parvoziga urin kolmaydi. Xayolot parvozi tuxtagan joyda badiiy asar xam yukka chikadi. Ayniksa, mu'jizakor lirik asarlar taxlilga tortilganda, ukuvchilarни akidaga yetaklib kelmaslik lozim. Ularga badiiy libos zamiridagi jozibadan baxramand bulish imkonini berish kerak.

Chulponning "Binafsha", "Guzal", Usmon Nosirning "Yurak", Xamid Olimjonning "Xolbuki tong", "gazal", Abdulla Oripovning "Birinchi muxabbatim", "Baxor", "Sarob", Rauf Parfinning "Tong otmokda", "Yomgir yogar", "Xato kildim", Omon Matjonning "Kushik" singari ichkin she'riy asarlarining taxlilga oson buy bermasligi xam mukammal badiiy shaklga egaligida va chukur mazmun guzal shaklning sexrli ka'rige berkitilganidadir. Bu asarlarning sirli badiiy libosga burkangani fakat vokealarni mantikiy tushunchalar mezoni bilan "Taxlillash"ga odatlanib kolgan mutaxassislarini kiynab kuyadi va ular ba'zab bu estetik shakllardan kanday badiiy mazmun chikarish mumkinligini bilishmaydi. Badiiy asarlarni urganishda mazmunni anglashga tutinishdan ish boshlagan mutaxassis bu ichkin asarlarning butun jozibasini, uziga xosligini nazaridan kochiradi. Mazmun izlashga zur bergen kishi uz-uzidan badiiy matndan uzoklashib boraveradi. Badiiy matn soxirligi esa ukuvchi nazaridan chetda kolaveradi. Shu jixatdan, Rauf Parfinning "Yomgir yogar" she'ri taxlili xarakterlidir:

Yomgir yogar, shigalab yogar,  
Tomchilar tomchilar sochimga,  
Yomgir yogar, shigalab yogar,  
Xam kaygumga, xam kuvonchimga...

Rauf Parfinning uch turtlikdan iborat mu'jazgina she'ri shu taxlit boshlanadi va uning teng yarmi - olti misrasi "Yomgir yogar, shigalab yogar" satrlari takroridan iboratdir. Filolog - taxlilchi mushtarylarning e'tiborini misralar zamiriga yashiringan jozibani topishga karatishdan ish boshlashi kerak. Shigalab yogayotgan ezgin yomgir, yomgir tagida ruxi gox maxzun, gox xushnud turgan shoir, sochlarga tomayotgan tomchilar, yogayotgan yomgirning lirik kaxramon kaygusiga xam, kuvonchiga xam baravar tomchilayotgani tasviri ukuvchilar ruxiy xolatida bezovtalik paydo kiladi. Ular yomgir tagida turgan nozikta'b lirik kaxramon xolatini xis kiladilar, uning kechinmalarni yogayotgan yomgir singari moddiy narsa tarzida kuz oldilariga keltiradilar.

Shoir yomgir yogayotgani xakida xabar bermaydi, balki yomgirni she'rxon kuz ungida "yogdiradi". Ukuvchi misralarga jo kilingan suzlar orasidan yomgirning bexudud shitirini, chakkilab tomayotgan tomchilarini "topadi". "Yomgir yogar, shigalab yogar, Tomchilar tomchilar sochimga..." misralaridagi ketma-ket takrorlanayotgan "ch" tovushi chakkilab tomayotgan tomchining oxangini beradi. Ayni vaktda, she'rxon tomchilar suzining yonma-yon kelayotganiga e'tibor berish, bir suzning bir misrada ikki bor takrorlanishiga dikkat kilish jarayonida uning ikki ma'no tashishini kashf kiladi. Oldin kullangan "tomchilar" ot suz turkumiga mansub bulib, urgu "i" tovushiga tushishini, keyingi "tomchilar" suzi esa, fe'lga mansub bulib, urgu "o" tovushiga tushishini bilib oladi. Bir karashda tamomila bir xil bulgan ikki suzning yonma-yon kullanilishidan ushancha badiiy ma'no topa bilish kishining fantaziya ufkini kengaytiradi, olam guzalligini teranrok xis kilishiga yul ochadi. Shigalab yogayotgan yomgir sexriga berilib yomgirni unutgan, uning sirli musikasiga asir bulgan shoirning kungli xam yomgirga aylanadi va she'r sungida shunday misralar kuyilib keladi: "Yomgir yogar, shigalab yogar, Yoga boshlar kogozga kungil". Matn taxliliga tugri yunaltirilgan she'rxonlar asar badiiyati shaklga moxirlilik bilan joylashganligini topa oladilar va bu narsa ularning nafakat emotsional rivojiga, balki tafakkur tarakkiyotiga xam ta'sir kursatishi shubxasizdir. Demak, taxlilni shaklni kashf kilishdan boshlash, undan keltirib chikarish mumkin bulgan badiiy mazmunini yukka chikarmaydi, balki uning ta'sir kuchini oshirishga xizmat kiladi.

Shaklga e'tiborsizlik, unga bepisandlik bilan karash ba'zan uning butun guzalligini yukka chikaradi. Badiiy asar-jonli vujud, daxlsiz butunlik. Tirik odamning biror muchasini boshka yerga kuchirish izsiz utmaganidek, chin badiiy asarga vujudiga xam teginib bulmaydi.

Yaxlitligiga daxl kilingan asar badiyiligidan ayrıldı. E.Voxidovning "Ixlos" deb ataladigan she'ri bor. She'rdagi turt misra oddiy mantik talabiga muvofik va grammatik koidalarga mos tarzda uzgaritirliganda, asar jozibasi yukka chikadi:

Yigit kaytdi orzulari yoshdek tukilib,  
Barbob buldi kalbidagi buyuk extiros.  
Tasodifyi bir xolatning kurboni bulib,  
Sundi u kun pok yurakdan buyuk bir ixlos.

Bu turtlikning birorta xam suzini uzgartirmagan xolda grammatik koidalarga muvofik tarzda joylashtirish mumkin: "Yigit orzulari yoshdek tukilib kaytdi. Kalbidagi buyuk extiros barbob buldi. Buyuk bir ixlos tasodifyi bir xolatning kurboni bulib u kun pok yurakdan sundi". She'rsa ifodalangan mazmunga zarracha xam daxl kilinmadı. Mantikiy-grammatik jixatdan turtlikdagi gaplar juda tugri joylashtirildi. Ammo mantikiy-estetik jixatdan girt notugri yul tutildi va shaklga tajovuz kilingani uchun guzal badiiy xodisa yukka chikarildi. Kurinadiki, badiiyat uchun shakl xam ustuvor axamiyat kasb etar ekan. Asl badiiy asarlarda suz emas, balki biror tovush yoki belgi uzgartirib yuborilishi xam katta estetik talofatlarga sabab buladi. Xullas, badiiy taxlilda ukuvchiga badiiy shaklni xis etish, uning axamiyatini anglash yullari urgatilsa, asardan tabiiy yusinda kelib chikadigan badiiy ma'noni tulik ilgab olishga muvaffak bulinadi.

Shaklning ustuvor makomi, badiiy ijodda uning tutgan baland rutbasi, ayni vaktda, shaklning mazmundan ajratib karalishi mumkin emasligi xazrati Navoiy tomonidan "Xayrat ul-abror" asarida guzal yusinda tasvir etilgan:

Suz aro yalgon kibi yuk napisand,  
Aylar aning nazmini dono pisand.

Urnida tishlar duri manzum erur,  
Chun sochilar kiymati ma'lum erur.

Vardu shajar shoxid erur bog aro,  
Lek utin silkidadur tog aro.  
Munda parishonligi noxush kilib,  
Anda murattabligi dilkash kilib...

Daftari nazmida chu sherozadur,  
Gul varagi gulshan aro tozadur.

Uzdi chu sherozani daftari,  
El uchurur xar varagin bir sari.

Nazm anga gulshanda ochilmogligi,  
Nasr karo yerga sochilmogligi.

Bulmasa e'joz makomida nazm,  
Bulmasa edi tengri kalomida nazm.

Nazmda xam asl anga ma'ni durur,  
Bulsin aning surati xar ne durur.

Nazmki ma'ni anga margub emas.  
Axli maoni koshida xub emas.

Nazmki xam surat erur xush anga,

Zimnida ma'ni dogi dilkash anga.

Yorab, ani xalk dilafruzi et,  
Xasta Navoiyga dagi ruzi et.

Kurinadiki, badiiy taxlil asnosida shakl va mazmun munosabatining estetik me'yori topilgan xamda unga amal kilingan xoldagina chukur badiiy taxlil kilish mumkin.

## Badiy matnni tekshirishdagi ilmiy maktablar

REJA:

1. Taxlil tarixi, uning kurinishlari.
2. Tipologik taxlil belgilari.
3. Kiyosiy taxlil sifatlari.
4. Funksional taxlilga xos xususiyatlar.
5. Sotsiolistik talkin belgilari.
6. Formal taxlil
7. Struktural taxlilga xos jixatlar.
8. Matn interpretatsiyasi va xermenevtika.

Tayanch tushunchalar:

"Tipologik taxlil", "kiyosiy taxlil", "funksional taxlil", "sotsialistik taxlil", "formal taxlil", "struktural taxlil", "matn interpretatsiyasi", "xermenevtika", "taxlil va xermenevtika munosabati".

Agar dastlabki badiiy asar xazrati Odam tomonidan yaratilgan bulsa, usha zamonlardan buyon badiiy matnni urganish, uzlashtirishga urinib kelinmokda. Chunonchi, odamiyatga nozil etilgan barcha mukaddas kitoblar xam insoniyatning eng buyuk akl egalari tomonidan tafsir kilib kelingan. Ma'lumki, bu kitoblar bir darajada badiiy asarlar sanalardi. Botish, yurtlarida mukaddas kitoblarning tafsiriga "eksegez" - anglatish, tushuntirish deb karalgan. Badiiy asarni tekshirishning yukorida sanalgan turlari yo matn interpretatsiyasi va yoki xermenevtikasi yunalishida amalga oshirilgan.

Badiiy matnga taxlilchi uz maksadi, falsafiy karashlar tizimi, estetik tayyorgarlik darajasi, ilmiy va badiiy saviyasi va boshka omillardan kelib chikkan xolda yondashadi. Badiiy taxlilni amalga oshirishda turli millatlar va mintakalarida turlicha munosabatlar tizimi karor topgan. Chikish va Botish mintakalarida badiiy matnga tamomila turlicha munosabatda bulib kelingan. Chikish, xususan, Turkisonda badiiy asardan, birinchi navbatda, san'at talab etilgan. Badiiy matnning ta'sirli, uziga xos, betakror nafis va kutilmagan bulishiga e'tibor karatilgan. Botishda esa badiiy matndan kuprok ijtimoiy ma'no kidirilgan, bu xol sotsiologik, funksional taxlil yoki boshkacha aytganda interpretatsiyani kelib chikargan. Shuning ta'sirida adabiyotshunoslik ilmida xar kanday badiiy asar uz-uzidan estetik, tarbiyaviy va ijtimoiy-ma'rifiy funksiyalarini birvarakayiga bajaradi deb xisoblab kelingan. Taxlil mobaynida muayyan badiiy asarda ayni shu funksiyalar kaytarza va kanchalik darajada ado etilishini aniklashga urinilgan.

Badiiy asar interpretatsiya kilinganda, uning nafis san'at asari ekanligiga unchalik e'tibor kilinmay, dikkat matnni talkin etishga, ya'ni tushuntirishga, unda nima xakda gapirilayotganligini ochishga karatiladi. Interpretatsiya tekshirilayotgan matnga usha davr talabidan kelib chikib yondashishni takozo etadi. Xermenevtika esa badiiy asarga tadkikiy yondashuvni talab kiladi. Taxlilchi badiiy matning katlaridagi yashirin ma'nolarni tekshirishga intiladi. Uning badiiyligini ta'minlangan tasviriy unsurlarning urnini belgilash, asarning ijtimoiy salmogini kashf etishdan kam kurilmaydi. Taxlil xulosalari fakat bir davrga emas, balki zamonlarga yararli buladi.

Badiiy matnni tarixiy-tipologik urganish badiiy asarni alovida filologik-estetik butunlik sifatida emas, balki ijtimoiy-tarixiy jarayonning tabiiy okibati tarzida izoxlaydi. Bunga kura insoniyat tarixi bir xil konuniyat asosida rivojlanadi, binobarin, xalk yaratadigan badiiy obidalar xam ayni ijtimoiy-iktisodiy tarakkiyot boskichiga muvofik tarzda vujudga keladi. Sovet folkloristikasi

tarixiy-tipologik nazariya asosida yuzaga kelib, rivojlanadi. Afsuski, xanuzgacha xam uzbek adabiyotshunosligda ana shu nazariyaga tayanib fikrlashga mayl kuchlilk kilmokda. Shu bois "Alpomish" deyarli barcha turk xalklarida xatto dunyodagi turkiy bulmagan ayrim xalklar ogzaki ijodida xam uz muvoziylariga, variantlariga, uxshashliklariga ega degan karash mavjud. Bu karashga kura ijodiy daxo maxsuli bulmish badiiy matn shunchaki tarixiy jarayon rivojining tabiiy va gayriixtiyoriy natijasi, maxsulidir.

Sovet olimlari tarixiy-stadial faktorga tayanib, tarixiy-tipologik nazariya asosida turli xalklar folkloridagi umumiy jixatlarni, xalk ogzaki ijodi janrlari tarakkiyotining sabablarini ijtimoiy xayotdagi uxshashlik bilan izoxlashga xarakat kilishadi. Estetik xodisaning uziga xos rivojlanish konuniyatlarini bulishi mumkinligini xisobga olmaydigan ushbu karash, ta'limot folklor tarakkiyoti konuniyatlarini tugri izoxlashga kodir emasdir. Xozirga kelib, milliy adabiyotshunosligimizda taxlilning bu yunalishi barxam topib bormokda.

Badiiy taxlil tarixida badiiy asarga kiyosiy-tarixiy yondashuv xam muxim urin tutgan. Badiiy adabiyotni komparativistik urganish 19 asr boshlarida paydo bulgan. Gyote "Umumiyn dunyo adabiyoti" shiorini urtaga tashladi. U badiiy adabiyotni dunyo xalklari uchun bir-birini ruxan boyituvchi, davlat chegaralarini tan olmay, ulardan uta oladigan estetik xodisa deb bildi. Kiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslik yoki komparativizm taxlilning bir yunalishi sifatida birinchi jaxon urushidan keyin tulik shakllandi. Ikkinci jaxon urushidan sung, 1949 yil AKShda "Komparativ adabiyot" jurnali chikdi. Bu xildagi nashrlar Fransiya, GFR, Rossiya va boshka kator mamlakatlarda xam paydo buldi. Uzbekitsonda 1997 yilda "Jaxon adabiyoti" jurnali paydo buldi. U uzbek adabiyotini dunyo badiiyati kontekstida urganish imkonini berdi. Komparativistika xalkaro adabiy alokalarni urganishga va adabiy ta'sirlar zamiridagi konuniyatni ochishga karatilgan ilmdir. Komparativistika jaxon adabiy xodisalari orasidagi uxshashliklarni ikki sabab bilan izoxlaydi:

- A) xalklar tarakkiyotidagi tarixiy uxshashlik;
- B) bevosita adabiy-ijodiy aloka va ta'sirlar.

Shundan kelib chikkan xolda adabiy alokalaorni kuyidagi aspektlarda urganadi:

1. tipologik yunalish;
2. adabiy ta'sir yunalishi.

Tarixiy tarakkiyot uxshashligi xam bir kadar tarixiy-tipologik muvoziylikni keltirib chikarishi mumkin. Epos, folklor, yozma adabiyotdagi uxshashliklarning ildizi turli omillarga boglikdir. Adabiy ta'sir masalasi xam juda murakkab xodisadir. Chunki buyuk adabiy obidalar fakat zamondoshlariga emas, keyingi avlodlarga xam, makonlarda, uzga zamonlarda yashayotgan boshka xalklarga xam ta'sir kursataveradi. "Ming bir kecha", "Kalila va dimna", "Farxod va Shirin", "Alpomish", Navoiy, Shekspir, Tolstoy, Dostoyevskiy, Kodiriy, Chulpon, Kafka va xakozolarning ta'siri ayni shu xildagi xodisadir.

Badiiy adabiyotni tarixiy-funksional urganish taxlildagi uziga xos yunalish bulib, badiiy matnning kitobxon ongida ta'sirini, adabiy asarning omma tasavvuridagi martabasi tarixini tadkik etish bilan shugullanadi. Ma'lumki, xar bir tarixiy davr uz ukuvchilariga ega buladi. Garchi, xar kanday davrda xam turli fikrlaydigan kitobxonlar mavjud bulsa-da, ukiyidigan ommaning kupchiligi uchun xos bulgan sifatlarning mavjudligi xam xakikatdir. 40-60-yillarda uzbek xalk dostonlari mamlakatimizdagi shaxaru kishloorda ommaviy ravishda ukilgan. 60-yillarda "Shixidamas bargida" kissasi mashxur edi, usha davrda "Tirik satrlar" antologiyasi yashirinchcha ukilar edi. 80-yillar "Ulmas koyalar" romani kulma-kul buldi. Vaktida Mirmuxsin, R.Bobojon, N.Safarov asarlari mashxur buldi. Ammo bu asarlar vakt sinovidan utmadidi. 20 asrning 70-80 yillarda R.Parfi tushunarsiz, injik shoir xisoblanar edi. Endilikda ilmiy tafakkurimiz rivojida u uziga xos boskich ekanligi ma'lum buldi. Bir vaktlar Soxib Jamol asarlari, "Kismat" romani, "Kasos" kissasi ommaviy edi. Endilikda ularni deyarli xech kim ukimaydi. Chulpon, Kodiriy, Fitrat xatto "Alpomish" bir zamonlar rad etildi. Keyin yana kabul kilindi. Bu xolatning ijtimoiy, ruxiy, estetik va funksional sabablari bor. Tarixiy-funksional taxlil ayni shu savollarga javob berishga xarakat kiladi.

Davrning uzgarishi ijtimoiy ongni yangilaydi. Ijtimoiy tafakkurdagi yangilanishlar davrni uzgartirishga olib keladi. Taxlilchi asar muallifi dunyokarashi, didi, uning bitganlari uz

zamondoshlariga kursatgan ta'siri, millat axlining keyingi bugini matnni kanday kabul kilgani va buning sababi nimada ekanligini tekshirishga xarakat kiladi. "Sinchalak", "Shoxi suzana", "Umid", "Girdob", "Davr mening takdirimda" va boshka unlab asarlar bugun yozilgan vaktidagidan boshkacha kabul kilinayotgani, "Ugri", "Bemor" xikoyalari utgan asrning 90-yillarigacha utmish manzarasi debgina tushunilgan bulsa, bugunga kelib ularning xozirni xam ifodalaganligi anglashildi. Badiiy asarning funksiyasi tarixiy davrga mutanosib tarzda uzgarib borayotganligi taxlilda xisobga olinadi.

N.Eshonkul, O.Muxtor, X.Dustmuxammad, S.Vafo singari adiblar nasri 20 asrning 80-90-yillarida yaxshi kabul kilinmadi. Xozirda ularning eksperimentlariga kitobxonlar urganib borishyapti. "Baxor kaytmaydi", "Mukaddas", "Umid", "Mash'al" singari bir zamonlar kuldan kuymay ukilgan asarlar bugun kupchilik nazaridan kolgan. Tarixiy-funksional taxlil rus adabiyotshunosligida 19 asr sungida paydo buldi. Aleksandr Vesselovskiy Dante ijodiga shu yondashuvni tatbik etdi. Sung F.F.Zelinskiy Sitseron, I.N.Rozanov Pushkin va Tyutchev, V.M.Jirmunskiy Gyote, M.Alekseev Shekspir ijodini tarixiy-funksional jixatdan tekshirdi. M.Baxtin xam bu yondashuvdan foydalandi. 20 asrning 60-70 yillarida M.B.Xrapchenko tarixiy-funksional adabiyotshunoslik atamasinit ilmga kat'iy tarzda kiritdi. Badiiy matn struktur butunlik sifatida uzgarmagani xolda uning kabul etilishida davr kilayotgan ta'sirni anglash ilmiy va estetik jixatdan muxim axamiyat kasb etadi.

Jaxon adabiyotshunosligi tarakkiyotida, badiiy matnni ilmiy tadkik etishda madaniy-tarixiy maktab deb atalgan okimning xam urni katta bulgan. Ovrupodaadabiyot ilmi baland rutbaga kutarilmagan, badiiy matnga baxo berish tamoyillari tulik shakllangmagan bir shariotda madaniy-tarixiy maktab dunyoga keldi. Madaniy-tarixiy maktab 19-asrning urtalarida shakllandi. Unga fransuz teologi, faylasuf va esteti Ippolit Ten asos soldi. Ten uzining "San'at falsafasi" asarida badiiy fenomenga tushunarsiz va sirli xodisa emas, balki xuddi tabiiy fanlarda bulgani kabi sabab-okibat alokadorligi (determinizm)ga ega, tarixiy sharoit yetilgach paydo bulishi tabiiy bir xodisa sifatida yondashdi.

Tenga kadar xuddi Chikishda bulgani singari Botishda xam biror asarning yuzaga kelishi muallif talantining namoyon bulish darajasigagina boglik bed karalardi. I.Ten ilk bor badiiy asar muallif talanti maxsuli deb xisoblamadi. U birinchi bulib, badiiy asarni xalk ruxi, millat tarixi, uning madaniyati tarakkiyotining darajasi bilan boglab izoxlash yulini tutdi. "San'at asarlari uzlari boglik bulgan fikr va axlok bilan birga paydo buladi va birga yuk buladi", - deb yozadi olim. Ten adabiyotshunoslik ijodning konuniyatlarini belgilab berishga yunaltirilishi lozim degan fikri yokladi. Uning karashlarida uch xususiyat seziladi: birinchidan, tabiat xodisalarini izoxlash mumkin bulgani singari badiiy matnlarning dunyoga kelishi va tabiatini deterministik anglatish mumkin. Ikkinchidan, adabiy faktlarni izoxlash, tushuntirish va konuniyatlarini belgilashni adabiyot xodisalaridagi izoxga buy bermaydigan jixatlarga karshi kuyish kerak. Uchinchidan, irk yoki milliy temperament: ijtimoiy-iktisodiy va jugrofiy muxit; tadbik etilayotgan yoki erishilgan madaniy daraja xamda badiiy an'analar badiiy xodisaning yuzaga kelishini tushuntirib, uning konuniyatlarini tayin etadigan omillardir.

Madaniy-tarixiy maktab vakillari biologiya, tabiatshunoslik ilmi metodlarini adabiyotga tatbik etdilar. Ular adabiyot tarixi bilan jamiyat tarixini teng kilib kuydilar. Badiiy asar mustakil kadriyat, aloxida estetik butunlik emas, balki davrning, tarixning kiyofasi, xaykali deb karaldi. Adabiyotning jamiyatga, tarix rivojiga ta'siridan kuz yumildi. G.Lanson, F. Buyuneter (Fransiya), Ch.Brandes (Daniya), V.Sherer, G.Gener (Olmoniya), A.Pupin, A.Tixonravov (Rossiya) singari olimlar madaniy-tarixiy maktab rivojiga xissa kushganlar.

Sotsiologik talkin xam badiiy taxlil tarixida muxim urin tutadi. Bu usulga kura badiiy adabiyot ijtimoiy asoslangan xodisadir. Badiiy adabiyot ijtimoiy xayot bilan juda kup jixatlardan boglangandir, alokadordir va shu bois badiiy asar urganilganda ijtimoiy konuniyatlar xisobga olingan xolda ish kurilishi lozim. Bunday yondashuv adabiy sotsiologiya xam deyiladi. 19 asrning ikkinchi yarmida K.Marks, F.Engels badiiy adabiyotga tuligicha sotsiologik yondashish asoslarini ishlab chikishdi. Ular adabiyotni mafkuraning tarkibiy kismi, sinflar kurashini, jamiyat tarakkiyoti tamoyillarini uzida aks ettiruvchi ijtimoiy ong shakli tarzida karashni karor topdirishdi. F.Mering, P.Lafarg, G.Plexanov singari markschilar adabiyotning uziga xos xodisa

ekanligini xisobga olmay, unga sof ijtimoiy fenomen tarzidagina yondashdilar. Bu xol badiiy suzni ijtimoiy xayotning ilovasiga, mafkuraning yugurdagiga aylantirib kuydi. Adabiy sotsiologiya, ayniksa, V. Leninning karashlarida kuchaydi. U xar bir milliy madaniyatda ikki madaniyat mavjudligi xakida ta'limotni yaratdi. Bunga kura adabiyot sinfiy manfaatlarga xizmat kiladigan xodisa degan karash nazariy ishlab chikildi. L.Tolstoy, Pushkin singari ulkan suz san'atkorlarining bitiklarini badiiyat ulchovlari bilan emas, balki ijtimoiyot mezonlari bilan baxoladi, izoxladi va tushuntirishga urindi. Uning "Partiya tashkiloti va partiya adabiyoti" makolasi (1905) badiiyatga sinfiy pozitsiyadan yondashishni bolsheviklarning mafkuraviy doktrinasi darajasiga kutardi. Bunday karash badiiy adabiyotni junlashtirdi, uning estetik jixatlariga e'tibor kamaytirilib, mavzu jixati muxim sanalishiga olib keldi. Shurolar davrida badiiy adabiyot, fakat ijtimoiy nazar bilan urganildi va baxolandi. Bu xol ijodiy metod deb atalmish omilni badiiyatning muxim ulchagichiga aylantirdi.

Sotsiologistik realizm metodi ana shu ulchagich ularok dunyoga keldi. Vulgar sotsiologizm xamisha badiiy adabiyotga ijtimoiy yondashuv natijasi sifatida paydo buladi va badiiy suzning estetik jozibasini xisobga olmasligi bilan ajralib turadi. Tugri, bidiyy asar xam ijtimoiy turmush muammolarini aks ettirishidan kuz yumib bulmaydi, lekin bu funksiya badiiy suz uchun maksad emas. Balki kungilni anglash, ruxiyatni tuyush yulidagi vosita ekanligi sotsiologik metodda nazardan kochiriladi.

Adabiyotshunoslikda shaklga ustuvor rutba beradigan okim formalizm (shaklchilik) deyiladi. Shuro adabiyotshunoslida formal yondashuvga salbiy munosabatda bulib kelingan. Rasmiy uzbek adabiyotshunosligi falsafiy va estetik ma'nodagi shakl xamda mazmun munosabati orasidagi farkka e'tibor kilmaganligi uchun xam, formalizm mazmunni tan olmaydi, uni inkor kilish xisobiga shaklga e'tiborni kuchaytiradi deb xisoblangan. Xolbuki, formalistik yondashuvda xam mazmunli shakl (soderjatelnaya forma) muxim xisoblangan. Xamma gap nimani mazmun deb xisoblashda ekani tan olingen. Formalistlar uchun badiiy asarda inson kayfiyatining kay yusinda ifodalanganligini aniklash muxim sanalgan. Ular kayfiyatning uzini, uning berilish yusinini mazmun xisoblashgan.

Formalizm turli shakliy jimjimalarga uchib, suzlar yaltirokligiga maxliyo bulib, uning mazmunini nazardan kochirish xollari xam bulgan, albatta. Ammo formalistik yondashuvning syurrealizm, avangardizm, futurizm, konsturktivizm, dadaizm, neoavangardizm, imajanizm, shoizm va boshqa kurnishlari tuzukkina badiiy namunalar bergen. Badiiy adabiyot moxiyatidan xar xillikka, rang-baranglikka intilishdir. Formalizm ana shu yulidagi ekstremistik, jangari izlanishlardir.

Formalizm adabiy okim sifatida Botishda 19 asr oxiri va 20 asr boshlarida paydo buldi. Uning namoyandalari mazmunli shaklning jozibali, dilni kuvontiradigan, kuzga tashilanadigan bulishiga e'tibor karatganlar. Botishdagи formalistlardan Andre Breton (1896-1966) "Syurrealizm manifesti" asarida: "Men kelajakda tush va ung singari" bir-biridan tubdan fark kiladigan ikki xolat kushilib va mutlok reallikka, ya'ni syurreallikka aylanib ketishiga ishonaman,- deb yozadi. Chikish, ayniksa, uzbek adabiyoti bu xildagi izlanishlar bilan xamisha shugullanib kelgan tarafayn, musalsal, muammo, muvashshax, chiston, kitobat, topishmok singari janrlar shakliy izlanishga asoslangan. Bu boradagi tajribalarning ayrimlari muvaffakiyatli, ba'zilari nochor bulgan.

Formalizm bir tarkibli xodisa emas. Unda jangari betokatlik xam, kutilmagan shakliy-mundarijaviy kashfiyat xam, dadil badiiy tajriba xam mavjud. Italiyalik futuristlar, ayniksa, ularning doxiysi Filippo Marinetti (1876-1944) "Futurizmning birinchi manifesti" asarida: "Yashasin urush - fakat ugina dunyoni tozalashga kodir!" -deb yozadi. Buning baxosi uzi bilan, albatta. Futuristik izlanishlar 20 asrning 20-30-yillari uzbek she'riyatida xam uchraydi (Eminjon Abbas ijodi). 20 asr adogidagi uzbek adabiyotida xam bu xildagi izlanishlar bulgan. B.Ruzimuxammad, Faxriyor, I. Otamurod, Guzal Begim she'rlari, O.Muxtor, Xayrullo, Nabi Jaloliddin, Asad Dilmurod, Arslon Ne'mat, Abdugani Abdiyev kabi adiblarning xikoya, kissa va romanlari shu xildagi izlanish samaralaridir. Xullas, formalizmga bir katlamli xodisa deb karamaslik maksadga muvofikdir.

Adabiyotshunoslik ilmida formal metod deb nomlanadigan nazariy konsepsiya xam borki, uni

jiddiy tadkik etish, moxiyatini ayonlashtirish poetik taxlil uchun goyat muximdir. Formal metodga kura, shakl adabiyotning moxiyatini aks ettirib, takomillashish xamda rivojlanish xususiyatiga ega. Formalizm singari formal metod xam 19-20 asrlar ushslashgan davrda dunyoga keldi. 1910 yillardan boshlab, avval tasviri san'at va san'atshunoslikda, sung adabiyot va adabiyotshunoslikda rivojlandi.

V.Dibeliusning "roman morfologiyasi" karashlari ana shu nazariyaning adabiyotshunoslikdagi dastlabki namoyon bulish tarzi edi. Shakliy metodda badiiy asarning butun morfologiyasi, tarkibiy kismlari goyat sinchiklab organiladi, matn puxta ukib chikiladi, lekin shaklga bevosita daxldor bulmagan mavzu, mundarija, goya kabi jixatlarga e'tibor karatilmaydi. Lingvist Boduen de Kurtenening tilning funksional tizim - muayyan vazifa bajaradigan sistema ekanligi borasidagi ta'lomitiga tayanib, formal metod tarafdarlari mazmun va shakl yaxlitligiga e'tibor karatdilar. Formal metod Rossiyada uzining kup tarafdarlari va yirik tadzikotchilariga ega edi. V.Vinogradov nutkning uslubiy shakkllari, V.Jirmunskiy she'nda kofiya, vazn, kompozitsiya, Yu.Tinyanov she'r kurilishi va semantika, V.Vasilovskiy she'r kurilishi, V.Propp ertaklar bayonidagi tizimlilik, R.Yakobson she'rni fonologik organish tamoyili va stilistik semantika singari badiiy matnning ilgarilari organilmagan badiiy kirralarini tadkik etdilar.

20 asrning 20-yillarida, avval, rossiyalik olimlar tomonidan struktur poetika, badiiy semiotika, mashina tilmochligi kabi ilmiy goyalar urtaga tashlandi. Formal metod tarafdarlari "funksional poetika" tushunchasini kabul kildilar va badiiy matn poetikasi uchun sinxron organish kamlik kiladi, adabiy xodisaga diaxron yondashilgandagina uni tulikrok izoxlash mumkin buladi degan tuxtamga keldilar. Formal metod tarafdarlari badiiy matn tarkibini sinchiklab organishga urinadilar, bu xol matndagi barcha jixatlarni kashf etish imkoniyatini beradi.

20 asrning urtalariga kelib badiiy matn taxlilida struktural yondashuv tarzi karor topdi. Struktura fransuzcha "kurilish", "joylashish" suzlaridan olingan. U badiiy matnning uziga xos tarkibga egaligini, aloxida kurilishini, uning unsurlari birining uzgarishi boshkalarning xam uzgarishiga olib keladigan tarzda joylashuvini kuzda tutadi. Badiiy asarni struktura tarzida tushunish antik davrdayok shakllangandi. Unda adabiy matn kismlarining uzaro muvofikligi, uygunligi, ritmiga aloxida e'tibor kilinadi. 20 asrda struktura deyilganda, asarning kompozitsiyasi obrazlar, goyaviy-tematik katlamlar, syujet, til jixatlari fabula, she'r tuzilishi singari kirralar tushuniladigan buldi. Ikkinchchi jaxon urushidan sung strukturalizm aloxida okim sifatida shakllandti va Botish estetik tafakkurida muayyan mavke kasb etdi. Strukturalizmga muvofik adabiy asar aloxida estetik belgilarning uzaro birligi, aloxida - badiiy tilda amalga oshirilgan bayon tarzida tushunildi.

Aloka vositasi bulgan tilning strukturasi bilan badiiy asarning strukturasi tamomila uziga xos xodisalardir. She'riy tildagi burgut, yomgir, olov, suv, tulki, buri va xk. Shunchaki uz ma'nosidagi narsalar emas, balki ularning ramziy, kushimcha badiiy ma'nosini muximdir. Bu suzlarning asl kiymatini biriktirib kuyilgan kushimcha ma'nolar belgilaydi. Struktura tushunchasi xamisha vazifa (funksiya) tushunchasi bilan birga, undan ajralmagan xolda keladi. Chunki xar kanday struktura muayyan vazifani bajaradi va muayyan strukturadagi xar kanday unsur xam ma'lum funksiyani urinlaydi.

Kibernetika va informatika nazariyasi strukturani uch turga buladi: a) oddiy; b) murakkab; v) uta murakkab.

Oddiy strukturadagi barcha unsurlar uzaro sabab-okibat alokasida buladi, biri-biridan kelib chikadi.

Murakkab strukturada sabab-okibat munosabati extimollik bilan kushilib keladi.

Uta murakkab strukturada strukturadan tashkari unsurlarning bulishi mumkinligi xam kuzda tutiladi.

Adabiy asar struktura (tuzilishi) mikyoslari xakida xar xil fikr yuradi. Matninng obrazlar tizimida turok, personaj, kaxramon, portret, peyzaj, detal va xk., strukturaga kiradi.

Strukturalizm badiiy asar asosida yotgan, uni tashkil etgan fikrning tarkibini aniklash, anglatish va ifodalashni tadkik etishga karatilgan ilmiy faoliyatdir. Strukturalizm atamasi ilk bor 20 asr 40-yillarining ikkinchi yarmida fransuz etnologi K.Levi-Stros asarlarida ishlatila boshlandi. U Amerika tubjoy axolisining miflarini organib, ularning bir invariant struktura asosida turli uzga strukturalarga aylantirilib, ertak, kushik, rivoyat, urf-odat va xk., larga aylanganligini kuzatadi.U

mifni kollektiv-ongsiz invariant konstrukt tarzida kabul kiladi va boshka janrlardagi yaratik (matn)lar usha konstruktning variantlari deb xisoblaydi. Levi-Strosning "Xom va kaynatilgan" ("Siroye i varenoye") asarining markaziy bobii "Mavzu va variatsiyalar" ("Temi i variatsii") deb ataladi. Unda mif - mavzu, uning boshka adabiy janrlarda moddiylashuvi - variatsiya deb talkin etiladi.

Struktural tadkikotda transformatsion taxlil muxim urin tutadi. Bunda invariantdan variantga, bir variantdan boshkasiga utishning koidalari tizimi ishlab chikiladi. Strukturalizmning pirovard maksadi badiiy matn yoki estetik strukturaning yaratilishi mexanizmini topish, tayin etish, tadkik kilishdir.

Struktural taxlilda karama-karshi juftlik (binarnaya oppozitsiya) muxim urin tutadi. Levi-Stros mifologiyada ongsiz bajarilgan mantikiy operatsiyalarning murakkab tizimi mavjudligini kursatdi. Uningcha, bu jarayonda kuyidagi usullardan foydalanilgan: 1) brikolaj (tegmay aylanib utish), ya'ni ayrim ismlarni aytish mumkin emas; 2)metaforizatsiya - aytib bulmaydigan ism va tushunchalarni nima bilandir almashtirish, bunda ramzga, ma'jozga tayanish; 3) mediatsiya (usib boruvchi vositachilik) karama-karshi juftlikdagi ixtilofni yengillashtiruvchi unsur yoki tushunchalarni yumrokrogi bilan, uni esa oldingisidan-da yumshogi bilan almashtirish. Chunonchi, xayot yoki ulim urniga xushyorlik yoki uyku va boshka. Strukturalizm aslida 20 asr boshlarida shvesariyalik tilshunos Ferdinand de Sosyur va polyak tilshunosi I.Boduen de Kurtenening struktur lingvistikasidan usib, adabiyotgv utgan. Uzok vaktlar mobaynida tarixiy yondashuv tilshunoslik va estetikaga doir masalalarini xal etishning yagona yuli deb xisoblab kelindi. Ammo xayot tarixiy determinizm til va adabiyotdagи xamma xodisalarini xam izoxlay olmasligini kursatdi. Shunday vaziyatda til xodisalarini, badiiy matn xam til fakti bulganligi uchun badiiy strukturaga doir yaratiklarni izoxlashda, uning tabiatini anglatishda struktural- semiotik yondashuv foydalirok, maksadga muvofikrok degan xulosaga kelindi.

Ana shu zaruriyat tufayli fransuz semiotigi A.J.Greymas tomonidan universal struktur model ishlab chikildi. Boshka bir fransuz - adabiyotshunos va estet Rolan Bart bu modelni filologik nuktai nazardan izoxlab berdi. Universal struktural model kuyidagi kurinishga ega:

Beruvchi ob'ekt Oluvchi  
Yordamchi sub'ekt Muxolit

Bu modelda biror matnda ishtirok etadigan shaxslar karama-karshi juftlik (binarnaya oppozitsiya) nuktai nazaridan kursatilgan.

R.Bart talkiniga kura katta-kichikligiga karamay, xar kanday matn oxir-okibatda jumladir. Bitta jumlada til koidalari kanday namoyon bulsa, butun boshli bir asarda xam ana shu koidalar amal kiladi. Chunki xikoya ulkan jumla bulgani kabi, jumla xam kichik xikoyadir. Xar kanday matndagi singari badiiy matnda xam sub'ekt-ob'ekt xamda yordamchi - muxolif munosabatlari mavjud. Xikoyachi matnni beradi, tinglovchi oladi. Bunda bir obraz sub'ektga yordam beradi, boshkasi esa xalakit kiladi. Shuningdek, matndagi ifodalananayotgan, ifodalangan xamda asl narsa urtasidagi munosabat xam muxim va murakkabdir.

Ifodalanayotgan - ifodalanuvchi  
(olma xakida tushuncha)  
odalovchi narsa  
'Olma" fonetik suzi) (refer  
olmaning uzi

Ifodalanuvchi - xar kanday belgining zarur unsuri, narsa, referent - yordamchi, ifodalovchi - vosita. Shunday ifodalanuvchilar borki, ularda referent bulishi mumkin emas. Masalan: yaxshilik, farishta, iblis, muxabbat, kaboxat va b.

Semiotika grekcha suzdan olingan bulib, "belgi" ma'nosini anglatadi. Seiotika - belgi va belgining tizimlari xakidagi fan. Semiotika tillarni kuyidagicha guruxlashtiradi: 1) tabiiy (milliy) tillar; 2) sun'iy tillar; 3) metatillar - bularga tabiiy va sun'iy tillarni yozib olish va bayon etish uchun yaratilgan ilmiy tillar kiradi; 4) kushimcha - ikkilamchi (vtorichnoye) tillar - bularga if, ritual, san'at tillari, ta'kiklar, odatlar va xk. tillari kiradi. Struktural semiotik karashga kura biror til, biror matn, biror madaniyat uz xolicha, dunyodagi boshka til, matn va madaniyatdan uzilgan xolda mavjud bulolmaydi. Tilning kup yulliligi, belgining kup kanalliligi uning mavjudlik

shartlaridandir.

Struktural poetikaning metodologik asosi badiiy matnga uziga xos mustakil xosila, butun, yaxlit xodisa, aloxida urganilishi mumkin bulgan tushuncha tarzida yondashishdan iborat. Badiiy matnni struktural urganish tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, falsafiy, biografik, ruxiy va uzga yunalishdagi yondashuvlardan mutlako xoli turishni fakat matnning uzini aloxida estetik butunlik tarzida tekshirishni kuzda tutadi. Struktural taxlilda "ichki taxlil" bilan kanoatlaniladi, tadkikotchi matnning badiiy unsurlari va ularning uzaro alokadorligini tekshiradi. Shu tarika matn tarkibidagi xar bir juzv, mucha ayni shu tarkibdagi boshka kismlar bilan munosabatda urganiladi va uning tarkibdagi urni xamda vazifasi tayin etiladi.

Struktural taxlil kuyidagi operatsiyalarni uz ichiga oladi:

- umumiy matndan muayyan bulakni ajratib olish;
- ushbu "bulak"ni yondosh yoxud undan oldingi yoki keyingi matnlardan ajratib teshirish;
- tarkib (matn)ni iyerarxik (yukoridan kuyiga yoki muayyan intizom asosida) tarzda taxlil etish.

Struktural taxlilda badiiy asar unsurlar tizimi tarzida urganiladi. Xar bir badiiy unsurning chinakam kiymati muayyan butunlikni tashkil etgan uzga unsurlarga nisbatdagina namoyon buladi. Struktural taxlil an'anaviy-talkiniy yondashuvdan farkli kilarok badiiy asardan takrorlanmas-individual jixatlarni emas, balki adabiy matnning yaratilishiga sabab olib keladigan umumiy konuniyatlarni kidirishga yunaltiriladi. Ayni xolat bu yondashuvning eng ojiz tomonidir. Negaki, bunday xolda badiiy matnning uziga xosligi emas, balki umumiy kirralarigina tekshiriladi. Matnning badiiyligini ta'minlagan, ijodkorning estetik kiyofasini belgilagan tomonlar nazaridan kochiriladi. Struktural taxlil metodlari strutural lingvistikating metodologik izlanishlari bilan boglik ravishda paydo buladi. Struktural lingvistika tilga belgilar tizimi tarzida yondashadi. Tildagi turgun takrorlanuvchi belgilar tizimi badiiy matnda xam namoyon buladi va uning sifatini belgilab beradi. Chunonchi, fonetika, urgu, ritm, morfema, oxangdoshlik, suz tarkibi, suzlarning birikish tartibi, tinishlar va xokazo. Ayni xil yondashuv struktural taxlilda xam kullaniladi.

Strukturalizmning ob'ekti - fikr bayon etishning adabiy matn deb atalmish uziga xos turidir. Struktural poetika aynan badiiy matnni tilning uzga kurinishlaridan farklab turuvchi adabiy jixat nimadan iboratligini, kaysi unsurlar adabiy tarkibni vujudga keltirganligini aniklash bilan shugullanadi. Bunda muayyan badiiy asar, adabiy matn shu xildagi badiiy matnlar tizimining bir kurinishi, universal "model"ning reallashgan, amalga oshgan nusxasi tarzida karaladi. Bunday yondashuvning adabiyot nazariyasi jixatidan dikkatga molik tomonlari bilan birgalikda, ojiz kirralari xam bor. Struktural taxlil mutloklashtirilsa, badiiy matn tarovati, uning takrorlanmasligi yukolib, tarkibning sxemasigina kolishi mumkin.

Strukturalizm asosini tashkil etadigan metodologik tamoyillar bir xil emas. Chunonchi, fransuz strukturalisti S.Todorov "Nasr poetikasi" (1971) kitobida biografik yondashuvni mutlako inkor etib, adabiyotni urganishga ikki xil yondashish mumkin deb kursatadi:

1. Adabiy matnga aloxida butunlik tarzida yondashish, badiiy asarni tadkikotning yagona ob'ekti va pirovard maksadi xisoblash. Buni interpretatsiya deb nomlash.
2. Taxlilga bitta asarni emas, balki asarlar guruxini jalb etish, ular urtasidagi umumiy konuniyatlarni topish.

Struktural poetika tushunchalar tizimida uch gurux tushunchalar borligini kurish mumkin:

- A) struktur taxlil predmeti tushunchalari;
- B) struktur taxlil jarayoni tushunchalari;
- V) struktur taxlil tizimi tushunchalari.

Ular orasida karama-karshi juftlik (binar oppozitsiya) tushunchalari aloxida tur xisoblanadi. (ulim-tiriklik, yaxshi-yomon, guzal-xunuk, katta-kichik, vujud-rux, yuksak-tuban va xk.).

1. Struktur taxlil predmeti tushunchalari:

Umumiyl tushunchalar	Xususiy tushunchalar
Belgi - ifoda	junatuvchi
Nutk - til	oluvchi (adresat)
Matn - kontekst	axborot
Madaniyat - tabiat	kod

## 2. Struktur taxlil jarayoni tushunchalari:

### A. Struktur taxlil operatsiyalari (tadbirlari):

- "ukish", "ukib chikish", "yaxshilab ukish", "dikkat bilan ukish";
- mikrotaxlil;
- traktovka (tushunish), talkin;
- deshifrovka, rasshifrovka; (kodlarni ochish, yechish);
- Modellashtirish.

### B. Struktur taxlil boskichlari

1. Aksiomalashtirish - butun (tizma)ni muayyan parametrlar buyicha unsurlarga ajratish uchun isbot talab kilmaydigan asosni topish (ayirish, belgilash).
2. Dissotsiatsiya - aksiomalashtirish natijasida aniklangan tadkikot ob'ektini struktura unsurlariga asosli tarzda ajratish.
3. Assotsiatsiya - matn unsurlari urtasidagi alokadorlikni topish.
4. Identifikatsiya - unsurlarning belgilariga karab, ular orasidagi alokadorlikni aniklash.
5. Integratsiya - matnning barcha unsurlarini yoppasiga tekshirish, bunda matnni tashkil etgan unsurlarga shunchaki umumiy mikdor deb emas, yaxlit butunlik sifatida yondashish.

### 3. Struktural taxlil tizimi tushunchalari.

1. Unsur (element) - tadkikotning predmetini tashkil etib, boshka bulaklarga ajratilmaydigan butunlik.
2. Tizim (sistema) - bir-birlari bilan muayyan tarzda birikkan unsurlar majmui.
3. Munosabat - unsurlar urtasidagi aloka. Bunda unsurlardan birining uzgarishi boshkalarini xam uzgartiradi.
4. Struktura (tarkib) - tizimning butun ichki munosabatlari majmui.
5. Daraja - bir tartibdagi unsurlar yoki munosabatlarning axamiyatiga kura joylashuvi.
6. Iyerarxiyaviylik - unsurlar yoki munosabatlар tizimining darajasiga muvofik ichki tashkillanishi.
7. Vaziyat - struktura unsurlari yoki munosabatlarining urinlashuvi (tipologiya).
8. Muxolifat - karama-karshi unsurlarning binar (karama-karshi juftlik) vaziyati.
9. Model - taxlil etilgan asarning nazariy ekvivalenti (nusxasi).

## **Badiiy taxlilda adabiy turga xos xususiyatlarni xisobga olish**

### **Lirik asarlarni taxlil kilish yullari**

REJA:

1. Badiiy taxlilda adabiy turga xos xususiyatlarni xisobga olishning zarurligi.
2. Lirik turdag'i asarlarni taxlil kilish yullari.
3. Lirikada suz va ifoda.
4. Lirikada xarakter tasviri.
5. Lirik asarlarda xissiylik tasviri.

Tayanch tushunchalar:

"Lirik kaxramon", "lirik xarakter", "lirik ifoda", "lirik suz",  
"lirik janrlar", "gazal", "muxammas", "ruboyi", "tuyuk", "musaddas", "modern lirika", "xalk lirikasi".

"Adabiy tur", "lirik asar taxlili", "ichkinlik", "tuyguni tasvirlash", "sub'ektivlik", "epik asar taxlili", "tafsilot", "inson tabiatini va vokelik tasviri", "dramatik asar taxlili", "drama nazariyasi".

Badiiy taxlil muvaffakiyatli chikishi uchun tekshirilayotgan asarning kaysi adabiy turga mansubligini xisobga olish muxim. Adabiy tur tushunchasining moxiyatida taxlilning kaliti

yotadi. Negaki, adabiy tur va janr xususiyatlari badiiy asar tabiatini belgilaydi. Turli janrlardagi adabiy asarlar tekshirilganda, taxlil usullari mutlako uzgarib ketmaydi, albatta, lekin taxlilchining asarga yondashishi, munosabat tarzi uzgaradi. Xar bir badiiy asar takrorlanmas va tamomila uziga xos estetik xodisaligi, ayni vaktda u uz turdoshlariga xos umumiyligi jixatlarga egaligi uchun xam taxlilda adabiy turga xos belgilarni xisobga olish zarurdir. Chunki lirk asarni taxlil kilgan usul bilan romanni urganish mumkin emas. Shuningdek, xikoyani urganishda kul kelgan taxlil usuli dramani tekshirishda ish bermay kolishi mumkin va x.k. Xar bir adabiy tur tabiatidagi uziga xoslik bu turga mansub asarni taxlil etishda undagi asosiy jixatdan kelib chikishni talab kiladi.

Ma'lumki, bizdag'i adabiy tur atamasi ruslarda "rod" - jins suzi bilan beriladi. Lekin xar ikki tilda xam bir tushuncha kuzda tutiladi. Badiiy asar kanday maksadda (kuylash, kursatish yoki ukish uchun) yaratilishiga va nimani (tuygu, vokea yoki xarakat) ifodalashiga karab turlarga bulinar ekan, taxlil jarayonida xam badiiy matnning maksadi va ifoda imkoniyati xisobga olib ish kurilsa, kutilgan samaraga erishish mumkin buladi. Asarning til kurilishi va badiiy bilishning ob'ektga, sub'ektga yoxud badiiy ifoda aktining uziga yunaltirilganligi uning turini tayin etadi. Chunonchi, suz yo moddiy olamni tasvir etadi, yoki suzlovchining xolatini aks ettiradi, yoxud suzlashish jarayonining uzini kayta tiklaydi. Suzning shu uch xolati uch adabiy turni keltirib chikaradi. Ayrim mutaxassislar adabiy turlarning uchga bulinishi bilan tilshunoslik ilmidagi shaxs-son va zamon kategoriyalari orasida muayyan analogiya, aynanlik kurishadi. Ya'ni lirika - "men" va "xozir", epos - "u" va "utmish", drama - "sen" va "kelajak". Badiiy asarlarning turga xos xususiyatlari ularning san'atning boshka turlaridan kaybiriga yakinligida xam aks etadi. Chunonchi, epik asarlar grafika va rang-tasvirga osonrok kuchadi. Lirk asarlar esa musikaga tez muvofiklashadilar. Dramatik asarlar teatrda namoyon bulib, pantomimaga yovukrok turadi.

Eposda odam vokea-xodisa ichida kumilib, uning okimida okadi; dramada inson vokea ustidan xukmronlik kilib, uning fonida turlanib kurnadi; lirkada inson uz xolicha koladi (Jamol Kamol).

Taxlil jarayonida ayni shu jixatlar xisobga olib ish kurilishi joix. Aks xolda badiiy taxlil amalga oshmay kolishi mumkin. Epik asarlar taxlilida bu xil asarlarning moyasida ozdir-kupdir tafsilot bulishini kuzda tutish lozim. Demak, epik asar taxlilini amalga oshirishda badiiy timsol bilan tafsilotning kanchalik muvofikligi yoki nomuvofikligi yoxud alokasiz tasviri bergen estetik natija kidirilishi lozim buladi. "Alpomish" dostoni taxlil etilayotganda Xakimbekka enchi sifatida berilgan biya, undan tugilgan yargok toychok, Barchindan xabar kelgan kuni shu toyning sagrasi toshib, uzini kuyarga joy topolmay kolganligi, Alpomishning ot surab Kultoysa borishi, Kultoyning unga ot bermasligi va boz ustiga kaltaklashi, uz moliga egalik kilolmagan noshud yigitning kuruk kaytishi va Kaldirgochoyim iddaolari singari kugpina tafsilotlarga e'tibor karatilmasa, estetik taxlil yuzaga kelmaydi. Chunki timsolning asl moxiyati ayni shular zamiriga joylangan.

Lirk turdag'i asarlarning asosiy belgisi yashiringan sub'ektning ruxiy xolati, sezimlari, xissiy olami, tuygular tizimi ekan, bu turdag'i matnni tekshirishda ayni usha jixatlarga e'tibor karatish, emotsiyaning samimiyligi, ifodaning xissiyligi, yukumliligi singari lirikaning saviyasini yuksaltiradigan omillarni topishga, ularning uz urnida kullanganligini urganishga e'tibor karatish joiz. Lirk asar taxlilida suzlarning ta'sirchanligi, ma'noning tigizligi, ifodaning serkatlamligiga aloxida dikkat kilinishi zarurdir.

Dramatik asarni taxlil kilishda, garchi badiiy adabiyotning bu turi xam suz vositasida yaratilsada, saxnaga muljallanganligi, tomosha kursatish maksadida dunyoga keltirilganligi, unda muallifning ishtirok etmasligi, timsollarning xatti-xarakatlariga biror darajada xam munosabat bildirish imkoniyati yukligi kuzda tutib taxlil kilish lozim buladi. Shundagina bu turdag'i asarlarning xayotiy va badiiy moxiyati xamda estetik jozibasini bir darajada namoyon etish mumkin buladi. Dramatik asarlar taxlilida Botish estetikasi yuriklaridan foydalanish samara beradi. Negaki, bu tur Chikishda chukur ildizga ega bulmaganligi uchun xam uni tekshirish borasida xam ilmiy mustaxkam tamoyillar ishlab chikilmagan.

Adabiy turlarga xos xususiyatlarni xisobga olishning uzi xam taxlilning tukisligi uchun yetarli emas. Negaki, adabiy turlar uz navbatida janrlarga bulinadi va ular xam bir kaor jiddiy uziga xosliklarga egadir. Taxlilga tortilgan muayyan asarning janr jixatlari xam kuzda tutilgandagina samaraga erishish mumkin. Chunonchi, lirk turning gazal janrini taxlil kilish boshkayu, tuyuk,

muvaşşax yoxud chistonni tadkik etish boshka. Shuning uchun xam adabiy janrlarga xos jixatlarni xam kuzda tutib ish kurishgina taxlilchiga nisbatan tulik va samarali taxlil kilish imkonini beradi.

**Lirik asarlar asosan** ruxiyat manzaralarini aks ettirgani va junbushga kelgan xissiyot ifodasi sifatida yuzaga kelgani uchun xam taxlil jarayonida sezimlar, tuygular tizimi tasviriga ustuvor axamiyat berilishi lozim. Lirikada vokealar bayoni, xatti-xarakatlar kulami emas, balki kechinmalar zamzamasi kaytarzda berilishini tadkik etish va bu borada asosli kuzatishlar kilish muximdir. Lirikada suz xam kayfiyat ifodasini berish, xam xolat tasvirini chizish, xam taaassurot mazarasini kursatish vositasi bulganligi uchun lirik asarni taxlil kilishda badiiy suzdagi yetakchi oxangni ilab olish, asar musikasini tayin etgan omillarni topishga aloxida axamiyat berish lozimdir. Lirik asarda kayfiyat kay darajada tasvir etilganligi uning estetik kiymatini tayin etuvchi asosiy omildir. Bu turdag'i asarlar tekshirilganda nimani tasvirlash emas, balki kanday tavsirlanganligini aniklash muximrokdir.

Milliy adabiyotimiz tarixida lirik turdag'i asarlar salmok jixatidan xam, sifat jixatidan xam katta urin tutadi. Lirik turdag'i asarlar uchun asosiy narsa tuygu va xissiyotga yugrilgan xayotiy xikmat ifodasini berishdir. Lirikada vokealar tasviri, xarakter mantigi emas, ruxiy xolat tasviri, xissiyot ifodasi, tuygular samimiyati muximdir. Chinakam lirik she'r tinglovchi yo ukuvchiga fakat zavk beribgina kolmay, uning emotsiyal-axlokiy imkoniyatlarini uygotadi, faoliyatga undaydi. Samimiy lirik suz xatto real vokkelik xodisalariga karaganda xam inson ruxiyatiga kuchlirok ta'sir kursatishi mumkinligi psixologiya ilmi xulosalaridan ma'lum. Shu boisdan xam lirik asar taxlili kishini nafakat estetik-ma'naviy jixatdan, balki funksional-akliy tomonidan xam kamolotga yetkazishga xizmat kiladi. Inson nozik va ingichka tuygular bilan xayvonot dunyosidan fark kiladi.

Lirik asarni taxlil kilishda undan mantikiy xulosa chikarishga shoshilmaslik,yaxshisi bunday xulosani umuman izlamaslik yekrak. Lirik asar taxlili uchun muximi she'r dagi tasvirga she'xon xissiyot olamidagi reaksiya, munosabatdir. She'r chukur taxlil tufayli ukuvchilar tomonidan tulik kabul etilsa, yurakka yetib borgan, uni bezovta kilgan omillar nimalar ekanligi angalb yetilsa, shuning uzi umumlashma xulosadir. Lirik kaxramon yoki shoir xolatini bevosita xis etishga odatlantirish yuli bilan she'xonni uzgalarining ruxiyatni ilgaydigan, birovning kaygusiga dardkash, kuvonchiga sherik bula oladigan ma'naviyati yuksak, barkamol shaxs sifatida shakkantirish mumkin. She'xonni lirik asarlardagi she'riy san'atlarni, nozik ishoralarmi, kuzdan yashirip badiiy tasvir vositalarini paykashga urgatish uni badiiy suz jozibasini tuyishga odatlantiradi.Suz sexridan zavklana bilish kishining xissiy sezimlari, nutk boyligi, fikrlash malakasini orttiradi. Lirik asar taxliliga she'xonlarning kalb kuzini ochish, ularda atrofdagi guzaliklarga faol munosabat uygotish vositasi tarzida karash taxlilning chukurlashishiga olib keladi, uning ijtimoiy axamiyatni oshiradi.

Milliy lirikamizning yirik vakillaridan ayrimlari misolida lirik asarlar taxlili kanday amalga oshirilishini kurish mumkin. Chulpon she'riyatida ruxiyat manzaralari, inson xissiyotining zumlik tulgonishlari aks ettiriladi. Jumladan, "Guzal" she'rida shoir tabiatning juda dilbar manzarasini yaratgan. Lekin u tabiatdan nusxa kuchirmagan, uziga chiroylı tuyulgan lavxasini shu xolicha tasvir etmagan. Chulpon tabiatning tasviriga xamisha inson ruxini singdiradi, insoniy xissiyot tabiat guzalligiga jon bagishlaydi. Uni dard bilan, odamiy ishk bilan munavvar kiladi. Shoir izlayotgani guzalni, dastavval, "Korongu kechada kukka kuz tikib, eng yorug yulduzdan..." suraydi. Taxlilning ibtidosidanok, she'xon shoir xissiyoti olamiga yakinlashtirilishi darkor. Nega lirik kaxramon guzalni "korongu kechada" izlay boshladi? Nima sabab ma'shukasini "eng yorug yulduzdan" suradi? Taxlilchi she'r matnidan shu savollarga javob topishga uringani sayin asarning joziba kuchini tuyib boraveradi. Ishkka mutbalo bulgan kalb egasiga uyku begona. Xazrati Navoiy aytganlaridek. "Beishk uluska kom uyku, ishk axligadir xarom uyku". Shu bois "Guzal"ning lirik kaxramoni - bedorlik bandasi. Bedor odam, kalbiga ishk oshyon kurgan dardmand uziga dardkash izlashi tabiiy. Lekin ishkday maxram tuyguni bulak odam bilan urtoklashib bulmaydi. Shuning uchun lirik kaxramon uykusiz tundagi xamroxlari: osmon

jismlariga, eng yorug, eng yakin yulduzga murojaat kiladi va bu xolat - ishonarli. Xar xolda, Chulponning lirik kaxramoni, avvalo, yulduzga murojaat kilib notabiiy yul tutmaydi. Endi yulduzning guzalni ungida emas, "tushda kur"gani sababi xakida uylab kurish kerak. Uzbek guzali garbning tunkezar soxibjamollaridan emaski, kechasi paydo buladigan mavjudotlarning kuzi tushsa. Yulduz malakning ta'rifini eshitishi, eshitganlari tufayli tushlaridagina kurishi mumkin. Shu vajdan "eng yorug yulduz" malakni fakat tushida kurgani tabiiy xol! Yulduzning e'tirofi bejiz emas: "Tushimda kuramen: shunchalar guzal, Bizdan-da guzaldir. Oydan-da guzal! She'rdagi xar bir suzga e'tibor berish joiz: lirik kaxramon ma'shukasini bitta" eng yorug yulduzdan suragan edi. Lekin u yulduzdan: "Bizdan-da guzaldir..." degan javobni eshitadi. Nima uchun? Negaki, bitta yulduz kanchalar porlok bulmasin osmon kurki bula olmaydi. Kukning bezagi - osmon tula sanoksiz yulduzlardir. Ularning guzalligi: kupligi va tartibsiz tartibida! Buni "eng yorug yulduz" yaxshi biladi. Shoira she'rdagi juda mayda detallargacha goyat katta e'tibor bilan ishlagan.

Yulduzdan konikarli javob ololmagan lirik kaxramon nigoxini "oy chikkan yokka" olishga va ma'shukasini suroklashga majbur. Oy unga: "...bir kizil yanokka, Uchradim tushimda kumilgan okka",-deb oson izoxlash mumkin: guzalni kurmok uchun nazar tashlagan Oydan mayin, sutday nimiratir ok nur taraladi. Taraladi-yu, yerdagi malakka xam tushib uni ok ogushiga oladi. Bundan tashkari, Shark estetikasida ok-ezgulikni ifodalovchi rang. Guzal, garchi uni oy ungida kurmagan bulsa-da, albatta, ok kiyingan bulishi kerak. Ok yuzli malakning oppok libosi Oyning oydin nuri bilan kushilib tengsiz malikani tamomila okka chulgaydi. Bu juda tabiiy. She'nda "kizil yanok" sifatlashi xam ishlatilgan. Shark odami uchun kizil yanok - sogloqlik xam guzallik belgisi. Shuning uchun xam oyning tushida namoyon bulgan malak kizil yanokli. Buning ustiga, guzalning kizil yanogi tasviri she'rning keyingi bandida kuyoshning yondiruvchi kizilligini asoslovchi mantikiy-xissiy vosita.

Sirli guzalni suroklab tong ottirgan oshik yorini "erta tong shamolidan" surishtirmay iloji yuk. Tong nasimi tengsiz malakni tushida emas, ungida kurgan. Lekin bu baxtiyor visol unga "bir" martagina nasib etgan. Uning sarosar kezmogi, xurilikoga telbavor oshik bulmogi uchun usha birgina yulikish kifoya: "...bir kurib, yulimdan ozib, Togu toshlar ichra istab yuramen!" Sirli guzalning tong shamoliga ungida yulikish sababini endi ancha oson izoxlasa buladi: uzbekning dilbar kizlari saxarxez bulishadi. Nechoglik extiyot bulmasin, sirli malak biror marta tong nasimining nigoxidan kutulolmay kolgan bulishi mumkin.

Nixoyat ishk otashida kuyib korongu kechadan kunduzga kadar bedor yurgan oshik olamni munavvar etgan Kun - kuyoshga murojaat aylaydi: "Ul-da uz utidan bekinib, kochi, Aytadir: bir kurdim tushdamas, ungda. Men ungsa kurganda shunchalar guzal, Oydan-da guzaldir, kundan-da guzal!" Astoydil izlagan topadi deganlaridek, Kun xam ul malakni birgina bor kurishga tuyassar bulgan. Lekin usha birgina uchrashuv uning oshik bulishi, uzini unutar darajaga kelishi uchun yetarli. Mazkur bandda: "Ul-da uz utidan bekinib, kochib..." misrasiga yashiringan ma'no e'tibordan aslo chetda kolmasligi kerak. She'riy organizmdagi eng kichik uzgachaliklarni paykay olish uni tushunish sari olib boradigan eng tugri yuldir. Kuyoshga tik karab, uni kurib bulmasligi xammaga ma'lum. Buni shoirona iste'dodgina: "... uz utidan bekinib, kochib" tarzida ifoda kila olishi mumkin. Kun falakda suzib yuribdi. Unga tik karashingiz bilan kurinmay koladi. Chunki kuzingizni oladi. Shu bois kuyosh uz utidan bekinib, kochibgina mulokotga kirishadi.

Yulduz, oy, shamol, kun timsollari yordamida lirik kaxramon kalbidagi ishk uti alangasi nechoglik balandligi, xijron azobining kanchalar ogirligi ochiladi. Charx urib, faryod chekib olamdagagi eng mukaddas narsasini - dardini, ishkini izlayotgan oshik nolasib ukuvchi kalbida xam aks-sado beradi. She'rning sunghi bandi tuligicha lirik kaxramon ruxiy xolatining, kechinma-yu kayfiyatining ifodasidan iborat. Xajr yulida urtanayotgan oshik guzaldan yozgirmaydi. Chunki asl tuygu minnatdan yirok buladi. U visol ta'masini xam xayol etmaydi. Oshik ishkning uzidan masrur, dard chekish baxtidan magrur. Shu bois, "boshini zur ishga berib" kuyganidan pushaymon emas. Mislsiz muxabbati va urtanishlari evaziga xech narsa kutmaydigan chin oshik ruxiy dunyosining nurli tulganishlari aks etgan "Guzal" she'rini shu tarika taxlil kilish uning jozibasini tularok, ta'sirlirok anglash imkonini beradi.

Shoira Zulfiyaning "Oydin"da deb ataluvchi nozik ishoralarga, ingichka ifodalarga boy ichkin

bir she'ri bor. Bu she'r sof tabiat lirikasining namunasidir. She'rdagi oxir kuklam yomgiridan keyingi tunlarning birida sanoksiz yulduzlar charaklagan osmon, olamni oklikka uragan oy, xayol kabi tuzgigan bulutlar guzalligidan xayajonga tushgan shaxs kechinmalari, xayratlari aks ettirilgan. Bu she'rda burtib turgan ijtimoiy ma'no xam, dardkash kalb izardiroblari xam yuk. Unda bekiyos iloxiy guzallik va shu guzallikdan xayratlanayotgan masrur kalb entikishlarigina bor xolos.

Jilib-jilmas tulin oy,

Bulut xayolday yengil,  
Oy anxorda kulun toy,  
Gilosda shigil-shigil..

Anxor tinimsiz uynoklab okadi, suvi tip-tinik, shu bois unda aks etayotgan Oy kulunday yuguruk. Yomgir tufayli toza chayilgan gilos mevalarining xar birida bittadan tulin Oy jilva kiladi, shu bois "gilosda shigil-shigil". Xovuz tinik suvga tula, ammo u okmaydi, shu bois kukdagi oy bir xovuz "yaxlit oynaday bulib" yoyilgan, xovuzdag'i oyni yaxshirok kurmok ilinjida egilgan lirik kaxramon boshka bir oyga - uziga "rubaru" keladi. Chunki u xam - oyday guzal. Shoira shoxona kiyingan malika yanglig "ming-ming yulduzni sidirgasiga chaykab" yerga sudrab bormokda: tinik osmonning xovuzdag'i aksida sanoksiz yulduzlar lirik kaxramonning kiyimlariga tikilgan bezaklar kabi tuyuladi. She'rxonlar moviy kukni kiyim kilib, undagi yulduzlardan bezak takib ketayotgan soxibjamolni kuz oldilariga anik keltirishlari mumkin.

Taxlilda she'rdagi guzal uxshatishlar, kutilmagan obrazli ifodalarni kurishga, tushunishga e'tibor kilinsa, she'rxon oldida guzallikning xadsiz dunyosi ochiladi. Taxlil "Sel unutgan kulmaklar, Misli oyning singani" misralaridagi chiroyli uxshatishni paykashdan tashkari "Sel unutgan kulmak", "singan oy" tarzidagi obrazli ifodalar xakida uyga toldirishi, bu tasvirlarning tagiga yetishga undashi kerak. Taxlil shu tarzda samimi tuygular ifodasidan xayratga tusha oladigan, chinakam she'riy satrlar bagridagi sexrni xis kilishga kodir kishilarning ma'naviy olamini shakllantirishga xizmat kiladi.

